Tahlil va natijalar. Oziq-ovqat nomlari tadqiqiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ichida N.Ikromovning hissasini alohida qayd etib o'tish lozim. Chunki N.Ikromova ilmiy izlanishlarida oziq-ovqat nomlarini faqat leksik-semantik jihatdan tahlil qilib qolmay, balki ularning tarixiy ildizlariga ham nazar tashlaydi. Bu o'rinda olim M.Koshg'ariyning "Devoni lug'ati turk" asariga murojaat qilib, asarda 145 ta oziq-ovqat bilan bog'liq til birliklari uchrashini ta'kidlaydi. N.Ikromova mazkur leksemalarni arxaizm va tarixiy so'zlarga bo'lib o'rganganda, ulardan 26 tasi arxaizmlar, qolgan qismi esa tarixiy so'zlar sirasiga kirishini aniqlaydi. "Devoni lug'ati turk"da qayd etilgan oziq-ovqat leksemalaridan 6 tasi bugungi kungacha saqlanib qolgan, —deb qayd etadi tadqiqotchi. Shunindek tahlillarda Buxoro, Samarqand, Andijon, Marg'ilon, O'sh hududlarining oziq-ovqat va taom nomlaridan foydalanganligini ko'rsatadi. Biroq M.Xudayorovning ilmiy tadqiqotida N.Ikromova faqat Toshkent hududining taom nomlarini tadqiq qilgan, — degan yangilash mulohazalarni uchratdik [14].

N.Ikromova ilmiy mulohazalarini bayon qilishda "kushanya" tushunchasini qo'llab, "i zdes i daleye v tekste pod slovom "kushanya" ponimayutsya razlichniye gustniye i jidkiye blyuda, goryachiye i xolodniye zakuski, zagotovlyayemye vprok vidi provizii, napitki, razniye sorta pechenogo xleba i dr" [8], — tarzida izoh keltiradi. Olima oziq-ovqat nomlarining tarixi, grammatik strukturalari, nomlanish prinsiplari xususida atroflicha mulohazalar yuritgan. U oziq-ovqat nomlarining boyish manbalarini ikki guruhga ajratadi:

- 1) Og'zaki nutq;
- 2) Yozma manbalar, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari.

Ishda shuningdek, 1959-yilda chop qilingan o'zbekcha-ruscha lug'atda 117 ta oziq-ovqat nomi, 1981-yilda nashr qilingan "O'zbek tilining izohli lug'ati"da 150 ta shu turdagi til birliklari uchrashini qayd etib, tilda hali lug'atlarga kiritilmagan taom nomlarining ko'pligi va ularni to'plash, tayyorlanish usuli, paydo bo'lish tarixi kabi turli aspektlarni tadqiq qilish ehtiyoji mavjudligi ta'kidlanadi. N.Ikromova oziq-ovqat nomlarini bir ma'noli va ko'p ma'noli turlarga bo'lib, ayrim leksemalarda ma'noning torayishi yoki aksincha, kengayishi holatlarini kuzatadi. O'zbek tilidagi oziq-ovqat nomlarining qo'llanish chostatasi hisoblanganda esa, "non" va "osh" leksemalari eng keng qo'llanuvchi birliklar ekanligi aniqlangan.

N.Ikromova oziq-ovqat nomlarini grammatik strukturasiga ko'ra sodda va qo'shma turlarga ajratadi.

N.Ikromova XX asr o'zbek oziq-ovqatga doir terminlarning leksik tarkibini tahlil qilib, quyidagicha klassifikatsiya qiladi:

- 1) Turkiy oziq-ovqatga oid til birliklari — asosan — "moch" va —"ma" suffikslari bilan yasali: qovurmoch, dimlama;
- 2) Fors-tojikcha oziq-ovqatga oid til birliklari — asosan — "ob" va —"shir" suffikslari bilan yasaluvchi shirguruch, mastava;
- 3) arab tilidan o'zlashgan gastronomik birliklar: kabob, patir, xamir;

- 4) uyg'ur-xitoy tilidan o'zlashgan taom nomlari: lag'mon, manpar, manti;

- 5) rus tilidan va rus tili orqali boshqa tillardan o'zlashgan oziq-ovqat nomlari.

Leksik-semantik jihatdan esa:

- 1) Barqaror taom nomlari: non, ovqat kabi;
- 2) Tarixiy taom nomlari: tutmoch, qavut;
- 3) Arxazimlar: mun — hozirgi shakli sho'rva, yozlomoch — hozirgi shakli xamir;
- 4) Neologizmlar: ragu, rulet kabi.

N.Ikromovning ilmiy qarashlari bugungi kunda glyuttonimlar ustida ilmiy izlanishlar olib borayotgan tadqiqotchilar uchun muhim ahamiyat kasb etib, oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq til birliklarining etimologiyasidan to'nomlanish tamoyillari, grammatik strukturalari kabi jihatlarini o'rganishda ham asosiy yo'riqnoma vazifasini o'taydi. Tadqiqotda tarkibida oziq-ovqat nomlari mavjud bo'lgan "O'zing pishirgan osh, aylanib ham, o'rgilib ham yeysan", "Yopig'lik qozon, yopig'ligicha qolsin" kabi maqol, matal, ibora ko'rinishidagi barqaror birliklar xususida ham ayrim mulohazalar bayon qilingan. Har bir tilda xalqning turmush-tarzi, urf-odat va mentalitetini o'zida aks ettirib keluvchi oziq-ovqat komponentli paremiyalar mavjud bo'lib, ular bir-biridan lingvomadaniy jihatdan farqlanadi. Masalan, o'zbek tilida "Uzumini yegin-u, bog'ini surushtirma", "Sabr qilsang, o'rada sho'rva pishar" kabi maqollar ham uchraydiki, ularning xorijiy tilda qanday berilishini tilshunos va tarjimashunoslar uchun savol tug'diradi. Tarjimashunoslikning shu kabi lingvokulturologik muammolariga tadqiqotimizning keyingi bo'limlarida batafsil to'xtalib o'tamiz.

M.Xudayorova esa o'zbek tilidagi taom nomlarini Qoraqalpog'iston hududi materiallari misolida lingvistik tahlil qiladi. Olima taom nomlarining tarixiy ildizlari, leksik qatlamlari, ularning leksik-semantik klassifikatsiyasi, nominatsiyasi, taom nomlarining stilistik xususiyatlari va ularning morfologik, semantik va sintaktik yasaliish usullarini chuqur tadqiq qiladi. Tadqiqotchi dastlab termin tushunchasiga atroflicha to'xtalib, ishda glyuttonimlar ham leksema, biroq ular oziq-ovqat sanoati va pazandachilik kabi sohalarida termin sanaladi, — deb ta'kidlaydi. M.Xudayorova o'z dissertatsiyasida "taom nomlari" atamasini faol qo'llaydi [14]. Olima taom nomlarini kundalik tayyorlanadigan taomlar, bayram va marosimlarda tayyorlanadigan taomlar, masallig'i kamyob taomlar, kasallik va betoblikda tayyorlanadigan taomlar kabi guruhlariga bo'lib tadqiq qiladi. Shuningdek, tadqiqotda taom nomlarining o'zlashmalar hisobiga boyish yo'llari, Qoraqalpog'istonda yashovchi aholi marosimlari bilan bog'liq taom nomlari, taom nomlarining hududda yashovchi boshqa: qozoq, turkman tillaridagi taom

nomlari bilan o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilingan. Qoraqalpog'iston hududi taom nomlarining tarixiy ildizlari M.Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asaridagi taom nomlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, XII asrda tayyorlangan taomlar hozirgi kunda ham nomi o'zgargan holda Qoraqalpog'istonda istiqomat qiluvchi xalq kundalik turmushida uchrashi aniqlangan. Bu kabi tadqiqotlar taom nomlari misolida o'zbek tilining tarixiy ildizlari, tilning boyish manbalari va qardosh xalq tillari bilan o'xshash va o'ziga xos jihatlarini yoritib berishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotchilar taom nomlari bilan bog'liq masalalarda ba'zan mushtarak mulohazalarni bayon qilsa, ayrim holatlarda esa munozarali o'rinlar ham uchraydi. Xususan, M.Komilovning "O'zbek tiliga xitoy tilidan o'zlashgan oziq-ovqat nomlari tahlili" maqolasida lag'mon xitoy tilidan o'zlashgan taom nomi deb ko'rsatilsa, G.Odilovning "O'zbek-ingliz milliy taom nominantlarining qiyosiy stilistikasi va tarjima muammolari" maqolasida [9] lag'mon qozoq oshxonasidan kirib kelgan taom deb ta'kidlanadi. Bu o'rinda lag'mon leksemasining "O'zbek tilining izohli lug'ati"da berilgan ta'rifiga to'xtalishni joiz topdik:

LAG'MON [xit. "cho'ziq xamir"] Xamirni cho'zib yoki uzun ingichka kesib tayyorlanadigan, yuziga qayla solib yeyiladigan ovqat. Kumush opam ham shu yerda edilar.. Lag'monni uncha xushlamas ekanlar, shekilli, yaxshi yemadilar. A. Qodiriy, O'tgan kunlar. G'ulomjon oshxonaga kirib, cho'zma lag'mon yedi. M.Ismoil, Farg'ona tong otguncha [12].

Izohdan ma'lum bo'ladiki, lag'mon so'zi xitoy tilidan o'zlashgan so'z, demak tadqiqot jarayonida izohli lug'atlarga tayangan holda fikr bildirish yuqoridagi kabi muzokarali holatlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

G.Odilovning ilmiy izlanishlarida o'zbek va ingliz tillaridagi glyuttonimlar yasaliish usuliga ko'ra sodda va qo'shma turlarga bo'lib o'rganiladi. Olima o'zbekcha va inglizcha taom nomlarini hosil qilishda bitishuv va suffiks qo'shish usullari asosiy o'rin tutishini ta'kidlaydi. U tadqiqotlarida taomshunos olim M.Karimovning ilmiy qarashlariga tayangan holda o'zbek va ingliz tilidagi glyuttonimlarni qanday mahsulotdan tayyorlanishiga ko'ra nomlangan taomlar, tasodifiy antiqa taomlar, ma'lum ijtimoiy qatlam nomi bilan atalgan taomlar, and bog'lovchisi bilan yasalgan taomlar, toponimik xususiyatiga ko'ra nomlangan taomlar, qaysi oshxona anjomida tayyorlanishiga ko'ra nomlangan taomlar, ma'lum narsa-predmetga o'xshashligiga ko'ra nomlangan taomlar va ikki mustaqil taom kombinatsiyasi yoki bir-birining tayyorlanish texnologiyasida pishirilishiga ko'ra nomlangan taomlar kabi semantik guruhlanib tahlil qilingan. Mazkur glyuttonimlarni tarjima qilishda G.Odilova transkripsiya va transliteratsiya, qisman transkripsiya, izohli transkripsiya, kalkalash, adaptatsiya, perefrasa, generalizatsiya, konkretizatsiya va tushirib qoldirish usullaridan foydalanishni taklif qiladi. Olimaning taom nomlari va ularning tarjimasiga doir taklif va mulohazalari gastronomik turizmni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, sohadagi taom nomlarini asosan transliteratsiya usulida berish orqali sayyohlar uchun taom haqida tushuncha hosil qilishda hech qanday samara bermaydigan usullardan voz kechish orqali gastronomik turizm sohasiga yangicha yondashuvlar orqali sayyohlar oqimining oshishiga xizmat qiladi [9].

Oziq-ovqat nomlari bilan bog'liq leksik birliklar, frazeologizmlar xorij va o'zbek olimlarining ilmiy tadqiqotlarida turli jihatlardan o'rganilgan bo'lib, o'zbek olimlari taom va oziq-ovqat nomlarining tarixiy ildizlari, etimologiyasi, stilistikasi hamda uning tarjimasi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilgan bo'lsa, xorij olimlari esa lingvomadaniy, lingvokognitiv jihatlarini tadqiq qilgan. Shu nuqtai nazardan glyuttonomlar o'zida lingvistik va madaniy implitsit axborotlarni hamda tilning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan boshqa til va xalqlar haqidagi xabarni ham namoyon qiladi. Chunki tilda boshqa tildan o'zlashgan taom nomlari xalqning qaysi davlat va millatlar bilan savdo va madaniy aloqalar olib borganligini ko'rsatib beradi.

ADABIYOTLAR

1. Komilova M. O'zbek tiliga xitoy tilidan o'zlashgan oziq-ovqat nomlari tahlili //Turfa madaniyatlar, millat, tillarni qiyosiy-tipologik tadqiqotlar orqali anglash 15-xalqaro ilmiy anjuman. —B.54-56.

2. Nasimova F. O'zbek mumtoz adabiy asarlarida uchraydigan taom nomlarining leksik-semantik xususiyatlari. Xorijiy lingvistika va lingvodidaktika. Issue -1.№5 (2023) / ISSN 2181-3701. –B. 25-32.
3. Ro'ziyev Q. Alisher Navoiy Asarlarida oziq-ovqat nomlari va ularning berilishi. Tech-Fest. –2022. International multidisciplinary Conference. England. –4-6.
4. Yusupova M. Oziq-ovqat mahsulotlari nomlari bilan bog'liq urducha va o'zbekcha paremiyalarning leksik-semantik tahlili. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. №5. –B. 34-40.
5. Абдушукуров Б. “Қисаси Рабғузӣ” лексикаси. – Тошкент: Академия, 2008.
6. Бафоев Б. Навоий асарлари лексикаси. - Тошкент: Фан, 1983. –Б.154.
7. Гашимов Э. Англоязычный лингвокультурный алиментарный код: Лингвосемиотика фразеологизмов как единиц образной семантики. Языкознание. ISSN 1997-2911. № 2 (60) 2017. –С.110-113.
8. Икрамова Н. Узбекская кулинарная лексика: Дис. ... канд.филол.наук. –Ташкент, 1983. –С.2.
9. Одилова Г. Ўзбек-инглиз миллий таом номинантлари киёсий стилистикаси ва таржима муаммолари // Филология масалалари, 2019. – Vol. 29 No. 2. – Б. 69-79.
10. Синдоров Л.К. “Хибатул ҳақойиқ” лексикаси: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. автореф. – Жиззах: 2021.
11. Тоғаев Т. Алишер Навоий асарлари тилидаги таом номлари // Ўзбекистонда хорижий тиллар, 2019. – №5. – Б. 26.
12. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 5 жилдли. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – Б. 493.
13. Холмурадова М.Ф. “Қутадғу билиғ” лексикаси: филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. автореф. – Тошкент: 2019.
14. Худаярова М. Ўзбек тилдаги таом номларининг лингвистик таҳлили (Қорақалпоғистон ҳудуди материаллари асосида) филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD). ... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. –Б.11.
15. https://uza.uz/oz/posts/ozbek-tilida-oziq-ovqat-ozlashmalarining-genetik-manbalari-haqida_620288



UDK:81'373.7:811.133.1

Laylo DOLIYEVA,
SamDCHTI katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: ldoliyeva@mail.ru

SamDCHTI professori N.Suvonova taqrizi asosida

YIG'I VA KULGINING NOVERBAL FRAZELOGIYADAGI OPPOZITSIYASI (FRANSUZ TILI MATERIALIDA)

Аннотация

Ushbu maqolada qayg'u va quvonch zidligiga asoslangan yig'i va kulgi emotsional oppozitsiyasi o'z graduonimik darajasiga ko'ra holati tahlil qilingan. Shuningdek, fransuzcha emotiv frazeologik birliklar misolida kulgi ekstralingvistik holatning eng yuqori, o'rta va boshlang'ich bosqichlarini o'rganilgan. Ya'ni, eng yuqori darajada o'ta samimiy kulgi holati, o'rta darajada jilmayish holati va boshlang'ich darajada esa kulimsirash holati o'zaro farqlanadi. Biroq, yig'i ekstralingvistik holatining faqat eng yuqori va boshlang'ich bosqichlari ko'zga tashlanishi tushuntirilgan.

Kalit so'zlar: Noverbal frazeologik birliklar, emotsiya, oppozitsiya, graduonimik daraja.

ОППОЗИЦИИ ПЛАЧА И СМЕХА В НЕВЕРБАЛЬНОЙ ФРАЗЕОЛОГИИ (на французском материале)

Аннотация

В данной статье анализируется условие эмоциональной оппозиции плача и смеха, основанное на оппозиции печали и радости, по ее градуонимическому уровню. Также на примере французских emotивных фразеологизмов изучены высшая, средняя и начальная стадии экстралингвистического состояния смеха. В частности взаимно дифференцируются состояние наиболее искреннего смеха на высшем уровне, состояние улыбки на среднем уровне и состояние полуулыбки на начальном уровне. Однако поясняется, что примечательными являются лишь высшие и начальные стадии экстралингвистического состояния плача.

Ключевые слова: Невербальные фразеологизмы, эмоция, противопоставление, градуонимический уровень.

OPPOSITION OF CRYING AND LAUGHTER IN NONVERBAL PHRASEOLOGY (BASED ON THE FRENCH LANGUAGE MATERIAL)

Annotation

In this article, the situation of the emotional opposition of crying and laughing based on the opposition of sadness and joy are analyzed according to their graduonymic level. Besides, in the example of French emotive phraseological units, the highest, medium and initial stages of the extralinguistic state of laughter were studied. It means that, at the highest level, the state of extremely sincere laughter, the state of smiling at the middle level, and the state of smiling at the initial level are mutually differentiated. However, it is explained that only the highest and initial stages of the extralinguistic state of the cry are noticeable.

Key words: Non-verbal phraseological units, emotion, opposition, graduonymic level.

Kirish. Noverbal muloqot insonlar o'rtasidagi eng qadimiy muloqot shakllaridan biri bo'lib, u til shakllanmasdan oldin paydo bo'lgan. Muloqot davomida noverbal muloqot o'zining dastlabki vazifalariga ko'ra ancha barqaror va samaradorligi bilan ajralib turadi. Binobarin, bunday muloqot to'g'ridan-to'g'ri qabul qilinadi va qabul qiluvchiga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Shuningdek, kishilar o'rtasidagi turli munosabat va his-tuyg'ularning eng nozik ottenkalari, ya'ni so'z bilan ifodalashga noqulay holatlar ham aynan shu noverbal muloqot vositalari orqali yetkazilishi har tomonlama ancha samarali sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlil. Noverbal muloqot masalalari tadqiqi 1886-yilda P.Montegatssaning yuz ifodalari alifbosini tasvirovchi «Физиогномия и выражение чувств» ("Fiziognomiya va hissiyotlar ifodasi") [1] nomli klassik asarlari orqali asos solingan. Biroq, tana a'zolari tilini ma'lum bir maqsadli tarzda o'rganish XX-asrning 60-yillarida boshlangan [2] va noverbal muloqot asoslari Avstraliyalik olim Allan Piz tomonidan asos solingan dunyodagi eng yirik markaz "Piz Trayning Corporation" markazida keng qamrovli tarzda tadqiq etilgan [3]. Hozirgi kunga kelib noverbal muloqotning vizual turlaridan tortib, to prosodik turlariga qadar, hatto kiyim-kechak, soch turmagi, atrofimizdagi narsalar, biz uchun odatiy bo'lgan harakatlarning barchasi "noverbal muloqot" shakllari hisoblanib, hanuz tilshunos, psixolog, madaniyatshunos, faylasuf, sotsiolog va boshqa ko'plab tadqiqotchilarning qiziqishlariga sabab bo'lmoqda. Chunonchi, professor Sh. Safarov ta'kidlaganidek, biz birovga salom berar ekanmiz odob nuqtayi nazaridan qo'lni ko'ksimizga qo'yib, boshni sal egib, ta'zimga yaqin harakat qilib

salomlashamiz. Bu - o'zbek urf-odati. Shunda bu nolisoniy, mohiyatan etnik-etnografik tamoyillar bilan birga, albatta, «Assalomu-alaykum!» lisoniy iborasi ham ishlatilishi zarur. [4] Shunday ekan, noverbal va verbal muloqot o'zaro bir-birini to'ldirib kelishi va muloqotni yanada tushunarli, hamda ifodali tarzda qabul qilinishiga yordam beradi. Noverbal muloqot vositalaridan biri bo'lgan ekstralingvistik vositalar inson his tuyg'ularini ifoda etishda asosiy o'rin tutishi ko'zga tashlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ekstralingvistika - bu nutqdagi pauza (sukunat), shuningdek, yig'i, yo'tal, xo'rsinish, kulish, nafas olish kabilarni o'z ichiga oladi [5]. Noverbal muloqotning bunday ekstralingvisik vositalari o'ziga xos emotsional holatlarni ifodalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, sukunat xotirjamlikni, turli xil nafas olish hollari hayajon va qo'rquvni, xo'rsinish tushkunlik va g'amginlikni, kulish esa xursandchilikni aks ettiradi. Muloqot jarayonidagi aynan kulgi va yig'i oppozitsiyasi ichki his-tuyg'ularni amaliy jihatdan kuchli tarzda ifodalovchi ekstralingvistik vositalar hisoblanadi. Fransuz tilidagi emotive frazeologik birliklar (keyinchalik EFBlar) orasida ham ushbu vaziyatga aynan mos keladigan frazeologizmlarni ko'plab uchratish mumkin. Ular asosan pleurer (yig'lamoq) va rire (kulmoq) komponentlari orqali hosil bo'lgan EFBlarda ko'zga tashlanadi. Ularga yordamchi leksemalar sifatida ko'z yoshlari ma'nosidagi les larmes va les pleurs hamda kulgi, tabassum ma'nosidagi le rire va le sourire leksemalari yig'i va kulgi ekstralingvistik holatlarini tasvirlashga xizmat qiladi. Masalan, quyidagi jadvalda ularga xos verbal va nominal EFBlarni keltirib o'tamiz:

Yig'i va kulgi ekstralingvistik vositalari orqali hosil bo'lgan verbal va nominal EFBlar

Fransuzcha Fblar	O'zbekcha talqini
Yig'i ekstralingvistik vositasi orqali hosil bo'lgan EFBlar:	
Verbal EFBlar :	
pleurer à chaudes larmes	-qon yig'lamoq;
pleurer à gros bouillons	-alam (ukinch) bilan yig'lamoq;
pleurer comme une fontaine	-ko'z yoshlari quyilib kelmoq;
pleurer comme une Madeleine	-tinmay ko'z yosh to'kmoq;
pleurer comme une vache/ un veau	-uvvos solib yig'lamoq;
pleurer misère	-nochorlikdan fig'oni falakka chiqmoq;
fondre en pleurs	-ko'z yoshlari quyilib kelmoq;
être tout en pleurs	-ho'ng-ho'ng yig'lamoq.
avoir envie de pleurer	-yig'lagisi kelmoq;
pleurer tout son soûl	-to'yib yig'lamoq;
se retenir pour ne pas pleurer	-yig'lab yubormaslik uchun o'zini tutib turmoq;
tantôt pleurer, tantôt rire	-bir yig'lamoq, bir kulmoq;
pleurer d'attendrissement	-ko'zdan yosh chiqqunday bo'lib ko'ngli bo'shab ketmoq;
verser des larmes	-ko'z yosh tukmoq;
être au bord des larmes	-yig'lamoqdan beri bo'lmoq;
avoir toujours la larme à l'oeil.	-ko'z yoshi tayyor turmoq.
Nominal EFBlar :	
des larmes d'attendrissement	-mehr ko'z yoshlari;
des yeux noyés de pleurs	-yig'idan yoshga to'lgan ko'zlar;
larmes de crocodile.	-soxta ko'z yoshlar.
Adverbal EFBlar :	
à faire pleurer	-odamni yig' isini keltirguday;
à pleurer	-yig'laguday.
Kulgi ekstralingvistik vositasi orqali hosil bo'lgan EFBlar:	
Verbal EFBlar :	
rire à gorge déployée	-xandon otib kulmoq;
rire à ventre débouffonné	-qorini ushlab kulmoq;
rire aux anges	-xursandligidan jo'shib kulmoq;
rire comme un bossu	-ovozining boricha kulmoq;
rire comme un cul	-ahmoqlarcha kulmoq;
rire comme une baleine	-og'izni katta ochib kulmoq;
rire de bon (de tout son) cœur	-miriqib kulmoq;
pouffer de rire	-xo-xolab kulib yubormoq;
éclater de rire	-xoxolab kulmoq;
être plié de rire	-kulaverib ichagi uzilmoq;
rire sans retenue	-to'xtovsiz kulmoq;
rire aux larmes	-ko'zdan yosh chiqquncha kulmoq;
sourire jusqu'aux oreilles	-og'zi qulog'ida bo'lmoq.
Nominal EFBlar :	
un rire moqueur	-masxaraomiz kulgi;
des rires nerveux	-asabiy kulgi;
un rire mauvais	-zaharxanda shodlik;
un sourire d'aise	-mamnunlikdan kulmoq;
un sourire amer	-achchiq kulgi;
un sourire méchant	-zaharxanda kulgi;
un sourire ment	-soxta kulgi;
un sourire angélique	-muloyim kulgi;
un sourire narquois	-istehzoli jilmayish;
un sourire niais	-ahmoqona iljayish;
un sourire pincé	-zo'rma-zo'raki kulgi;
un sourire de pitié	-takabburona iljayish;
un sourire supérieur	-takabburona jilmayish;
une velléité de sourire	-bilinar-bilinmas tabassum.

Tahlil va natijalar. Keltirilgan ushbu misollardan ko'rinib turibdiki, qayg'u va quvonch ziddigiga asoslangan yig'i va kulgi emotsional oppozitsiyasi o'z graduonimik darajasiga ko'ra uch xil holatda aks etadi. Fransuzcha EFBlar misolida kulgi ekstralingvistik holatning eng yuqori, o'rtacha va boshlang'ich bosqichlarini ajratish mumkin. Ya'ni, eng yuqori darajada o'ta samimiy kulgi holati, o'rta darajada jilmayish holati va boshlang'ich darajada esa kulimsirash holati o'zaro farqlanadi. Biroq, yig'i ekstralingvistik holatining faqat eng yuqori va boshlang'ich bosqichlari ko'zga tashlanadi, ya'ni eng yuqori darajadagi o'ta alamli yig'i va boshlang'ich darajadagi yig'lamsirash holati mavjud. Yig'ining o'rta darajasiga aynan mas keladigan fransuzcha EFBlar tahlil davomida uchramadi. Quyida ular bo'yicha keltirilgan misollarga e'tibor qilaylik:

o'ta samimiy kulgi : rire à gorge déployée - xandon otib kulmoq; être plié de rire - kulaverib ichagi uzilmoq; rire de bon cœur - miriqib kulmoq;


jilmayish : un sourire angélique -muloyim kulgi; un rire moqueur - masxaraomiz kulgi; un sourire ment - soxta kulgi;

kulimsirash: rire dans sa barbe - miyig'ida kulmoq; le sourire aux lèvres - nim tabassum; esquisser un sourire - kula boshlamoq; avec le sourire - tabassum bilan va hokazo;

o'ta alamli yig'i : pleurer à chaudes larmes - qon yig'lamoq; pleurer à gros bouillons - alam (ukinch) bilan yig'lamoq; être tout en pleurs - ho'ng-ho'ng yig'lamoq; pleurer comme une Madeleine - tinmay ko'z yosh to'kmoq;

yig'lamsirash: pleurer d'attendrissement - ko'zdan yosh chiqqunday bo'lib, ko'ngli bo'shab ketmoq; avoir envie de pleurer - yig'lagisi kelmoq; se retenir pour ne pas pleurer - yig'lab yubormaslik uchun o'zini tutib turmoq; à faire pleurer - odamni yig'isini keltirguday; à pleurer - yig'laguday.

Ushbu holatni ularning quyidagi qiyosiy tarzidagi oppozitsion manzarasi orqali yaqqolroq tasavvur qilish mumkin:



5-rasm. Yig'i va kulgining noverbal frazeologiyadagi oppozitsiyasi

Shuningdek, kulgi emotsiyasini ifodalovchi verbal EFBlar asosan xursandchilik emotsiyasidagi xandon otib kulish (rire à gorge déployée) holatini aks ettirsa, nominal EFBlar esa kishilar yuz emotsiyasining takabburli, istehzoli, masxarali va soxta kabi

turli xil salbiy holatlarini ifodalashga xizmat qiladi. Asosiy emotsiyalardan biri bo'lgan qayg'uni ifodalovchi yig'i ekstralingvistik vositasi orqali hosil bo'lgan verbal EFBlar asosan salbiy ma'noga ega bo'lgan uvvos solib yig'lash holatini, nominal

EFBlardan faqat birgina (des larmes d'attendrissement - mehr ko'z yoshlari;) EFB ijobiy emotiv ma'noni va soxtalik yoki ayyorlik holatini aks ettiradi (larmes de crocodile-soxta ko'z yoshlar).

Xulosa va takliflar. Noverbal emotiv FBlar turlicha his-tuyg'ularni aks ettirishi tabiiy jarayondir. Ular verbal muloqot bilan bevosita bog'liq holda qo'llaniladi. Lingvistik vositalar bilan

bir qatorda muloqotning og'zaki bo'lmagan tomonlarini to'g'ri bilish boshqa madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish imkonini beradi. Axborotni yetkazish qobiliyatiga ko'ra, noverbal muloqot vositalari verbal muloqot vositalaridan ustunlikka ega emas, ammo ular qo'shimcha ma'lumotni yetkazish uchun ajoyib vosita bo'lib, ko'pincha butun xabarni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Монтегасса П. Физиогномия и выражение чувств. –Москва: Профит Стайл, 2011. -204с. <https://iknigi.net/avtor-paolo-mantegacca/80841-fiziognomika-i-vyrazhenie-chuvstv-paolo-mantegacca.html>
2. Фаст Дж. Язык тела. Пер. с англ., М., 1998. <https://avidreaders.ru/download/yazyk-tela.html> pdf, Hall E. The Silent Language. - New York: Anchor Books, 1959. -212 p.
3. Аллан Пиз / <https://trenerbiz.ru/biznes-trenery/alan-piz>
4. Сафаров Ш., Тоирова Г., Нуткнинг этносоциопрагматик таҳлили асослари: Ўқув қўлланма. - Самарқанд, СамДЧТИ нашри, 2007. – Б. 5.
5. Poyatos F. Language and nonverbal systems in the structure of face-to-face interaction / Language & Communication. Volume 3, Issue 2, 1983, -P. 129-140 <https://www.sciencedirect.com/science/article>
6. Сувонова Н.Н., Долиева Л.Б. Французча ономотопик феъллар иштирокидаги ибораларда инсон руҳияти тасвири // Ўзбекистонда хорижий тиллар. - 2020. - № 2 (31). - Б. 65–79.
7. Ashurov Sh., Suvonova N. Linguistic, Psychological and Theological Interpretation of “White” Colour (in the example of the French and Uzbek languages) // Journal of Positive School Psychology 2022, Vol.6, No.4. 9550 – 9560.
8. Doliyeva L.B. Somatik frazeologizmlarga xos psixofiziologik faktorlar emotiv tasvir obyektlari sifatida (fransuz tili materialida) // “Til, ta’lim, tarjima xalqaro jurnali”. – Toshkent, 2022. – 3 son, 1 jild. – Б. 39-54
9. Dolieva L.B. Neutral Emotions in French Phraseological Units // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education, Volume 02, Issue- 05, 2024. –P. 130-132. (ISSN (E): 2993-2769, Impact Factor: SJIF: 7.759)



UDK: 891.709

Surayyo JURAYEVA,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti magistranti

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, S.Yuldosheva taqrizi asosida

ISAJON SULTONNING "UZUK" HIKOYASIDA AN'ANAVIYLIK

Annotatsiya

O'zbek adabiyoti tarixida asar sujeti tarkibida qistirma rivoyat, hikoyat, hadislar keltirish qator ijodkorlarning ijodida an'anaviy tus olganligini ko'rishimiz mumkin. Bu yozuvchining mahoratidan dalolat beradi. Maqolada Isajon Sulton hikoyalari g'oyaviy maqsadini ochib berishda va badiiyatini oshirishda qistirma rivoyatlarning ahamiyati to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Isajon Sulton, nasr, hikoya, "Uzuk" hikoyasi, obraz, peyzaj, ichki kechinma, badiiy asar, tasvir.

ТРАДИЦИОНАЛИЗМ В РАССКАЗЕ ИСАЙОНА СУЛТАНА «КОЛЬЦО»

Аннотация

В истории узбекской литературы мы видим, что включение в тематику произведения рассказов, повестей, хадисов стало традиционной чертой творчества ряда авторов. Это свидетельство мастерства писателя. В статье рассматривается значение анекдотов в раскрытии идейного смысла рассказов Исагона Султана и повышении их художественного качества.

Ключевые слова: Исагон Султан, проза, рассказ, повесть «Кольцо», образ, пейзаж, внутреннее переживание, произведение искусства, образ.

TRADITIONALISM IN ISAJON SULTAN'S STORY "THE RING"

Annotation

In the history of Uzbek literature, we can see that the inclusion of short stories, stories, and hadiths in the composition of the subject of the work has become a traditional feature in the work of a number of authors. This is evidence of the writer's skill. The article discusses the importance of short stories in revealing the ideological purpose of Isajon Sultan's stories and enhancing their artistic quality.

Key words: Isajon Sultan, prose, story, story "The Ring", image, landscape, inner experience, work of art, image.

Kirish. Rivojlanib borayotgan XXI asrda o'quvchining diqqatini torta oladigan, qiziqtiradigan asar yaratish chinakkam mehnatdan va iste'doddan dalolat beradi. Asli o'zbek adabiyoti o'zining tarixi va yetuk ijodkorlari bilan dunyoga ma'lum va mashhurdir. Abdulla Oripov ta'biri bilan aytganda, "Temur tig'i yetmagan joyni, qalam bilan oldi Alisher". Demak, adabiyotimizda bugungacha o'z so'zini ayta olgan ijodkorlarimiz bisyor. Shulardan hozirgi zamon o'zbek adabiyotida o'chmas asarlar yaratgan, yaratayotgan ijodkorlarimizdan biri Isajon Sultondir.

Isajon Sulton nafaqat hikoyachilikda, balki yirik epik janrlarda ham muvaffaqiyatli asarlari bilan adabiyot olamida o'z muxlislariga ega. Adib 1986-yildan buyon ijod qilib kelmoqda. Ilk qissasi "Munajat" bo'lsa, "Boqiy darbadar" 2010-yilning eng yaxshi romani deb topilgan. "Ozod" romani haqida ham adabiyotchilar tomonidan iliq fikrlar bildirilgan. "Qismat" deb nomlangan hikoyasida esa farzandning o'z otasiga qilgan zulmi uchun taqdiriga yozilgan qismati, ichki tuyg'ulari milliylik haqida fikr yuritilgan va ko'pchilik kitobxonlarning diqqatini jalb qilgan va e'tirof etilgan hikoyalardan biri bo'ldi. Serqirra ijodkorning "Suvdagi kosa", "Oydinbuloq" hikoyalari O'zbekiston milliy ensiklopediyasi "XX asr o'zbek hikoyasi antologiyasi"dan o'rin oldi. Adibning "TODD", "Do'st", "Og'riq tog'i", "Farishta" "Xazinabon", "O'rmondagi kulba", "Tilsim lashkari" kabi hikoyalari majoziy xarakterda yaratilganligi bilan ajralib turadi. Isajon Sulton nafaqat yozuvchi, balki tarjimada ham bir qancha yutuqlarga erishgan. J.Neruning "Hindiston" kitobining "Bobur" qismini, D.Buttsati, R.Akutagova, U.Sayfiddin kabilarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Ijodkorning ko'plab asarlari an'anaviylik, milliylik unsurlari bilan yo'g'rilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ma'lumki, o'zbek adabiyoti tarixida asar sujeti tarkibida qistirma rivoyat, hikoyat, hadislar keltirish qator ijodkorlarning ijodida an'anaviy tus olgan. Bu ijodkorning mahoratidan dalolat beradi. Jumladan, Alisher Navoiy o'zining "Xamsa" tarkibidagi dostonlardan biri – "Sabba'i sayyor"da turli iqlimdan kelgan mehmonlarning hikoyatlarini keltirib, doston mazmunini boyitadi [7]. Bu esa asar mazmuniga yangicha ruh bag'ishlaydi,

shuningdek, o'zi bajaradigan yukiga ham ega. Yoki Tohir Malikning "Shaytanat" asarini olaylik. Unda "Qur'on" dan, Ahmad Yassaviy "Hikmatlar"dan keltirilgan [9] bo'lsa, Erkin Vohidovning "Ruhlar isyon" dostonida abadiyat haqida rivoyatlar keltirilgan [6]. Bu esa ijodkor fikrini oydinlashtirish bilan birga voqealarni boyitgan, asarning yanada ta'sirchan chiqishiga xizmat qilgan. Yetuk ijodkorlarimizning tom ma'noda davomchisi o'laroq Isajon Sulton ijodida ham bu an'anani kuzatamiz.

Maqolamizda Isajon Sulton hikoyalari g'oyaviy maqsadini ochib berishda va badiiyatini oshirishda qistirma rivoyatlarning ahamiyati to'g'risida fikr yuritimiz, ilmiy-nazariy qarashlarga tayangan holda qiyosiy-chog'ishtirma metodidan foydalanib tahlil qilamiz.

Ma'lumki, dunyo xalqlarida, jumladan, turkiy xalqlar ijodida ham asar ichida kichik hikoya yoki rivoyatlardan foydalanish kuzatiladi. Bu asarga yangicha mazmun baxsh etadi. Isajon Sultonning "Uzuk" hikoyasida ham Sulaymon podshohning uzugi to'g'risidagi rivoyat keltirilganki, bu asarning an'anaviylik bilan yo'g'rilganligini ko'rsatadi. Adabiyotimizda dastlab uzuk bilan bog'liq ma'lumotlar Payg'ambarimiz Muhammad sallalohu alayhi vassallam bilan bog'liq rivoyatlarda uchraydi, ya'ni ma'lumotlarning ishonchli chiqishi uchun uzukdan muhr sifatida foydalanganligi aytilgan. Xalq og'zaki ijodida uzuk bilan bo'liq sujetlar bir qancha. Ko'pchilik ertaklarda uzuk g'ayrioddiy kuchga ega bo'lgan detal sifatida tasvirlanadi: "Sehrli uzuk" hind xalq ertagida yoki shu nomdagi rus xalq ertagida. Dostonlarda "uzuk" sovg'a sifatida keltiriladi. Masalan, "Kuntug'mush" dostonida Xolbeka bilan Kuntug'mush tush ko'radi. Tushida birlariga uzuk sovg'a beradilar [10]. Yoki "Ravshan" dostonida Misqol pari Ravshanni ovuntirish uchun uzukni sovg'a qilib beradi. Uzuk ko'zida Zulxumorni ko'rib oshiq bo'lib qoladi [11]. Umuman olganda, jahon adabiyotining ko'plab asarlarida "uzuk" detali qo'llangan sujetlar anchagina, ularning har birida o'zgacha ma'no anglatadi. Aksariyat hikoyava rivoyatlarda uzuk detali oilaning merosi, moddiy boyligi sifatida emas, balki avloddan avlodga o'tib, saqlanib keladigan oilaviy "rishta", qadriyat, rasm-rusm, odat vazifasini o'tagan. Bu bilan shu oilaning an'analari, millatning udumlarini ko'rsatadigan omil vazifasini o'tagan.

O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" qissasida Sepkilli xola xatto qo'shni kelinga o'z tilla baldog'ini sovg'a etishi aytiladi [5]. Demak, adabiyotimizda qadimdan taqinchoqlarni in'om sifatida hadya etish kuzatiladi. Ammo Isajon Sulton hikoyada uzukni hadya etish bilan an'anaviyligni ko'rsatgan bo'lsa, u orqali oilaparvar o'zbek xalqining boshidan o'tkazgan qiyinchilik kunlarini sodda til bilan ochib bergan. "Uzuk" asarning g'oyaviy mazmunini ochib berishda bir vosita vazifasini o'tagan. Hikoyaning muhimligi, dolzarbligi ham aynan shunda.

Yozuvchining "Uzuk" hikoyasi avtobiografik xarakterga ega bo'lib, o'zining bolaligidan hozirgi kungacha bo'lgan voqealar tasvirlangan. Hikoyani o'qir ekansiz, avvalo, yozuvchining bolalik yillari bilan tanishasiz. Onasi asrab-avaylab qahramonimizning ayoliga sovg'a etgan uzuk, oradan yillar o'tib o'zlari oila boshlig'i sifatida farzandlariga in'om etgan chog'ida qalbida shukronalik tuyg'usi jo'sh urganiga guvoh bo'lamiz. Ajdodlardan meros bu uzukning uchinchi avlodga hadya qilinishi orqali o'z ota-onasining zahmatli turmushi, qiyinchilik paytlarida birgalikda kechirgan kunlari ko'z oldida gavdalanadi. "Uzuk" hikoyasi qahramonning qiziga uzuk sovg'a qilishi bilan boshlanib, u haqida onasidan eshitganlari yodiga tushishi lavhasi beriladi. Hikoyada "uzuk" detali vositasida o'tgan davrlar gavdalaniriladi. Shu o'rinda hikoyadagi ona, bola dialogiga e'tibor qaratamiz:

– Men kelin bo'lib tushganimda o'n olti yashar edim. Enang o'zining uzugini menga bergan edi. Ammo taqmaganman, avaylab, yashirib qo'yganman.

– Otam-chi, uzuk sovg'a qilmaganmi?

– Otang ham sovg'a qilgan, ammo to'ydan ancha keyin, sen dunyoga kelganingda, dedi onam.

– Taqqaningizni sira ko'rmaganman-ku?

– Taqarmidim? Hammasini sandiqqa solib yashirib qo'yaverganman.

– Nimaga?

– Og'ir kunlarimizga ishlatamiz deganman-da [4]

Aslida sovg'a uchun berilgan taqinchoqning qo'llarni bezamasdan, "og'ir kunlarda ishlatamiz" degan ikki og'iz so'zning o'ziyoq hayotning qanchalik mashaqqatli ekanligini ko'rsatadi. Asarda bosh obraz bolalik chog'larini yodga olar ekan, ko'proq izg'irinli sovuq kunlar gavdalanadi. "Yumushlar ko'paygani mahal bolalar maktabga bormay qo'yishardi. Muallimlarimiz ham o'zimiz qatori, etik kiyibdalani aylanib yurishardi. El tirikchilik deya tinmay urinardi-da". Yozuvchining xotirasida gavdalangan bu shirin xotiralar, bolalikning qanchalik mashaqqatli ekanligini ko'rsatsa, butun elning farzandlari ham o'qish o'rniga dalada tirikchilik deb yurishi qisqa so'zlarda

muallif tilidan aynanchli holati ko'rsatilgan. Hikoya qahramoni bolalik yillarini yodga olar ekan, "Bizlar to'qqiz jo'jiq, uydo faqat otom ishlaydi, xolos. Yetishmovchilik boshimizda qilich kabi osilib turar, saharlab turib, kech kuzning sovuq bulduruqlari yiltiragan dalalarda turli yumushlarni bajarishgama'jbur edik. Yalang oyoqqa kalish kiyib olar, oyoqchalarimiz sovuq qotardi" [4]. Bu satrlarda onasi aytgan og'ir kunlar gavdalangan, desak noo'rin bo'lmaydi, deb o'ylayman. Shunda ham onasi bu uzukni asrab-avaylab keliniga in'om qildi. Qahramonimiz ulg'ayib oilali bo'ldi. Onasi keliniga rahmatli qaynonam sovg'a qilgan uzuk, endi siz taqib yuring deya sovg'a qiladi. Qahramonimiz sulolalar o'rtasida asrab kelinayotgan taqinchoqni bolalarim taqib yursin deya niyat qiladi. Bu lavha qadriyatimiz va urf-odatlarimizni ko'rsatib beradi. Sulaymon podshoh haqidagi rivoyatni yodga olib, undan avval ham uzuk hadya qilish odati bo'lganmikan, deya o'quvchini o'yg'a tildiradi. Asarda "uzuk" detali orqali voqealar birlashtiriladi. Qahramonimizning qiyinchilik kunlariga guvoh bo'lgan bu uzuk oradan shuncha yillar o'tib ayoliga, ayolidan endi keliniga hadya etish arafasida. Qahramonimizning shukronasi shundaki, endi uylar issiq, sovuqdan muzlagan qo'ldalalar, ko'kargan oyoqchalar yo'q. Endi uzuk bir mushkulingga yasar deb emas, ota-onadan yodgorlik deb asraydi. Sulaymon podshohning uzugi shamol-u qurt-qumursqalarni bo'ysundirar, yer osti-yu yer usti xazinalarini ochar deshishgan ekan. Onamdan bolaligimda eshitganman deb keltiriladi, uzuk xosiyati haqida, shunchalik qudratga ega bo'lgan ekan. Bugun avlodlarga uzukni sovg'a etish chog'ida: "Ulug'larimizdan yodgor, shuni avaylab yur, shoyad bir kuni shamollarni-yu tabiat hodisalarini, yer-u ko'klarni bo'ysindirsang ajabmas", deyishadi. "Endi ular sovuq nima bilmaydi" jumlasidan shu xulosaga kelish mumkinki, hayotning yaxshilanganligi, bolalar paxta dalasida emas, darsxonasida ekanligiga ishora qilinadi. Shunday ajoyib zamon va yoshlarda hamma imkoniyatlarning berilayotganligiga urg'u berilgan.

Hikoyada ijodkor so'zlardan shunday mohirlik bilan foydalanganki, ixcham shakldagi hikoyada kitobxon ko'z o'ngida voqealar silsilasi jonlanadi. Nasrda so'zlardan bunday tejamkorlik bilan foydalanib, katta global mazvuni yoritib berish iste'dodi rus adiblaridan A.P.Chexov, o'zbek adiblarimizdan A.Qahhor ijodida uchramiz. Zamonaviy adabiyotimizda Isajon Sultonning ijodida ham shunday mahorat ko'zga tashlanadi. Voqealarni bitta mavzu atrofida birlashtirishi esa taniqli adiblarimizdan O'tkir Hoshimovni eslatadi. Ijodkorning bugungi kunda shunday asarlarni yaratishi adabiyotimizning yutug'idir, deb aytganki, muholag'a bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR

1. Sulton. I., Roman va hikoyalar. – Toshkent: "Sharq". 2012-y.
2. Sulton. I., Nasri badiiyati. To'plam. – Toshkent: "Turon zamin ziyo". 2017-y.
3. Qur'onov D. Adabiyot nazaryasi asoslari. – Toshkent: "Noshir". 2020-y. 233-bet.
4. Isajon Sulton "Uzuk" hikoyasi. 2014-y 1-4 bet.
5. O'tkir Hoshimov. "Dunyoning ishlari" Toshkent. Yangi asr avlodi nashriyoti 2015-y.
6. Erkin Vohidov. "Ruhlar isyoni" Doston G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1980-y 11-18 bet.
7. Alisher Navoiy. Sab'ai sayyor dostoni Toshkent "Yangi asr avlodi" 2009-y, 9-bet.
8. Internet saytlari
9. <https://ziyouz.uz/o'zbek-nasri-isajon-sultonov-isajon-sulton>
10. www.ziyouz.com – 2007-y
11. www.arxiv.uz
12. kitobxon.com



Zahro ISLOMOVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti ingliz tili fani o'qituvchisi
E-mail: zahroislomova2484@gmail.com

QarDU professori, f.f.d. N.Yuldosheva taqrizi asosida

EXPRESSION OF AXIOLOGICAL UNITS THROUGH LINGUISTIC MEANS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Annotation

This article presents the results of a study on the expression of axiological units in Uzbek and English through linguistic means. The semantic, pragmatic, and linguocultural aspects of axiological units are analyzed, and their manifestation through lexical, phraseological, and grammatical means is examined. The article also focuses on the differences and similarities in the expression of axiological units in Uzbek and English languages.

Key words: Axiological units, linguistic means, lexical units, phraseological units, semantics, pragmatics, linguoculturology.

УЗБЕКСКИЙ И АНГЛИЙСКИЙ ЯЗЫКИ: ВЫРАЖЕНИЕ АКСИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ ЛИНГВИСТИЧЕСКИМИ СРЕДСТВАМИ

Аннотация

В данной статье представлены результаты исследования выражения аксиологических единиц в узбекском и английском языках посредством лингвистических средств. Анализируются семантические, прагматические и лингвокультурологические аспекты аксиологических единиц, исследуется их проявление через лексические, фразеологические и грамматические средства. Также рассматриваются различия и сходства в выражении аксиологических единиц в узбекском и английском языках.

Ключевые слова: Аксиологические единицы, лингвистические средства, лексические единицы, фразеологические единицы, семантика, прагматика, лингвокультурология.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AKSIOLOGIK BIRLIK LARING LINGVISTIK VOSITALAR BILAN IFODALANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillarida aksiologik birliklarning lingvistik vositalar orqali ifodalanishiga bag'ishlangan tadqiqot natijalari yoritilgan. Aksiologik birliklarning semantik, pragmatik va lingvokulturologik jihatlarini tahlil qilinib, ularning leksik, frazeologik hamda grammatik vositalar orqali qanday namoyon bo'lishi tadqiq etiladi. Shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida aksiologik birliklarning ifodalanishidagi farqlar va o'xshashliklarga e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: Aksiologik birliklar, lingvistik vositalar, leksik birliklar, frazeologik birliklar, semantika, pragmatika, lingvokulturologiya.

Kirish. Til har bir jamiyatning asosiy ijtimoiy-madaniy ifoda vositasi bo'lib, unda qadriyatlar va aksiologik birliklar muhim o'rin tutadi. Aksiologik birliklar til orqali ifodalanadigan ijtimoiy, axloqiy va madaniy tushunchalar majmuasi bo'lib, ular millatning dunyoqarashi, qadriyat tizimi va madaniy merosi bilan bog'liq. Ushbu tadqiqot turli tillarda aksiologik birliklarning lingvistik vositalar bilan qanday ifodalanishini tahlil qilishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingliz tilidagi dramalar tahlilida kuzatish mumkinki, odatda, ishlatiladigan har bir muloqot vositasi "shaxsiy makon" doirasiga muvofiq qo'llaniladi. Ingliz pragmatik M. Argaylning fikricha, "nutqiy vaziyatga muvofiq kelmaydigan noverbal vositalarning ishlatilishi adresantning shaxsiy makoniga bostirib kirishni anglatadi"[1]. Ya'ni tinglovchiga bu keskin ta'sir ko'rsatadi va u o'zini bundan olib qochishga yoki himoyalashga intiladi". Albatta, bu jarayonda javob reaksiyasi beriladi va to'la yakuniga yetmagan nutqiy vaziyatni yuzaga keltiradi. Shaxsiy makon deganda, shaxsning o'z atrofidagi makoni tushuniladi, hudud esa shaxsiy hayotni ta'minlay oladigan kattaroq hudud (masalan, ofis yoki konferensiya zalidagi maxsus stul) nazarda tutiladi. Demak, shaxsiy makon kommunikativlikning o'ziga bog'liq vositalar (harakatlar, mimika, jestlar), shaxsiy hudud esa nutqiy vaziyatda ishtirok etuvchi boshqa komponentlardir[7]. M. Argayl tomonidan "taktil aloqa" termini ishlatiladi va bu o'z navbatida, qo'l ishorasi, tana harakati, turtish orqali shaxsni kommunikatsiyaga chorlashni bildiradi. M. Argayl, buni "...shaxslarni kommunikativ aloqaga taklif qilish", deb baholaydi. Harrisning nuqtayi nazarini esa birmuncha farq qiladi. Uning fikricha, "...noverbal vositalar muloqotga chorlashni emas, tartibga solishni bildiradi. Odamlar qo'l ishoralari orqali boshqalarning xatti-harakatlarini tartibga soladi. U o'z fikrini dalillashda tashkilotlarda xodim, rahbar va hamkorlarning qo'l berishlarini ko'rsatadi. Birgina ushbu

harakatning o'ziyoq tasalli berish, qo'llab-quvvatlash va tabriklash, qo'l siqish kabi xatti-harakatlar munosabatlarga qarab, ko'pincha, tashkilotlarda shaxslar konfiguratsiyasini madaniy jihatdan tartibga soladi"[8].

Belgilar to'plamini uning asosiy xususiyati sifatida tavsiflashga asoslangan ta'rif turining aniq kamchiligi shundaki, u tildan noverbal aloqani sun'iy ravishda ajratib turadi. Ya'ni og'zaki bo'lmagan kodlar, ta'rifi ko'ra, kommunikativ bo'lishi mumkin bo'lgan tildan tashqari barcha kodlardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda aksiologik birliklarning ifodalanishiga oid ma'lumotlar tanlab olinib, ularning leksik, frazeologik va grammatik jihatlarini tahlil qilindi. Tadqiqot sifatli va qiyosiy-lingvistik yondashuvga asoslanib olib borildi. Leksik birliklar semantik va pragmatik jihatdan o'rganildi, frazeologik birliklarning qadriyat mazmunini ifodalashdagi roli tahlil qilindi, grammatik vositalarning aksiologik mazmun shakllantirishdagi o'rni o'rganildi. Lisoniy ifodalanish til vositalari orqali qadriyatlarni ifodalashni anglatadi. Bu yerda qadriyatlarning til orqali qanday tasvirlanganini ko'rish mumkin[11]. Lisoniy ifodalanish quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Leksik ifodalanish: Tilning leksik vositalari, ya'ni so'zlar va frazalarning qadriyatlarni ifodalashdagi roli. Masalan, "axloqli", "o'tkir", "yuqori", "past" kabi so'zlar ma'lum qadriyatlarni ifodalashi mumkin.

2. Semantik ifodalanish: So'zlar va iboralar orqali qadriyatlarning ma'nolari va semantik konteksti. Semantik tadqiqotlar qadriyatlarning so'zlarning ma'nosida qanday aks etishini o'rganadi.

3. Pragmatik ifodalanish: Tilning kontekst va vaziyatga qarab qadriyatlarni qanday ifodalashni o'rganadi. Masalan, qanday qilib e'tibor va hurmatni ko'rsatadigan so'zlar yoki frazalar tanlanishi.

4. Diskursiv ifodalanish: Nutq va muloqotdagi strategiyalar, uslublar va diskursiv shakllar orqali qadriyatlarining qanday aks etishini o'rganadi. Bu qadriyatlarni tasvirllovchi yoki ularga nisbatan munosabat bildirish usullarini o'z ichiga oladi.

Lisoniy ifodalanish — qadriyatlarni til vositalari yordamida ifodalashni anglatadi. Bu yerda til orqali qadriyatlarining qanday tasvirlanishi, ifodalanishi va qabul qilinishi haqida gap boradi[10].

Ingliz va o'zbek tillarida qadriyatlarining ifodalanishi tilning leksik, semantik, pragmatik va diskursiv jihatlarida farqlanadi. Har bir til o'ziga xos usullar orqali qadriyatlarni aks ettiradi va ularga o'z madaniy hamda ijtimoiy kontekstlarini singdiradi.

Leksik ifodalanish orqali qadriyatlar tilning so'z boyligi yordamida namoyon bo'ladi. Masalan, "axloqli", "yaxshi", "salbiy", "zo'r" kabi so'zlar turli qadriyatlarni aks ettiradi. So'zlarning rang-barangligi ham bu borada muhimdir. Ayrim so'zlar ijobiy qadriyatlarni, masalan, "o'ziga xos" yoki "quvnoq", ifodalasa, boshqalari, masalan, "yomon" yoki "sovuq", salbiy qadriyatlarni aks ettiradi. Bu so'zlar va iboralar qadriyatlarni turli nuqtai nazardan tasvirlash imkonini beradi[3].

Semantik ifodalanish qadriyatlarining so'z ma'nolari va ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. So'zlar o'z ma'nolarini kontekstga qarab o'zgartirishi yoki kengaytirishi mumkin. Masalan, "adolat" so'zi "haq" va "haqsizlik" tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, bu uning keng ma'noviy spektrini ko'rsatadi. Shuningdek, ba'zi qadriyatlarining ma'nosi madaniyatga bog'liq holda o'zgaradi. Masalan, «oila» so'zi ayrim madaniyatlarda eng muhim qadriyatlardan biri hisoblanadi[4].

Pragmatik ifodalanish esa qadriyatlarining nutqiy kontekstlarda qanday aks etishini o'rganadi. Bu yerda kontekstual tavsif muhim rol o'ynaydi. Misol uchun, "rahmat" so'zi minnatdorlikni ifodalaydi va u muloqot davomida hurmat va qadriyatlar ifodasiga aylanadi. Nutq strategiyalari, masalan, ta'rif, maqtov yoki tanqid orqali ham qadriyatlar aks ettiriladi. Shunday qilib, so'zlar va iboralar muloqotda qadriyatlarni turli xil yo'llar bilan ifodalaydi.

Diskursiv ifodalanishda qadriyatlar nutq uslublari va kommunikatsiya vositalari orqali namoyon bo'ladi. Bu usullar retorika, xushnudlik yoki tanqid orqali qadriyatlarni ta'kidlash imkonini beradi. Madaniy va ijtimoiy kontekstlarda qadriyatlar turlicha aks etib, bu muloqot shakllariga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ayrim jamiyatlarda kattalarga hurmat muloqotda aniq ko'zga tashlanadi va turli nutq usullari orqali yoritiladi.

Shunday qilib, qadriyatlar tilning barcha darajalarida — leksik, semantik, pragmatik va diskursiv jihatlar orqali ifodalanib, muloqot va kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylanadi.

Tahlil va natijalar. Ingliz va o'zbek tillarida qadriyatlarining ifodalanishi tilning leksik, semantik, pragmatik va diskursiv jihatlarida farqlanadi. Har bir til o'ziga xos usullar orqali qadriyatlarni aks ettiradi va ularga o'z madaniy hamda ijtimoiy kontekstlarini singdiradi.

Leksik jihatdan, ingliz tilida qadriyatlarni ifodalovchi so'zlar keng ko'lamga ega. Masalan, "honest" (halol), "generous" (saxovatli), "kind" (mehribon) kabi so'zlar ijobiy qadriyatlarni ifodalasa, "dishonest" (soxta) va "bad" (yomon) kabi so'zlar salbiy qadriyatlarni tasvirlaydi. O'zbek tilida esa qadriyatlarni ifodalovchi so'zlar madaniy va tarixiy kontekstlarga mos ravishda namoyon bo'ladi. Masalan, "halol", "mehribon", "mehmondo'st" kabi so'zlar qadrlanadigan fazilatlarini ifodalasa, "soxta" yoki "yomon" kabi so'zlar salbiy xulq-atvorni ko'rsatadi. Har ikki tilning leksik xususiyatlari qadriyatlarini tasvirlashda o'ziga xos bo'lib, ularning ma'nolari va ishlatilishi tilning ijtimoiy va madaniy kontekstiga bog'liq[6].

Semantik jihatdan, ingliz tilida qadriyatlarni ifodalovchi so'zlarning ma'nolari kontekstga qarab o'zgarishi mumkin. Masalan, "freedom" (ozodlik) so'zi ijtimoiy, siyosiy yoki shaxsiy kontekstlarda turlicha talqin qilinadi. O'zbek tilida ham shunga o'xshash jarayon kuzatiladi. "Ozodlik" so'zi tarixiy va madaniy sharoitlarga ko'ra turli xil ma'nolarni anglatishi mumkin. Semantik tahlil so'zlarning qadriyatlarini qanday aks ettirayotganini va ularning o'zaro bog'liqligini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Pragmatik jihatdan esa har ikkala til qadriyatlarini ifodalashda nutq kontekstini hisobga oladi. Ingliz tilida "please" (iltimos) va «thank you» (rahmat) kabi so'zlar hurmat va odobni ifodalovchi asosiy vositalar sifatida ishlatiladi. Bular ijtimoiy munosabatlarda muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tilida esa "iltimos" va "rahmat" so'zlari shunga o'xshash vazifani bajaradi. Shuningdek, rasmiy va norasmiy vaziyatlarda qanday so'zlar va iboralaridan foydalanish muloqotning samaradorligini belgilaydi[6].

Diskursiv jihatdan, qadriyatlar tilning uslublari va strategiyalari orqali ifodalanadi. Ingliz tilida nutqda xushmuomalalik, qabul qilish yoki tanqid kabi qadriyatlar turli diskurs usullari bilan aks ettiriladi. Masalan, biror mavzuni muhokama qilishda yoki mulohaza bildirishda nutq uslubi qadriyatlarni ifoda etishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida ham diskursiv strategiyalar qadriyatlarni ifodalashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Masalan, ehtiyotkorlik, hurmat ko'rsatish yoki tanqid qilish orqali qadriyatlar turli kontekstlarda namoyon bo'ladi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aksiologik birliklar turli tillarda turli lingvistik vositalar orqali ifodalanadi. Leksik birliklar orqali qadriyatlarni to'g'ridan-to'g'ri ifodalash mumkin bo'lsa, frazeologik birliklar ularning obrazli va ta'sirchan shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Grammatik vositalar esa aksiologik birliklarning nutqiy strukturalari va sintaktik muhitida o'z aksini topadi. Tadqiqot davomida aksiologik birliklarning umumiyliklari va farqlari tahlil qilindi[9]. Kelgusida mavzuni yanada chuqurroq o'rganish uchun boshqa tillardagi aksiologik birliklar bilan qiyosiy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. Бондарко А.В. Временная локализованность // Теория функциональной грамматики. – Л.: Наука, 1987. – С.210 – 233.
2. Кошмидер Э. Очерк науки о видах польского глагола: Опыт синтеза // Вопросы глагольного вида. – М.: Наука, 1962. – С.105 – 167.
Ключевые слова: Ассоциативная лингвистика, ассоциативное мышление, вербальное, невербальное, концепт, лексемы.

ASSOCIATIVE INTERPRETATION OF THE CONCEPT OF “DEATH” AND “LIFE”

Annotation

This scientific article covers the theoretical and practical results of scientists on the associative interpretation of the concepts of “death” and “life”. The methodology of the associative interpretation of the concepts of “death” and “life” is developed, substantiated using examples from the Uzbek and English languages. The deep connection with the speaker’s thoughts and beliefs is revealed through language lexemes.

Key words: Associative linguistics, associative thinking, verbal, nonverbal, concept, lexemes.

Kirish. Til serqirra mohiyatli murakkab tuzilishga ega lisoniy tuzilma. Inson tildan foydalanishda unga o’z ta’sirini o’tkazishi, uni “o’z izmiga solishga” o’rganishi tabiiy hodisadir. O’z o’rnida til ham insonning ijtimoiy hayotini o’zgartirishiga yordam beruvchi ijtimoiy kuchdir. Til va undan foydalanuvchi shaxs o’rtasidagi bunday munosabatlar tilda o’z ifodalanuvchi shaxs o’rtasidagi bunday munosabatlar tilda o’z ifodasini topmay qolmaydi. Tilshunoslik fani serqirra mohiyatli tilning lingvistik hususiyatlarini o’rganish bilan bir qatorda, til va uning egasi o’rtasidagi mana shu munosabatlarning tilde aks etishi masalasini ham tahlil qilindi.

Antroposentrik tilshunoslikning tilni unday foydalanuvchi shaxs omili bilan bog’liq holda o’rganuvchi mustaqil yo’nalishlaridan biri assosiativ tilshunoslikdir. Assosiativ tilshunoslikda til nafaqat o’zaro munosabatdagi birliklar yig’indisidan tashkil topgan tizim sifatida, balki bir-biri bilan assosiativ bog’langan verbal tarmoq sifatida ham tasavvur etiladi. Assosiativ tilshunoslikning obyekti assosiativ tafakkur birliklari bo’lmish – assosiatsiyalardir, uning ilmiy-nazariy asosini assosiativ munosabat nazariyasi tashkil etadi. Insonning psixologik bilimi bilan bog’liq holda til birliklari munosabatida kuzatiluvchi assosiativ munosabat mazkur tilshunoslik yo’nalishlarining markaziy tushunchalardan hisoblanadi. Bugungi kunda assosiativ tilshunoslik alohida fan yo’nalishi sifatida mustaqil rivojlanib bormoqda. Garchi assosiativ tilshunoslik mustaqil fan yo’nalishi sifatida tilshunoslikning barcha yo’nalishlariga to’la kirib bormagan bo’lsada, o’rganish ob’ekti, tadqiq metodiga ega ekanligi maqsad, vazifalarining aniq qo’yilganligi assosiativ leksikografiya, leksikologiya hamda grammatika kabi bo’limlarni qamrab olishi bu yo’nalishda hatto turli tillarga oid keng hajmli assosiativ lug’atlarning yaratilganligi uning mustaqil fan tarmog’i sifatida rivojlanib bormoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XX asrga kelib A.Nurmonov qayd etganlaridek, tilshunoslik ilmiy paradigamsiga “til shaxsi” kategoriyasining ilgari tilshunoslik nazariyadan chetda

qolgan, lekin tilshunoslikka yaqin bo’lgan boshqa fanlar orasida shaxs, ong, tafakkur, faoliyat, xulq, vaziyat singari tushunchalarning o’zlashtirilishiga olib keldi[1]. Manbaalarda qayd etilishicha “assosiatsiya” (lotincha association – qo’shish, birlashtirish) termini ilmiy muomilaga 1690 yilda ingliz filosofi, pedagog, empirizmi va liberalism vakili J.Lokk kiritgan. U qadimgi dunyo falsafasida buyuk mutafakkirlar Platon va Aristotel tomonidan ilgari surilgan g’oyalar assosiatsiyasi haqidagi qarashlarni targ’ib qilgan. Platon va Aristotel yodga tushirish jarayonini assosiatsiyaning mexanizmi sifatida tushunishgan. Aristotel g’oyalarning o’xshashlik, vaqt jihatidan ketma-ketlik va kontrastlik (qarama-qarshilik) asosida o’zaro assosiativ bog’lanishi, Platon esa o’xshashlik va yondoshlikka ko’ra hotiradagi bog’lanishlar haqida ma’lumotlar bergan.

Tadqiqot metodologiyasi. Olamning lisoniy manzarasi tegishli til jamoasi ongida tarixan shakllangan va uning tilda barqarorligini aniqlagan holda lisoniy ifodasida o’z ifodasini topadi. Hayot konsepti o’zbek tilida “hayot, tirikchilik, tiriklik, turmush, borlik, umr”, singari ingliz tilida: “life, livelihood, liveliness, life, existence, life” Ot leksemalari bilan ifodalansa, frazeologizm va paremiyalarda badiiy adabiyotda peshona hamda, qismat, taqdir obrazlarida ham ifodalanadi. “Peshonaga yozganidan ayrilma yor” kabi qo’shiqlar shular jumlasidandir. Hayot o’zi nima? Hayotda qanday yashash kerak? Kabi savollar insoniyatni qiyin kelayotgan qadimdan javobi to’la topilmagan savollardan hisoblanadi. Hayot mavzusiga uni tahlil qilishga va anglashga faylasuflar, shoirlar va olimlar ko’p urinishgan. Hayotga baho berilganda o’sha davrdagi muhit (iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy) e’tiborga olinadi. “Hush durur Bog’u koinot durur, Barchadin yaxshiroqdir Hayot guli”, ANavoiy. “Murodingni hayoting ichra ahtar, Ki mavhum ichra ilm gavhar”, Anbar Otin. “Hayot-harakat, harakatsizlik-o’limdir”, Levis Morris. “Tiriklik jismning idrok va aqlga bo’ysunishi demakdir”, Inb Sino. Demak Navoiyda hayot eng oliy sifat bo’lib tasvirlangan bo’lsa, Anbar Otin maqsad bilan yashash hayot qonuni ekanini ta’kidlaydi. Aynan harakat, tajriba va idrok G’arb va Sharq

falsafasida hayotni ta'minlovchi kuch sifatida baholangan va bu xalq og'zaki ijodi namunalari ham aks etgan.

Rozin hayot haqidagi madaniyatshunoslikdagi turlicha baholanadigan to'rtta vaziyatni ajratib ko'rsatadi:

Hayot – ijobiy qismat sifatida, ba'zan esa eng yuqori qadrlanadigan qadriyat sifatida qaralsa (hayot hamma narsa, o'lim esa uning aksi hech narsa).

Hayot salbiy uqubat sifatida, hayot – bu mashaqqat va zahmatdir.

Hayot inson uchun tushunib bo'lmay koinot singaridir.

Ikki tomonlama hayot darajasi (ikki dunyo mavjud bo'lgan madaniyatga hos xususiyat: xudolar va odamlar)[3].

Insonning “zarar, foyda, kasallik, zo'riqish, ko'tarilish, zaiflik, kuch, zo'riqish, sustlik, hayotni rad etilishi, hayotni tasdiqlash” kabi oppozitsiyalar orqali hayotning optimizm qahramonlik xususiyatiga, e'tibor qaratadi. Tadqiqotchi “pessimism”ni hayotga tahdid deb biladi. Uning fikricha mavjud bo'lgan hamma narsa – hayotdir[4].

Hayot tushunchalari tahlilida barcha aksiologik fikrlarni uchta blokka birlashtirish mumkin.

Hayot eng oliy qadriyat sifatida (hayotdan qimmatroq narsa yo'q).

Hayot – qurbonlik sifatida. Inson kimdir yoki nimadir uchun o'limga qodir bo'lgan holatlar mavjud. Bunday holatlar inson hayotidanda qadrliroq deb bilgan narsalar uchun deb baholanadi.

Hayot qadriyatlar tizimi sistema sifatida.

Frazeologiyadagi hayotning aksiologik ifodasi ko'plab ishlarda tahlil qilingan. Ushbu tadqiqotlar natijasida ushbu hulosalarga kelingan. Rus tili lisoniy manzarasida “inson - hayoti” munosabatlari o'ziga hos xususiyatlari mavjud: hayot - harakatchan, faol, mustaqil. Bu insonga ta'sir o'tkazib uni harakatga keltiradi, o'zgartiradi, unga yordam beradi. Hayot – sudya, hayot – ustoz, hayot – tajovuskor deb baholanadi. Inson asosan passiv hayotga bo'ysunadi. Doimo uni ayblashi va nolishi mumkin. Biroq zamonaviylik insondan ko'proq harakatchanlikni talab qilmoqda, va bu asosan publistik kontekstlarda o'z ifodasini topgan: hayot – sherik hatto hayot – qul sifatida gavdalanadi[5].

Lisoniy shaxs ongida kognitiv, iqtisodiy, estetik va etik bahoning shakllanib tilda ma'lum bir milliy obrazlar bilan aks etishi tilshunoslikda o'ziga hos alohida maydonni yuzaga keltiradi. Inson-hayot obrazlarini tilde va lisoniy ifodada yoritishda, insonning ruhiyati bilan bog'liq qadriyatlar ifodalangan tadqiqotlarni tadqiqqa tortdik: bu qadriyatlar motivatsion xususiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Hayotni ushbu semantik maydonlarga bo'lib o'rganish mumkin: o'zbek tilida: “Inson hayoti eng oliy qadriyat, Odam oltindan qimmat, Odamning qo'li gul, Inson gavhari qobil, Odam olamning oltin toji. Tiriklikning o'zi – baxt”, ingliz tilida: “Human life is the highest value, Man is more expensive than gold, Man's hand is a flower, Man is a gem, and Man is the golden crown of the world. Being alive is happiness”. Chunki inson har qanday ma'naviy boyliklarning ijodkoridir. Huddi shuning uchun insonning ongi va faoliyatiga bog'liq bo'lmagan, undan tashqarida turgan bironta qadriyat bo'lishi mumkin emas. Zero, Navoiy dunyoqarashi va negizida ham inson - buyuk deb baholanadi.

“Barchasini garchi latif aylading,

Barchadin insonni sharif aylading”.

Hayotda inson hamisha yaxshi niyat bilan yashashi lozim. Yaxshi niyat – yarim davlat, Umid o'lmay – risq kamimas, O'z o'rni ega bo'lishlik – tiriklik, O'lik bo'lib go'rda yo'q, Tirik bo'lib to'rda yo'q. O'lik bo'rini it tishlamas.

Maqsud Shayhzoda ham:

“Umrlar bo'ladiki, o'ligidan tirikdir,

Odamlar bo'ladiki, tirigidan o'likdir”.

Degan misralari ham yuqoridagi hayot falsafasi haqida aytilgan qarashlarning yaqqol namunasidir.

Hayot – harakatdan iborat. Tirik bandaga tinim yo'q. oz yesang ko'p yashaysan, mehnat qilsang ko'p oshaysan. Turmush – urinish. Tuxumni ko'rmaganga qarag'a ham, tuvuq.

Hayot uchun kurashmoq zarur. Daryoga ot solmastdan oldin, kechuvini top: jumadan umiding bo'lsa, payshanbadan harakat qil: Zamona kelmay qirindan, g'amingni ye burundan: olisdan otilgan qopqon, to'g'ri mo'ljalga yetar:

Hayot – kurash yoki hayot sharoiti, agar kurash tugasa, hayot ham tugaydi. Hayotda ma'no va maqsad bo'lmasa, qiyinlashib boraveradi. Hayotda omon qolish kuch qudratning o'sishi, intilishi – insoniyat uchun intuitiv va instinkt bo'lib, uning qiymatiga tahdid, hayotga mazmun beradigan narsa bu qayriyatlaridir. Til egalari olamning lisoniy manzarasida: Taqdir – oliy hakam. Ya'ni hayot – olloh tomonidan berilgan ne'mat. Inson qismat yetaklagan yo'l tomon harakatlanaveradi. Shu bilan birga inson eng oliy qadriyat sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari, harakatlari bilan taqdiri o'zgartiradigan kuch egasi sifatida shakllanadi. Shuningdek, maqsad va vazifalarni amalga oshirish uchun albatta tirik inson harakat qilishi joiz. Zero, “taqdirga tadbir hayron,” qismat maqollari singari lisoniy til birlilari fikrimiz isbotidir.

Tahlil va natijalar. Inson ongida bir-birini eslatuvchi psixik tasavvur, g'oyalar assotsiatiiv tilshunoslik hisoblanadi. Lingvistik (verbal yoki noverbal) assotsiatsiyalar – til egasining voqeilik haqidagi psixologik tasavvuri natijasida yuzaga keladi, ushbu hodisalar tilda bir-biri bilan tilda muayyan aloqada bo'lgan aniq lisoniy birliklar orqali voqealashadi. Ma'lumki, tildagi leksik va semantik birliklar tabiiy ravishda yondosh ma'nolar (yaqin, zid, o'xshash ma'nolar) orqali ochib beriladi. Masalan “hayot” leksemasini zid ma'nosini “o'lim” leksemasi orqali ifodalanadi.

Ingliz tilda “hayot” konsepti noverbal ifodalanishini quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin:

1. Lifes begin at forty – hayot qirq yoshdan boshlanadi deb yuritiluvchi ushbu ibora ingliz millatining yashash tarsi bilan bog'liq bo'lib, inglizlar o'zlarini aynan shu yoshda hayotga, turmush qurushga mukammal darajada tayyor deb hisoblaydilar. Ularning fikricha qirq yoshga to'lgan odamda maroqli hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ko'nikma tajriba va vositalar mavjud bo'lsa, hayot yaxshilanadi. “Today people in their fourtieth are now able to get married, have children and prosper as the saying goes life begins at fourth”[7].

2. In the next life – iborasi o'limdan keying hayot haqidagi diniy e'tiqodlarni ko'rsatadi va inglizlar o'limdan keyin boshqa hayotga ega bo'lishi mumkin deb hisoblashadi. “Each household may have left offerings for their ancestors goodwill or to sustain them in the next life”[8].

3. A daughter is a daughter all of her life – ushbu leksemda ingliz tilida qiz bolaning o'z ota-onasi, tug'ilib o'sgan oilasiga bo'lgan musosabati tasvirlangan. Ularning fikricha qiz fanzand turmushga chiqqandan so'ng ham keyin uning oilasiga nisbatan ilgariiday mehri, g'amxo'rliqi, saqlanib qoladi. O'g'illar esa turmush qurishgach odatda ko'proq o'z oilasiga sayanib qoladilar. “You will always be my little girl, a son is son until, he takes a wife, a daughter is a daughter all of her life”.

Vaqt-soati yetib olamdan o'tish xalqimiz tilida «bandalikni bajo keltirish» deyiladi. Bandalikni bo'yninga olgan inson yoshi ulg'ayib borar ekan, omonatini topshirish taraddudini ko'radi. “O'lim” kontseptining ilmiy taraflarini o'rganar ekanmiz, biz ushbu kontseptning gender xususiyatlariga ham alohida chuqurroq to'xtalib o'tishni lozim deb bildik. Chunki o'lim bilan bog'liq marosim va odatlarda ayol hamda erkaklarga xos farqli jihatlar mavjud. Har bir xalq madaniyatida gender xususiyatli odatlar mavjud bo'ladi, masalan, o'zbek madaniyatida idda saqlash ayollarga xos bo'lib, diniy an'analarga ko'ra ayollar eri o'lgan kundan boshlab to'rt oy va o'n kun ostona xatlab ko'chaga chiqmasliklari, erkaklarga boqmasliklari talab qilinadi.

Masalan “o'lim” konseptida noodiativ belgi-xususiyatlar mavjud bo'lib, uning tarkibiy qismini tashkil etuvchi ayrim belgi xususiyatlar nutqiy vaziyatlarda uchraydi. Masalan: dafn marosimi – “dead.....”, eng tinch, sokin payt – “...”, juda charchagan, toliqqan, kuchi yo'qolgan qonun – a dead law, ishlatib bo'lingan, endi foydalanilmaydigan narsa – a dead copy, oqmayotgan (ko'lmak) suv – dead water, uchib qolgan sigaret olovi – a dead fire ta'msiz – a dead wine, Azroil – death angel, belgilab qo'yilgan vaqt chegarasi – deadline, Aqsh qog'oz pullari – dead president(sl.). Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, “o'lim” konsepti turli odatiy va noodiativ belgi-xususiyatlariga ega bo'lib, konsept talablaridan hamda kommunikant (suxbatdoshlar) tanlovidan kelib chiqqan xolda, muloqot ishtirokchilarining lingvistik va xayotiy tajribasiga mos ravishda voqealashadi.

Xulosa. “O’lim” konseptiga to’xtaladigan bo’lsak, sir emaski, o’lim har doim insoniyatning asosiy tashvishlaridan biri hisoblangan. Dunyodagi aksariyat tillar singari, ingliz tilida ham o’lim boshqa tirik bo’lmaslik, mavjud bo’lmasli yoki yaqin odamidan juda bo’lish ma’nolarini anglatganligi sabab, bu holat qayg’uli, baxtsiz holat deb hisoblanadi. “As baleful as death” iborasi ham ingliz tilida ushbu tushunchaning noxush holat ekanligi va unga nisbatan umumiy qo’rquvni tushunishimiz mumkin. “I wouldn’t go out if I were you. That full moon is looking as baleful as death”. Shu sababli ham ingliz tilida bu so’zning o’rniga “o’lim” konseptini ifoda etuvchi ko’plab evfemistik so’z va iboralardan foydalanadi. Misol uchun: “to depart, to slip away, to lose one’s life, to pass away”. “His

grandmother passed away last year”. “To enter eternal rest, to be called back to God, to called home, to join to one’s ancestors” birikmalarida ham ingliz millatiga xos diniy qarashlar mujassamlashgan bo’lib, ularda xalqning o’limdan keying haqiqiy, abadiy hayotning mavjudligi haqidagi g’oya ifodalangan. Xulosa qilib aytganda, biz “kontsept” kognitiv tilshunoslikning asosiy masalasi sifatida ko’rib chiqar ekanmiz, uning so’zlovchining fikrlari va e’tiqodlari bilan chuqur bog’liqligini ko’rishimiz mumkin. Ingliz tilida “hayot” va “o’lim” konseptlarini to’laroq ifoda etishga xizmat qiluvchi frazeologik birliklar mavjud bo’lib, ular ushbu xalqning madaniyati, qarashlari, tarixi va urf-odatlar bilan chambarchas bog’liqdir.

ADABIYOTLAR

1. Nurmonov A.. Lingvistil ta’limotning yangi bosqichi. Tanlangan asarlar. III jild. – Toshkent: Akademnashr, 2012. – B. 92.
2. Философский энциклопедический словарь. 2010 // dic.academic.ru // dic. nsf/ enc. Philosophy/1978.
3. Розин.В.М. Философия и методологияю. Традиция и современность//Вопросы философы. 1996.11. С. - 24
4. Еврейский вопрос, как вопрос о расовом характере и о его вредоносном влиянии на существование народов, на нравы и культуру. / Перевод 5-го издания. — М., 1906. С. – 35-48
5. Иланова О.А. Концепт “жихнь” в русской языковой картине в мире; лингвокультурологический и лексикографический аспекты. Автореферат. (дис.кан.наук) Санк-Петербургб 2005. С 28.
6. Komilova G.R. Xayot buyuk qadriyat sifatida. NamDu Ilmiy habarnomasi 2021.2. B. -208
7. <https://idioms.thefreedictionary.com/life>.
8. <https://merriam.webster.com/dictionary.the.next.life>
9. Cohen & Harrison, 1972 University of Twente P.O.Box 217, 7500AE Enschede the Netherlands.



Po'lat KATTAYEV,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi

E-mail: kattayev@mail.ru

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

**MAHDUMI A'ZAM DAHBEDIY QALAMIGA MANSUB "MAJMUAT UR-RASOIL" ASARI QO'LYOZMA NUSXALARI
MATNIY TADQIQI (2352 RAQAMLI QO'LYOZMA NUSXA ASOSIDA)**

Annotation

XV asr oxiri XVI asrlarda O'rta Osiyoda bir qancha siyosiy o'zgarishlar bilan bir qatorda, o'ziga xos adabiy muhit vujudga keldi. Bunda mamlakat ijodkorlarini o'z atrofida jamlanishini ta'minlashga doimiy intilgan temuriy hukmdorlar, keying bosqichlarda esa Shayboniylar bevosita ijodkorlarning eng katta homiysi sifatida adabiyot tarixida iz qoldirgan. Ushbu sulolalarning sa'y harakatlari natijasida yangi ijod maktabi yaratilishi ko'plab asarlarning yaratilishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, tasavvuf yo'nalishida yozilgan didaktik asarlar hozirgi kunga qadar dolzarbligini yo'qotmagan. O'z ichida tasavvufiy didaktik ruhda yozilgan 29 risolani qamrab olgan "Majmuat ur-rasoil" asaridan o'rin olgan. E'tiborli jihati shundaki, "Majmuat ur-rasoil" tazkirasi yaratilguniga qadar O'rta Osiyo adabiy muhiti, undagi tasavvufiy qarashlar, xususida mukammal ma'lumotlarni o'zida saqlagan biror majmua yoki tazkira kuzatilmaydi. Shu nuqtai nazardan Jaloliddin Kosoniy Dahbediy hayoti va faoliyatiga doir ma'lumotlarga ushbu asardan o'rin ajratilgani, shoirning mazkur adabiy muhitda tutgan o'ziga xos o'rnidan darak beradi, deyish mumkin. Yuqoridagilarni e'tiborga olgan holda ushbu maqolada "Majmuat ur-rasoil" asarining tayanch qo'lyozma nusxalarining matniy tadqiqi xususida muxtasar ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy muhit, Jaloliddin Kosoniy, Majmuat ur-rasoil, risola, qo'lyozma, matniy tadqiq.

ТЕКСТОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ РУКОПИСНЫХ ЭКЗЕМПЛЯРОВ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «МАДЖМУАТ УР-РАСОИЛ», ПРИНАДЛЕЖАЩЕГО ПЕРУ МАХДУМИ А'ЗАМА ДАХБЕДИЙ (НА ОСНОВЕ РУКОПИСИ № 2352)

Аннотация

В конце XV и в XVI веках в Средней Азии, наряду с рядом политических изменений, возникла особая литературная среда. Темуридские правители, стремившиеся объединить творческих личностей страны вокруг себя, а также Шайбаниды, которые в последующие этапы выступали крупнейшими покровителями литераторов, оставили заметный след в истории литературы. Благодаря их усилиям появилась новая творческая школа, что привело к созданию множества произведений. Особенно важно отметить, что дидактические произведения, написанные в суфийском направлении, не утратили своей актуальности до наших дней. К ним относится и «Маджмуат ур-расоил», включающая 29 трактатов, написанных в суфийско-дидактическом духе. Примечательно, что до появления этой сводной книги не существует ни одного другого сборника или tazkiri, которые бы столь полно сохранили сведения о литературной среде Средней Азии и её суфийских взглядах. С этой точки зрения заслуживает внимания тот факт, что именно в «Маджмуат ур-расоил» отведено место для упоминания жизни и деятельности Джалолиддина Косония Дахбедия, что свидетельствует о его особом положении в данной литературной среде. Учитывая вышесказанное, в данной статье кратко изложены результаты текстологического исследования основных рукописных экземпляров «Маджмуат ур-расоил».

Ключевые слова: Литературная среда, Джалолиддин Косоний, «Маджмуат ур-расоил», рисола, рукопись, текстологическое исследование.

A TEXTUAL STUDY OF THE MANUSCRIPT COPIES OF "MAJMUAT UR-RASOIL," AUTHORED BY MAHDUMI A'ZAM DAHBEDIY (BASED ON MANUSCRIPT NO. 2352)

Annotation

In the late 15th and early 16th centuries, alongside a series of political changes, a distinct literary milieu emerged in Central Asia. The Timurid rulers, who consistently sought to bring the nation's creative individuals together, and later the Shaybanids, who served as major patrons of literary figures, left a notable mark on literary history. Their efforts led to the formation of a new creative school, which in turn resulted in the creation of numerous works. Particularly noteworthy are the didactic works in the Sufi tradition, which remain relevant to this day. One such work is "Majmuat ur-rasoil," encompassing 29 treatises written in a Sufi-didactic spirit. It is notable that, prior to the compilation of this corpus, no other collection or tazkira had preserved such comprehensive information about the literary milieu of Central Asia and its Sufi perspectives. From this standpoint, the inclusion of details regarding the life and activities of Jaloliddin Kosoniy Dahbediy in "Majmuat ur-rasoil" indicates his distinct position within that literary environment. Taking the above into account, this article provides a concise overview of the textual study conducted on the primary manuscript copies of "Majmuat ur-rasoil."

Key words: Literary milieu, Jaloliddin Kosoniy, Majmuat ur-rasoil, treatise, manuscript, textual study.

Kirish. O'zbek mumtoz adabiyotining tarixi va tadrījii takomilida XV-XVI asrlar alohida ahamiyat kasb etgani ayni haqiqat. Adabiy muhit bu davr adabiyotining eng muhim jihatlaridan biri sanaladi. Mazkur asrda adabiyotimiz tarixida uch adabiy muhit faoliyat ko'rsatgani haqida adabiyot tarixiga oid tadqiqotlarda ma'lumot berilgan. Ular Qo'qon, Xorazm va Buxoro adabiy muhitlaridir.

Adabiy muhit muayyan hududda yashab ijod etgan yirik shoir va adiblar ta'sirida yuzaga keladi. Uning vujudga kelishi yirik ijodkorlar faoliyati, ular yaratgan ijodiy maktablar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, XV asr Hirot adabiy muhiti

Lutfiy, Navoiy va Jomiy singari ijodkorlar faoliyati natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, O'rta Osiyo xonliklari davriga kelib Buxoro, Xiva hamda Qo'qon adabiy muhitlari paydo bo'ldi.

Asosiy qism. Tadqiqot olib borish davomida biz Mahdumi A'zam Dahbediyning "Majmuat ur-rasoil" to'plami qo'lyozmasi manbalarini tadqiq qilishni maqsad qilib belgilandi. Buni amalga oshirishda Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida mavjud "Majmuat ur-rasoil" asarlarini ikki qismga bo'lib tavsiflash ya'ni, 1-qismida faqat Mahdumi A'zam qalamiga mansub "Majmuat ur-rasoil"lar tavsifansa, ikkinchi qismida Mahdumi A'zam Dahbediy qalamiga mansub

bo'lmagan "Majmuat ur-rasoil"larning tekstologik tahlili hamda ularning mohiyatini o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Asosiy qo'lyozmalar fondida "Majmuat ur-rasoil" nomi bilan nomlanuvchi 23 ta qo'lyozma asar borligi aniqlandi, ularning ba'zilarida muallif nomi berilmagan, ba'zilar boshqa yozuvchilar tomonidan yozilgan. Tadqiqot davomida ushbu qo'lyozmalardan faqat Mahdumi A'zam qalamiga mansub "Majmuat ur-rasoil"lar ajratib olindi va keyingi bosqich ko'p nusxali qo'lyozmalarining ishonchli matnini tiklash tamoyili amalga oshirildi. Buning uchun dastavval mavjud manbalar xillandi ya'ni qo'lyozmalar va toshbosmalarga ajratildi, ikkinchi bosqichda xillangan manbalar sanalar bo'yicha ajratildi

2352-qo'lyozma manba tavsifi

Majmuat ur-rasoyil risolalar to'plamining ushbu nusxasi boshqa nusxalarga nisbatan risolalar to'liqligi, husnixati chiroyli, yaxshi saqlanganligi bilan ajralib turadi. Qo'lyozmada jami 31 risola jamlangan bo'lib hijriy 1317- yilda Mullo Izzatulloh mudarris ibn Sayyid xo'ja muftiy Muhammad xo'ja rais Sayyid tomonidan ko'chirilgan. Ushbu qo'lyozma 257 sahifadan iborat.

Asar quyidagicha boshlanadi:

فهرست رسهای حضرت مخدوم اعظم علیه الرحمه

Ya'ni, Hazrat Mahdumi A'zam risolalari fihristi

1-risola.ushbu nusxadagi ilk risola Asror un-nikoh bo'lib boshlanishi Allohga hamd bilan boshlanadi.

Tugashi:

خواننده و شنونده را ملامت نفر اید تم الحمد لله علی الاتمام نامیده شد این رساله را اسرار النکاه

2-risola. Risolai samoiya.

Risola an'anaviy hamd bilan boshlanadi.

Tugashi:

که قاسمی رتو دارد حیات جاویدان تم الحمد لله علی الاتمام

3-risola. Risolai vujudiya. An'anaviy hamd bilan boshlanadi. Tugashi:

شدا مست احمد جام

یارب لوجردت که مرا رحمت کن

کردم چو رساله وجودیه تمام

4-risola. Odob us-solikin. Boshlanishi an'anaviy ham bilan boshlanadi. Tugashi:

الرساله الشریفه المبارکه که المسمما باداب السالکین اللهم اجعل خاتمه امورنا حیرا ولا تلحق نما بز تبعه شرور ناضیرا یا اله العالمین

5-risola. Risolai odob us-siddiqin. Ushbu risola 7 sahifadan iborat

6-risola. Risolai ganjnoma. qo'lyozmaning 68-78-sahifalaridan o'rin olgan. Tugashi:

قطه غرض نقش است کر نایاد ماند

کی هستی را نمی بینم بقای

مکر صاحبدلی روزی برحمت

کند برحال درویشان دعای

7-risola. Risolai bukoiya qo'lyozmada joylashuvi 78-91-sahifalar. Tugashi:

شراب شوق می نوشم بکردیار میگردم

سخن مستانه میکویم دلی هشیار میگردم

8-risola, risolai Nasihat us-solikin. Qo'lyozmada joylashuvi 91-101-sahifalar. An'anaviy hamd bilan boshlanadi. Tugashi:

بیبت:

قرب نی بلانه پستی رفتن است

قرب حق از قید هستی رستن است

9-risola, risolai Savod oluja. Qo'lyozmada joylashuvi 101-106-sahifalar.

10-risolai tanbeh us-salotin. Qo'lyozmada joylashuvi 106-115-sahifalar. An'anaviy hamd bilan boshlanadi. Tugashi:

والماب نمت رساله تنبيه السلاطين بعون الله المالك المبين

11-risola, Risolai valad sir bobiya.

Ushbu risola ham an'anaviy hamd bilan boshlanadi.

Tugashi:

بیبت:

بی عنایت حق و خاصان حق

کر ملک باشد سپا هستش ورق

تمت رساله الولد سر لایه

12-risola. Risolai nafahot us solikin.

An'anaviy hamd bilan boshlanadi, tugashi:

بیبت:

بس کنم چون زیرکارا این است
بانک دو کردم اگر در ره کس است
تمت هذه الرسالة شریفه
المسمى نجات السالکین

13-risola. Risolai bayoni zikr. Boshlanishi an'anaviy hamd bilan boshlanadi. Tugashi:

بیبت بنده حلقه مکوس از نوازی برود

لطف که بکانه شود حلقه مکوس

تمت الرسالة الزکر

14-risola. Risolai sharh ul-abyot. Ushbu risola Ubaydullaxon qalamiga mansub ruboiylarga bag'ishlangan. An'anaviy hamd bilan boshlanadi. Tugashi:

تمت رساله شرح الرباعیات

این شرح که هر ورق ازومرات است

از بهر تماشای رحان ذاتست

در تسمیه اش این رباعی شد گفته

زا نروی که این شرح رباعیات

15-risola. Risolai bayoni silsila. Boshlanishi an'anaviy hamd bilan boshlanadi, tugashi:

غلام طوق سک اوشوم که بعد ادا

بیان سلسله خواجهکان نهاده نام رای هدارا است

16-risola. Risolai bayoni chahor kalima. 145-147-sahifalarda joylashgan.

17-risola. Risolai silsilat us-siddiqin. 147-155-sahifalar.

18-risola. Risolai bittihya. 155-161-sahifalar.

19-risola. Risolai mirot us-safo

An'anaviy hamd bilan boshlanadi, tugashi:

ای رفته بکوی عاشقی راه وفا

در عشق دل از یار نکیری بجفا

حراهی بصفانلت چو آینه شود

ز نهار منه ردست مرآت صفا

20-risola. Risolai ahvoli ulamo. Boshqalarni an'anaviy hamd bilan boshlanadi, tugashi:

تمت تمام شد رساله زینت السالکین که انرا تنبیه السلاطین نیز می گویند

21-risola. Risolai gul va navro'z. Boshlanishi an'anaviy hamd bilan boshlanadi, tugashi:

تمت تمام شد رساله گل و نوروز

22-risola. Risolai me'roj ul-oshiqin.

تمت رساله معراج العاشقین بد القیر الضعیف الی حضرت الله

تعالی المسمى محمد رضا غفر الله تعالی ولویه

23-risola. Murshid as-solikin. 205-208-sahifalarda joylashgan.

24-risola. Bayon ul-voqea, 208-212-sahifalarda joylashgan. Boshlanishi an'anaviy hamd bilan boshlanadi, tugashi:

در جوانی پشت حم نشد همچو بران زانکه کرد

این رسایل را کتابت آنچه بود از بیش و کم

25-risola. Risolai voqeatul xoqoniya. Risolai fathnoma. 212-217-sahifalarda joylashgan.

26-risola. Risolai Boburiya. 217-229-sahifalarda joylashgan.

27-risola. Risolai tanbeh ul-ulamo. 230-234-sahifalarda joylashgan.

28-risola. Risolai shaybiya. 234-238-sahifalarda joylashgan. Boshlanishi an'anaviy hamd, tugashi:

هرکه غیر این بیند شد خطا کند والله اعلم باصوات تمت الرسالة الشیبه

Ammo ushbu tartib raqamda Risolai faniya bo'lishi kerak edi. Fihrist bo'yichha berilmagan.

29-risola. Risolai fanoiya. Boshlanishi an'anaviy hamd bilan boshlanadi, tugashi:

والله الهادی الی سبل الرشاد تمت الرسالة الشریفه الفناعیه بیفضله و کرمه

30-risola. Risolai ilmiya. Boshlanishi an'anaviy hamd, tugashi:

ای تویر هرپاد شاهان پادشاه

کار سانی یفعل الله مایشا

31. takammil al-rasoil:

وماتاخر بحمد الله شاد این آخر رساله بتوفیق خدایی زولجلال هجری

۱۲۱۱

Xulosa. Dahbediy qalamiga mansub "Majmuat al-Rasoil" asarining qo'lyozma nusxalari O'rta Osiyo islomiy adabiyoti va tasavvuf tarixida muhim o'rin egallagan. Ushbu asar o'zida tasavvufiy ta'limot, axloqiy pand-nasihatlar va zamonaviy ilmiy-tahliliy fikrlarni mujassam etganligi bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida qo'lyozma nusxalari o'rtasidagi farqlar aniqlanib, matnlarning tahririy ishlovlari o'rganildi. Mazkur

qo'lyozmalarning matniy tadqiqi quyidagi muhim jihatlarni ochib berdi:

Matnlarning nashr tarixi: Qo'lyozmalar turli vaqt va joylarda ko'chirilganligi, ular orasida yozuv uslublari, til xususiyatlari va hatto mazmuniy farqlar mavjudligi aniqlandi.

Til va uslub o'ziga xosligi: Matnda arab, fors va o'zbek tillarining birgalikda qo'llanishi uning ilmiy va adabiy qimmatini yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Qo'lyozmalarning muhofaza holati: Qo'lyozmalarning saqlanish holati va ularning zamonaviy ilmiy tadqiqotlarga moslashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijasida "Majmuat al-Rasoil" qo'lyozmalarining ilmiy-nazariy tahlili amalga oshirilishi islomiy madaniy merosni o'rganish, uni keng jamoatchilikka taqdim etish va kelajak avlod uchun saqlash borasidagi sa'y-harakatlarga munosib hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayev V., O'zbek adabiyoti tarixi. Besh tomlik. 4-tom. –Toshkent: Fan, 1980. B-384.
2. Abu rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Asosiy fond, Inv 2352
3. Abu Rayhon beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, asosiy fond. Inv 10626



Zumriniso KOZIMOVA,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti katta o'qituvchisi

E-mail: kzumriniso6263@gmail.com

"O'zbek va jahon filologiyasi" kafedrası dotsenti, PhD D.Jumayeva taqrizi asosida

MUHAMMAD YUSUFNING ABDULLA QODIRIYGA EHTIROMI

Annotatsiya

Ushbu maqolada shoir Muhammad Yusuf ijodida o'zbekning ardoqli yozuvchisi Abdulla Qodiriy va uning "O'tkan kunlar" romani qahramonlari nomlari qalamga olingan she'rlari tahlil qilingan. Unda Muhammad Yusuf qalbini xalqimizning bir qator nomdor farzandlari qatorida Abdulla Qodiriyning ijodiy faoliyati, asarlari alohida cho'qqi misoli zabt etganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Bugungi kun yoshlariga qatag'on qurbonlarining vatanparvarlik faoliyatlarini tushuntirishda bu kabi she'rlar va maqolalar alohida ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, "O'tkan kunlar", Otabek, Kumush, Zaynab, Marg'ilon, qatag'on qurbonlari, Jodi, ruhiyat.

УВАЖЕНИЕ МУХАММЕДА ЮСУФА К АБДУЛЛЕ КАДИРИ

Аннотация

В данной статье поэт Мухаммад Юсуф анализирует стихи известного узбекского писателя Абдуллы Кодири и героев его романа «Прошлые дни». В нем мы можем стать свидетелями того, что сердце Мухаммеда Юсуфа, наряду с рядом известных сыновей нашего народа, запечатлело творческую деятельность и труды Абдуллы Кадири. Такие стихи и статьи имеют особое значение в объяснении современной молодежи патриотической деятельности жертв репрессий.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, «Прошлые дни», Отабек, Кумуш, Зайнаб, Маргилан, жертвы репрессий, жоди, психика.

MUHAMMAD YUSUF'S RESPECT FOR ABDULLAH KODIRI

Annotation

In this article, the poet Muhammad Yusuf analyzes the poems of the famous Uzbek writer Abdulla Kodiri and the heroes of his novel "Past Days". In it we can witness the fact that the heart of Muhammad Yusuf, along with a number of famous sons of our people, captured the creative activities and works of Abdulla Kodiri. Such poems and articles are of particular importance in explaining the patriotic activities of victims of repression to modern youth.

Key words: Abdullah Kodiri, "Past Days", Otabek, Kumush, Zainab, Margilan, victims of repression, jodi, psyche.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Xalq, haqiqat va nafosat o'lmaydi va bularni ardoqlagan, kuylagan ulug'lar ham mangudirlar. Ular hamisha avlodlar dili va tilida barhayot, shu minnatdor avlodlarning ezgu intilish va ishlarida madadkordir, deydilar. Sevimli shoirimiz Muhammad Yusuf ham hayoti davomida mana shunday ezgu maqsadni amalga oshirish baxtiga musharraf bo'ldi. Shoir hayotining mazmuni, betakror ijodiy faoliyatining asosiy ma'nosi – Vatanga muhabbat degan oliy qadriyatdan iborat bo'libgina qolmadi, hayot shodliklari, sevgi va sadoqat, ilm-ma'rifat, xalqimizni azal-azaldan ajoyib odatlaridan bo'lgan go'zallikni ardoqlash, onani sevish, unga hurmat ko'rsatish, tabiatdan bahra olish, eng asosiysi, inson shaxsiga bo'lgan mehr-muhabbat mavzulari haqida ham kuylash otashnafas ijodkor she'riyatida rangin jilolari bilan o'z ifodasini topdi. Shu bilan birga, Muhammad Yusuf o'z she'rlarida kitobxonlariga bir necha ming yillik tariximizning shonli farzandlari haqida hikoya qildi. Alpomishu Go'ro'g'lidek, To'marishu Shiroqdek, Jaloliddinu Amir Temurdek vatanparvar qahramonlarni, Ulug'beku Ibn Sino, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur singari ilm va ma'rifat egalari, Mashrabu Furqatdek mumtoz shoirlarni, Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir, Akmal Ikromov, Fayzullo Xo'jayev kabi qatag'on qurbonlarini, Nabi Rahimov, Shukur Burhon kabi san'at ahillarini, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov kabi o'ziga ustoz deb bilgan shoirlarni asosan vatan madhi, uning taqdiri, o'tmishi va buguniga bag'ishlangan she'rlarida chizgilarini yaratdi. Xususan, shoirning birgina Abdulla Qodiriy hamda uning "O'tkan kunlar" romani qahramonlari bo'lgan Otabek, Kumush, Zaynab nomlari keltirilgan yigirmaga yaqin she'rlari mavjud. "Vatanim", "Kundoshli uy", "Laganbardorlar", "Yurtim ado bo'lmas...", "Sodda Muhammadman", "Kinoga kirmayman", "Zaynab qo'shig'i", "Menga bering", "Bibi", "Otabek qo'shig'i", "Kumush", "Ona tilim" hamda "Qora quyosh" dostonidan joy olgan "Qodiriy bobom", "Qodiriy qilishar so'roq" kabi she'rlari shular jumlasidandir. Qodiriy nomi "Vatanim", "Laganbardorlar",

"Yurtim", "Ona tilim" kabi she'rlarida boshqa qatag'on qurbonlari qatorida birgina o'rinda tilga olinsa, "Qodiriy bobom", "Qodiriy qilishar so'roq" she'rlarida esa she'rning boshidan yakuniga qadar faqat Qodiriy timsoli gavdalanadi. "Laganbardorlar" hamda "Yurtim ado bo'lmas..." she'rlarida bir-biriga mazmunan yaqin satrlar ta'kidlanadi. "Laganbardorlar" da:

Otabek Kumushin ko'zlarin yopib,
O'zi ham ortidan qilgach safarlar.
Qodiriy bobomning qo'llarin o'pib,
Chohga itargan ham laganbardorlar. – [1]
deya aytilsa, "Yurtim" she'rida:
Alhazar, alhazar, ming bor alhazar,
Ana yurishibdi kiyganlari zar,
Qodiriy qilib shoir bo'lganlar –
Mehrobdan chiqqan chayonlarning bor... [2]

misralarini o'qiyamiz. Ko'rib turganimizdek, har ikkala she'rida ham ikkiyuzlamachi, laganbardor, o'z manfaati yo'lida hech qanday razilliklardan tap tortmaydigan kimsalar qoralanadi. Bunday insonlar faqatgina bir davr va bir muhitgagina xos emas, ular insoniyat tarixining turli davrlarida, turli sharoitlarida bo'lganlar, bo'lavradilar ham. Xuddi shu kabi Qodiriyga "O'tkan kunlar" romani cheksiz shuhrat keltirganligi barchamizga ma'lum. Bunday vaziyatda uning atrofida laganbardorlarning ko'payib qolishi, hasadgo'ylarning yozuvchi hamda uning asaridan ayb topishga zo'r berib urinishlarini ko'pgina mashhur ijodkorlar singari Qodiriy faoliyatida ham ro'y berganligi sir emas. Ikkinchi she'rida ham ikkiyuzlamachilar qoralanishi bilan birgalikda "Mehrobdan chayon" romaniga ishora hamda asar nomi va qahramonining yozuvchi taqdiriga bevosita bog'liqligini ko'ramiz. Anvarning hayotini zaxarga aylantirishga uringan "chayonlar", Qodiriy hayotiga ham og'u soldilar. Qodiriy boboning qo'llarini o'pib turib, chohga itarganlar ham aslida, Mehrobdan chiqqan chayonlar edilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Muhammad Yusufning ijodi bilan yaqinroq tanishar ekanmiz, uning Abdulla Qodiriy ijodiga cheksiz hurmatini, asarlarini qadrlashini, yozuvchining asarlari uning uchun ijod va ilhom maktabi bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Ayniqsa, "Kinoga kirmayman" she'rida bu holat yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. She'rda qizlar "O'tkan kunlar" filmini ko'rishga juda ishtiyoqmand bo'ladilar, ammo bilet qolmaganligidan ko'zyoshi qilib, uylariga qaytadilar. Shoirning esa kinoga kirishga ishtiyoqi yo'q. Uning ko'zidan uyqu qochgan, oromi yo'qolgan. Muqovasiz kitobga muk tushganicha, uni qayta-qayta o'qiydi. Bu muqovasiz kitob "O'tkan kunlar" edi. Uni yillar davomida o'qilganidan, qo'lma-qul bo'lganidan muqovasi ham qolmagan. Aslida, bu kitob kirmagan xonadon qolmagan, uni hamma o'qigan, ammo shoirdek o'qimagan, shoirdek o'qiy olmagani. Shoir bu asarni hammadan ayricha o'qiydi, hammadan ayricha yaxshi ko'rib qadrlaydi. U ko'zlarini yumganida Kumushning kulgichlarini ko'radi, Zaynabning iztiroblarini his qiladi:

Ko'zimni yumaman, kulgichlar yayrab,
Kumush bolasiga rumolcha to'qir.
Keyin ichkaridan – ming yil naridan
Zaynabning nigohi jonimni cho'qir [3].

Shoir oqshomni ham, tongni ham shunday xayollar bilan qarshilaydi. Unga asarning har satri yod bo'lib ketgan, asarning har satri uning uchun muqaddas. Shu darajada muqaddaski, asar qahramonlari – Otabek va Kumush o'z yaqinlaridek aziz, o'z yaqinlaridek qadrli. Ularning o'xshashini hech qayerdan topolmaydi. Hatto sahnada rol ijro etayotgan Otabek unga begona. U san'at uchun qarsak chaladi, Otabek siymosini yaratganligi uchun emas. Chunki sahnadagi Otabek boshqa, shoirning xayollaridagi Otabegi boshqa...

"Otabek qo'shig'i" she'rida shoir nazdidagi Otabek ruhiyati yanada kengroq namoyon bo'ladi. YA'ni bu she'r Otabek tilidan Zaynabga qarata aytiladi. "Kinoga kirmayman" she'rida lirik qahramon shoirning o'zi bo'lsa, bu she'rda Otabek lirik qahramon sifatida maydonga chiqadi. She'rning birinchi bandida shoir talmeh san'atidan foydalanib, o'zining Farhod, Zaynabning Shirin emasligini hamda tazod san'atidan foydalanib, o'zining novvot, Zaynabning achchig' emasligini, shuningdek, Zaynabning dilxun bo'lgani kabi, o'zining ham dilshod emasligini ifodalaydi. Ammo bular taqdiri azalning hukmi ekanligini ham tan oladi. Zaynabni yonida o'zi bilan birga uning ham bir qafas ichidagi ("giryon") bo'zlab yig'layotgan bir juft qushga o'xshatadi, ahvolining xomush va vayrona ekanligini aytadi. Ular bir dindayu ammo piri o'zga, ular bir joydayu ammo bir-biriga na do'st, na g'anim bo'la oladi, Zaynab jayron bo'lmaganidek, Otabek ham sayyod (ovchi) emas.

She'rning to'rtinchi bandida Otabekning sevgisiga sodiqligi, hayotining mazmuni faqat Kumush ekanligi ifodalanadi. Zaynabni suymaganni suyishda ayblaydi. Bunday yashash ko'ngilga xush emasligini aytadi. Uni quchsa, Kumushni sog'inishini, Kumushsiz joni omon bo'lsa-da, o'zining hayot emasligini yashirmaydi. Ammo Zaynabni ham kamsitmaydi, uni gulga qiyos etadi, sultonga yor bo'lishini tilaydi. O'zi esa Kumush diydoriga intizor bo'lib, Marg'ilondan ko'z uzolmaydi:

Ey gul, suyib ne topding men yomondan,
Bekman, senga yor tilayman sultondan,
Ko'z uzmasman men Marg'ilon tomondan,
Senga ket ham, senga qol ham demasman... [4]

Barchamizga ma'lumki, shoir "Otabek qo'shig'i" she'rini 1998 yilda yozadi. Bu she'ridan oldinroq, ya'ni 1994 yilda yozilgan "Zaynab qo'shig'i" she'rida esa Zaynab tilidan faqat she'rning uchinchi bandidagina Otabekka murojaat qilinadi. Qolgan bandlarida esa uning hissiyotlari monolog tarzida aks ettiriladi. Aslida, shoir "Zaynab qo'shig'i" she'rining uzviy davomi sifatida "Otabek qo'shig'i" she'rini yozgan bo'lsa, ajab emas. Bu ikkala she'r ketma-ketlikda o'qilsa, xalq qo'shiqlar yo'lidagi aytishuvni eslatadi. "Kumush" she'rini esa shoir Marg'ilonda Kumushni ko'zida yosh bilan Otabekni qidirib yurganligi lavhasi bilan boshlagan bo'lsa, "Bibi" she'rida shoir o'zining Marg'ilonga borib, har eshikdan Kumushni axtarganligini aytadi. She'rda lirik qahramonning qalbini o'rtayotgan iztiroblari, ruhiy yolg'izlik qiynoqlarining sababchilari sifatida "Laganbardorlar", "Yurtim ado bo'lmas..."

she'rilaridagi kabi ikkiyuzlamachi, hasadgo'y kimsalar ko'rsatiladi. Qodiriy ham shular gumdon qilganligi ta'kidlanadi. Bibining dushmani Zaynab bo'lsa, u bir rashk bandasi edi, ammo shoirning dushmani hasadgo'ylar edi. Ular dushmanlarning eng nomard xili, kundoshlarning eng sharmandasi. Shoir bunday kimsalarning orasida bo'lishdan ko'ra Zaynabning og'usidan ichishni afzal biladi.

Tahlil va natijalar. Qodiriy timsoli Muhammad Yusufning "Qora quyosh" dostonida boshqa qatag'on qurbonlaridan ko'ra ko'proq tilga olinadi. Dostonida keltirilgan "Qodiriy bobom" she'rining ma'no-mohiyati undan oldin keltirilgan nasriy parchadan to'raligicha anglashiladi. Qamoqxonada ming mashaqqatlar bilan qog'oz to'plab, asar yozgan, ammo turma boshlig'i qo'lyozmani gurrillab yonib turgan pechka ichiga otib yuborganidan keyin ruhiy iztiroblar iskanjasida boshini devorga uraverib, o'zini halok etgan adibning kim ekanligi kitobxonga havola etilganida, har bir kitobxon o'z ruhiy yaqinligidan kelib chiqib, Qodiriy, CHO'lpon, Fitrat yoki Usmon Nosir nomlarini xayolidan o'tkazadi. Muhammad Yusuf esa ushbu parchadan keyin "Qodiriy bobom" she'rini keltiradi. Endi yosh kitobxonda "bu – Qodiriy ekanda" degan o'y kechsa ham ajab emas:

Tushimga kiradi Qodiriy bobom,
Bemador, bemajol, behol, beorom.
Egniga eski bir to'n kiyib olgan,
(Shneldir balki u, kimdandir qolgan)... [5]

Ko'rinish turibdiki, Qodiriy bobo shoirning tushiga qamoqxonadagi eski shneli bilan kiradi. Uning yuzlari somon kabi sarg'aygan, ko'zlari to'la mung. Ammo shu holda ham u avlodlariga yaxshilik o'gitini beradi. O'zi sochgan ezgulik hosilini o'rib olishga undaydi.

She'rning II qismining ikkinchi bandi:
...Mana,
Qodiriy qilishar so'roq:
"O'tkan kunlar" degan she'r siznikimi?
Ha.

Ammo u she'r emas...

misralari bilan boshlanadi. Bu yerda shoir kitobxonni yaqin o'tmishning eng qora va chirkin kunlariga yetaklaydi. YA'ni she'rning birinchi qismida shnel kiyib olgan Qodiriy bobo lirik qahramonning tushlariga kirgan bo'lsa, II qismida esa uning tergov jarayoni holati jonlantiriladi. Nodon, manfur kimsalarning asl qiyofalari ochiladi, zamonaning zo'ravonligi gavdalanitiriladi. She'r yoki roman nimaligini bilmaydigan, ularning bir satrini ham o'qishdek baxt nasib qilmagan temir yuraklarning, temir qalblarning, temir hissiyotlarning hukmi bilan o'zbekning yana bir o'g'lonidan judo bo'lish holati hikoya qilinadi. Ularning aybi nimada ekanligini hech kim bilmaydi. Balki, eng katta aybi – iste'dodidir? Ularga qanday hukm o'qildi? Otildimi, osildimi? Balki, boshlari jodiga qo'yilgandir? Shoir she'rning to'rtinchi bandida "jodi nimaligini hozirgi yoshlar bilishmaydi, bilmaganlari ham ma'kul", deydi. Aslida, "jodi" – beda, pichan, xashak qirqiladigan dastakli asbob [6]. Jodi orasiga boshni qo'yib qirqish holatini tasvirlashga shoirning bardoshi yetmaydi. Shoir bilan birgalikda kitobxon ruhiyatida ham temir yuraklarga nisbatan nafrat paydo bo'ladi. Ko'ziga yosh to'ladi, qo'yniga tosh to'ladi, ko'ziga dunyo tor bo'ladi. "O'tgan kunin qursin, Abdullo bobom!", deya iztirob chekadi.

Dostonning boshqa o'rnida she'rning mantiqiy davomi sifatida keltirilgan bandida boshqa qatag'on qurbonlarining nomlari ham sanab o'tiladi:

Rutubatli Shimol o'rmonlarida
Qayinlar ho'ng'rab quyoshni uyg'otar.
Qarang CHO'lponingiz so'nggi makonida
Beqasam choponin yopinib yotar.
Yotar alpqqomatli bahodirlar qator,
Usmonlar,
Qodirlar,
Shokirlar yotar,
Yotar Abdullolar,
Yotar Ahmadlar,
Xudo rahmat qilgur, xudo rahmatlar... [7]

Xulosa va takliflar. Shoirning bu kabi she'rilarida xalqimizning qaysi bir e'zozli farzandi tilga olinmasin, ular Vatan

mavzusi bilan bog'lanadi. Ularga bo'lgan ehtiromi, muhabbati kindik qoni to'kilgan Vataniga bo'lgan muhabbatidan kam emasligi namoyon bo'ladi. Bu she'rlarni o'qiganingizda hazin kuy va ohang paydo bo'lgandek bo'ladi. Quloqqa chalingan bu dilkash kuy kishi ruhini qamrab oladi, samoviy kengliklar osha kelib, qalbingizga kirayotgandek tuyuladi. Inson ruhida hukm surgan beqarorlik tiniqlashadi, boshlar beixtiyor egiladi, zil-zambil tashvishlar yelkalarni bosa boshlaydi, o'z-o'zidan turli savollar jismu jonga singa boradi, sababi bu yerda muqaddas Vatan

kuylanmoqda, uning uchun jon fido qilgan farzandlari ardoqlanmoqda. Muhammad Yusuf qalbini bezovta qilgan, ruhiyatini notinch etgan holat kitobxon ruhiyatiga ham ko'chgandek bo'ladi. She'ning ruhi esa odatda shoirning ahvoli – ruhiyatiga bog'liq bo'ladi. Demak, Muhammad Yusuf ruhiyatini ulug' ajdodlarning insonparvarlik, pok e'tiqodlilik, mustahkam irodalilik, hayotsevarlik, ulug'vorlilik hislari cho'lg'ab, o'ziga ohangrabodek chorlab kelganligi, shubhasizdir.

ADABIYOTLAR

1. Yusuf M.. Ulug'imsan vatanim. Toshkent: "Ijod dunyosi", 2004, 88-b.
2. Yusuf M.. Saylanma. "Sharq", 2019, 113-b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat milliy nashriyoti. 2007, 125-b.



Yusuf KUSHAKOV,
Toshkent davlat transport universiteti dotsent v.b
E-mail: yusufkushakov1962@gmail.com

F.f.n, dotsent U.Yo 'ldoshev taqrizi asosida

SPECIFIC FEATURES OF AVIATION TERMS IN UZBEKISTAN AND ENGLISH

Annotation

The article discusses the specific features of aviation terms in Uzbek and English, as well as terms related to the aviation industry in Uzbek and English, and their structural features. Structural study of words and terms used in the aviation industry allows language speakers to increase their vocabulary and eliminate problems associated with the correct use of words in communication. To date, the semantic relationship of aviation terms has not been sufficiently clarified, and their linguistic properties have not been given due importance. This is a problem that awaits its solution, because we can see that the development of aviation in recent years has given rise to the emergence of new terms, in this regard, this article approaches this issue scientifically.

Key words: Aeronautics, term, aviation, structure, simple root word, compound word, terminology, conceptual meaning, lexical unit, linguistic analysis, extralinguistic factors, phrase, dictionary, method.

ОСОБЕННОСТИ АВИАЦИОННЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКИСТАНЕ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются специфические особенности авиационных терминов на узбекском и английском языках, а также терминов, связанных с авиационной отраслью на узбекском и английском языках, и их структурные особенности. Структурное изучение слов и терминов, используемых в авиационной отрасли, позволяет носителям языка увеличить свой словарный запас и устранить проблемы, связанные с правильным использованием слов в общении. На сегодняшний день семантическая связь авиационных терминов недостаточно выяснена, а их языковым свойствам не придано должного значения. Это проблема, которая ждет своего решения, поскольку мы видим, что развитие авиации в последние годы породило появление новых терминов, в связи с этим данная статья подходит к этому вопросу с научной точки зрения.

Ключевые слова: Аэронавтика, термин, авиация, структура, простое корневое слово, сложное слово, терминология, концептуальное значение, лексическая единица, лингвистический анализ, экстралингвистические факторы, фраза, словарь, метод.

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AVIASOZLIK TERMINLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

O'zbek va ingliz tillarida aviasozlik terminlarining o'ziga xos xususiyatlari hamda o'zbek va ingliz tillaridagi aviatsiya sohasiga doir terminlar va ularning strukturaviyxususiyatlari haqida so'z boradi. Aviatsiya sohasida qo'llaniladigan so'z va atamalarni strukturaviy jihatdan o'rganish til sohiblarining so'z boyligini oshirishga va so'zlarni muloqot jarayonida to'g'ri qo'llash bilan bog'liq muammolarini bartaraf etishga imkon beradi. Bugungi kungacha aviasozlik terminlarining o'zaro semantik aloqasi yoritilishi yetarli darajada bo'lmagan, ularning lingvistik xususiyatiga ahamiyat berilmagan. Bu esa o'z yechimini kutayotgan masala, sababi so'nggi yillardagi aviasozlikning rivojlanishi yangi terminlar paydo bo'lishiga turtki bo'layotkanini ko'rishimiz mumkin shu jihatdan ushbu maqolada bu masalaga ilmiy jihatdan yondashilgan.

Kalit so'zlar: Aviasozlik, termin, aviatsiya, struktura, sodda tub so'z, qo'shma so'z, terminologiya, konseptual ma'no, leksik birlik, lingvistik tahlil, ekstralingvistik omillar, ibora, motivatsion termin, lug'at, usul.

Kirish. Jahonda tilshunosligida xalqlar madaniyati kishilar o'rtasidagi munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiq qilinayotgan yo'nalish – lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda jadal rivojlanayotgan, tilda o'z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan soha sifatida talqin qilish mumkin. Ijtimoiy ongning shakllanish omillarini tahlil qilish turli madaniyatlarining o'zaro munosabatlari va o'zaro tushunish mexanizmlarini chog'ishtirma tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Bu esa, o'z navbatida, tilshunoslikda til va madaniyat munosabatlari tadqiq qilinishiga asoslangan yangi tadqiqotlarning paydo bo'lishiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda nafaqat O'zbekistonning, balki dunyo davlatlarining ham yuksak darajada rivojlanishiga ulkan hissa qo'shayotgan sohalaridan biri bu –aviatsiyadir. Bugungi kunda fan va texnika taraqqiyoti, ularning alohida tarmoqlarining rivojlanishi barcha sohalar singari tilshunoslikda ham o'z ifodasini topmoqda. So'nggi yillarda ilm-fanning barcha sohalarida erishilgan sezilarli yutuqlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar oqimining tobora ortib borishi sohalariga oid terminlar muammosi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar oldiga nazariy va amaliy jihatdan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bundan tashqari, boshqa sohalar kabi aviatsiya sanoatining ham rivojlanishi, aviatsiya texnologiyalari tizimlarining murakkablashuvi aviatsiya faoliyati sohasida terminlar tadqiqi

muammosiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Hech kimga sir emaski, aviatsiya texnologik jihatdan jadal rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo'lib, uning samaradorligi aviatsiya tarmog'i doirasida faoliyat yuritadigan xodimlarining kasbiy mahorati va malakasiga bog'liq. Shu sababli ushbu keng qamrovli soha bilan o'z kelajagini barpo etmoqchi bo'lganlar va ayni shu jabhada faoliyat olib boruvchilar chuqur bilim va kasbiy mahoratga ega bo'lish bilan bir qatorda soha doirasida qo'llaniluvchi til xususiyatlari vaunda qo'llaniluvchi so'zlardannutqiy jarayonda to'g'ri foydalanish, ularning tarkibiy jihatdan qanday tuzilganligiva shu kabilarniham batafsil o'rganmog'i ahamiyatlijihtatlardan biri hisoblanadi. Ushbu maqola ham aynan shu jihatlarni ochib berishga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi hududida aviatsiya terminologiyasi eng dolzarb, hali o'rganilmagan qirralari mavjud mavzu hisoblanadi, shu sababli bu maqolada ushbu mavzuni yanada chuqurroq yoritib berishga hamda o'zbek terminshunoslik yo'nalishida yana bir yangi qadam qo'yishga harakat qilish ko'zda tutilgan. Aviatsiya terminlarini tavsiflashda ularning kelib chiqishi, leksik va grammatik xususiyatlari, strukturaviy turlari, turli gap bo'laklariga mansub termin elementlarining termin yasashdagi o'rni va leksik-semantik xususiyatlarini (polisemiya, sinonimiya, antonimiya) o'rganish aviatsiya terminologiyasi tizimida ayniqsa dolzarbdir.

Chet tili (Ingliz tili) xalqaro muloqot tillardan biridir. Aviatsiya adabiyoti va texnik hujjatlarining katta qismi ingliz tilida nashr etiladi; dunyoning turli mamlakatlarida paydo bo'lgan aviatsiya sanoatidagi ko'plab texnologik yangiliklar, qoida tariqasida, dastlab inglizcha nomlarga ega. Bundan tashqari, eng ko'p motorli aviatsiyalar ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlar, xususan, Amerika Qo'shma Shtatlari ekanligini yodda tutish kerak. Ikkinchi g'oyat ulkan va eng rivojlangan davlatlardan hisoblangan Fransiya, Shvetsiya, Shveysariya, Belgiya asosan fransuz tilida gaplashuvchi mamlakatlar sirasiga kiradi va biz fransuz tilidagi aviatsiya terminlarini ham ko'rib chiqishga harakat qilamiz. Terminologiya takomillashuv jarayonida bir nechta rivojlanish bosqichlarini bosib o'tadi. Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida mashinasozlikning yetakchi tarmoqlaridan biri aviatsiyasozlik hisoblanadi. Ushbu soha terminologiyasi tobora ko'proq talab qilinmoqda va hozirgi sharoitda muhim ahamiyatga ega. Aviatsiya sanoati, aviatsiyaning texnik qurilmasi, shuningdek, uyda, shaxsiy foydalanishda va ishlab chiqarishda ishlatiladigan turli xil mashina va mexanizmlar bilan bog'liq terminlar hayotimizda doimiy ravishda uchraydi. Ushbu terminlarni bilish bugungi kunda nafaqat mutaxassislar, balki shaxsiy aviatsiyalari yoki qishloq xo'jaligi texnikasi bo'lgan oddiy odamlar uchun ham majburiy bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. O'zbek va ingliz tillarida aviasozlik terminlarining o'ziga xos xususiyatlari "aviasozlik terminlari" leksik-semantik sohasi alohida ajratilgan, uning shakllanish tarixi va tizim xususiyatlari tahlil qilingan va batafsil tillararo taqqoslash berilgan. Jahon tilshunosligida leksikografiya va terminologiya masalalari G'arb olimlari De Sossyur, Sh.Balli, A.Seshe, A.Me, J.Vandries kabilar tomonidan o'rganilgan. Rus tilshunoslari D.S. Lotte, R.G.Piotrovskiy, A.D.Xayutin, L.V. Pumpyanskiy, O.S.Axmanova, L.V.Sherbalar ham o'z asarlarida terminshunoslik haqida gapirib o'tishgan. B. N. Golovin va R.Yu. Kobrin kabi tadqiqotchilarning ta'rif berishicha, termin professional tushunchani ifodalash va shakllantirish, ilmiy va kasbiy-texnik obyektlar vaular o'rtasidagi munosabatlar hamda ko'nikmalarni o'rganish va o'zlashtirish jarayonida qo'llaniladigan, o'zining maxsus ma'nosiga ega bo'lgan so'z yoki tobe so'z birikmasidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil kabi ilmiy pedagogik tamoyillardan foydalanildi. Hozirgi vaqtda xorijiy ishlab chiqaruvchilarning aviatsiyalari va qishloq xo'jaligi texnikalari eng mashhurdir. Ingliz tilida yozilgan texnik hujjatlar, aviatsiya va boshqa mexanik va elektr texnika vositalarini ta'mirlash, texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha turli tavsiyalar oqimi ham ortib borayotgani ajablanarli emas. Afsuski, hozirgi vaqtda ingliz va fransuz tillaridagi texnik terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish xususiyatlari yetarlicha o'rganilmagan. Bunday terminlarning maxsus lug'atlari va umumiy oddiy lug'atlari yetarli emas, avtomashinalar va qishloq xo'jaligi texnikasiga texnik xizmat ko'rsatishga oid tarjima qilingan texnik hujjatlarda juda jiddiy muammolar mavjudligi va ularni bartaraf etish katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi davrda aviatsiya keng tarmoqlarga soha bo'lganligi sababli unda ishlatiladigan har bir so'z grammatik yoki strukturaviy jihatdan o'z ichki tuzilishi va xususiyatlariga ega. So'zlarning tuzilishiga ko'ra 4 xil turi mavjud, ya'ni sodda, qo'shma, juft va takroriy so'zlar. Sodda so'zlar bir asosdan iborat so'zlar bo'lib, ular o'z o'rnida sodda tub va sodda yasama so'zlarga bo'linadi. Sodda tub so'zlarning tarkibi faqatgina bir o'zakdan tashkil topadi va ularga hech qanday yasovchi qo'shimchalar qo'shilmaydi. Terminlar bilan bir qatorda terminologiya tomonidan o'rganiladigan boshqa maxsus leksik birliklar ham mavjud. Ularning kelib chiqishi, tipologiyasi, shakllari, mazmuni, faoliyati va qo'llanilishi o'rganilgan, ingliz va fransuz tillarida aviatsiya terminlarini lingvistik va ekstralingvistik darajada tavsiflangan. Aviatsiya terminlari lingvistik tahlil qilishda ularning kelib chiqishi (asl va o'zlashtirilgan terminlar ajratiladi), leksik va grammatik xususiyatlari (termin elementlarining nutqning ma'lum qismlariga munosabati), leksik va semantik xususiyatlari (ko'p ma'noning mavjudligi, munosabati) tavsiflangan. Sinonimiya, antonimiya bir

so'zli terminlarning so'z yasash tarkibi va qo'shma otlarning grammatik tuzilishi, shuningdek, termin hosil qilishda turli xil nutq qismlariga tegishli termin elementlarining roli ko'rib chiqilgan. Tadqiqotning dolzarbligi lingvistik va ekstralingvistik omillar bilan bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

professional muloqotda;

ma'lum bir milliy tilda o'zini namoyon qiladigan maxsus vositalarni tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlarning yetishmasligi;

moddiy madaniyat qadriyatlarini yaratishga qaratilgan kasbiy faoliyat sohasida inson tafakkuri evolyutsiyasi jarayonini aks ettirish natijasida paydo bo'lgan leksik birliklarga asoslangan kasbiy aloqa;

ilmiy bilimlarni takomillashtirishni hisobga olgan holda maxsus lug'at va soha terminologiyasini nazariy-uslubiy asosda yanada tartibga solish maqsadida turli tuzilishga ega tillardagi maxsus til birliklari;

terminlarning semantikasini tahlil qilishning ahamiyati;

fan-texnika taraqqiyoti va kasbiy madaniyatni tezlashtirish nuqtai nazaridan aviatsiyasozlik sanoatining rivojlanish darajasini aks ettiruvchi xalqaro ilmiy-texnikaviy axborot almashtiruvini kengaytirish;

zamonaviy sanoat lug'atlarida yetarli darajada to'liq ma'lumotlarning yo'qligi, bu professional mutaxassislar va tarjimonlar ishinig o'zaro aloqasini qiyinlashtiradi;

aviatsiya ishlab chiqaruvchilar, avtokorxonalar va firmalar tomonidan professional foydalanishga joriy qilingan aviatsiya terminologiyasining hozirgi holati to'g'risida yetarli ma'lumotga ega emasligi;

tilda umumiy terminlarning maxsus maqsadlarda qo'llanilishiga bag'ishlangan asarlarning, kasbiy muloqot holatlarida maxsus terminlar yordamida texnik ma'lumotlarni so'zlashuv uchun umumiy lug'atning yo'qligi;

maxsus maqsadlar uchun tillarning hududiy variantlarining sekin rivojlanishi (ularning eng asosiylari Britaniya inglizlari va Amerika inglizlari), ularning rivojlanishiga milliy tafakkur kuchli ta'sir ko'rsatadi;

Britaniya va Amerika aviatsiyasozlik an'analari hisobga olgan holda ingliz terminlarini qiyosiy o'rganishning amaliy yo'qligi.

Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida terminologiya muammolarini o'rganish tilshunoslikning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib ko'rinadi. Zamonaviy dunyoda terminologiya axborot manbai, mutaxassislikni egallash quroli, hatto ki fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish vositasi bo'lib, odamlar o'rtasidagi muloqot va muloqotda yetakchi o'rin tuta boshladi. Terminologiya axborot manbai bo'lib xizmat qilishi bilan bir qatorda, u lug'atning tashqi ta'sirlarga nisbatan eng sezgir qismidir. Aynan unda jamiyatning tilga ta'siri aniq namoyon bo'ladi, bu esa undan davlatlar rivojlanishining tarixiy bosqichlarini o'rganish, ularning shakllanishi, sivilizatsiya turlarini tahlil qilish va tilni aniqlashda foydalanish imkonini beradi, ularning madaniy, ilmiy va texnik salohiyatini namoyon qiladi.

Semantik (mazmun) tuzilishiga ko'ra terminlar motivatsion va nomotivatsion terminlarga bo'linadi. Motivatsion terminlar, o'z navbatida, qisman motivatsiyalangan va to'liq motivatsiyalangan terminiga bo'linadi. Birinchisining ma'nosini faqat ular hosil bo'lgan so'zlarning ma'nolarini qo'llash orqali qisman tushuntirish mumkin. To'liq asosli terminlar bo'lsa, ularning ma'nosi tuzilish elementlarining ma'nosi bilan to'liq ochiladi.

Terminologik birliklarning ma'no (mazmun jihatidan) va shakl (ifoda jihatidan) munosabatini qayd etib, terminologiyaning izchilligini ana shu munosabatdan kelib chiqib tushuntirish mumkin. Bizning fikrimizcha, terminologik birliklarning ob'ektiv xususiyatlari - ular belgilangan tarmoq tushunchalarining muvofiqligi bilan belgilanadigan ma'nodagi izchillik va terminologik birliklarning shakldagi izchilligi ma'lum bir terminologik birlik shaklining muvofiqlik darajasi bilan bog'liq. Terminologik tadqiqotlarda terminlarning ierarxik tasniflari ularning jins-tur va assotsiativ munosabatlarini hamda terminlar orasidagi boshqa mantiqiy-konseptual munosabatlarni aniqlash uchun quriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, tushunchalarni tasniflash

tahlili terminlarni tizimli o'rganish bilan to'ldiriladi. Ma'lumki, soha terminologiyalari tizimli xususiyatga ega. Shuning uchun tadqiqotchilarning terminlarni ularning tizimli munosabatlarida o'rganishga qiziqishi tabiiy ko'rinadi. Terminologiya ko'plab terminologik mikrotizimlardan tashkil topgan fan tilining eng muhim qismi sifatida qaraladi. Bitta terminning ishlashi butun mikrotizimning tarkibiy va funksional fazilatlar bilan belgilanadi va shu bilan birga, boshqa terminlar - xuddi shu mikrotizim elementlaridan foydalanishga ta'sir qiladi. Shu nuqtai nazardan, terminologik tizim tadqiqotlarida terminologiyani tizimli ravishda o'rganishga urinishlar qiziqarli ko'rinadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytadigan, bo'lsak yuqorida keltirilgan misollar orqali xulosa qilish mumkinki, aviatsiya sohasiso'zlar va terminlarga juda boy, ular o'z o'rnida, turlicha tuzilishga ega. Shuning uchun har bir so'zningstrukturaviy jihatlarinialohida va batafsilo'rganish, ularni ilmiy jihatdan tahlil qilishnafaqattilshunos olimlar, ilmiy tadqiqotchilar va izlanuvchilar, balki talabalaruchun ham juda ahamiyatli bo'lib, ularning mazkur soha to'g'risidagi nazariy va amaliy bilimlarni yanada oshirishga,sohada mavjud bo'lgan so'zlarning nutqiy jarayonlarda to'g'ri qo'llanilishiga, so'zlovchi va tinglovchilargatushunarli bo'lishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. AbdulvohidovaN. S.,QodirovaM. T.Aviatsiyaga oid terminlarning inglizcha-o'zbekcha lug'ati-T:2022.
2. NurmonovA.Struktur tilshunoslik: ildizlari va yo'nalishlari. -T.: Ta'lim, 2009,160 b.
3. AbdulvohidovaN. S.,QodirovaM. T.Aviatsiyaga oid terminlarning inglizcha-o'zbekcha lug'ati-T:2022.
4. Голованова Е. И. Введение в когнитивное терминоведение. М.:ФЛИНТА; Наука, 2011. 224 с.
5. Засорина Л. Н.Основныенаправленияструктурализма, М., 1964.
6. Каримов Ш. Б. Автореферат: Структурно-семантический анализ авиационныхтерминов в таджикском и английском языках. Д.:2014. с 3.



Feruzaxon MURATKHODJAEVA,
Oriental universiteti dotsenti, PhD
E-mail: fmuratkhodjaeva@gmail.com

Oriental universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi M. Boboyeva taqrizi asosida

INSON RUHIYATINI IFODALOVCHI MELIORATIV EMOTSIYALARNING SEMANTIK KO'LAMI

Аннотация

Ushbu maqolada meliorativ emotsiyalar inson ruhiyatidagi ijobiy his-tuyg'ularni aks ettirishdagi lingvistik vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Meliorativ emotsiyalar quvonch, baxt, muhabbat, g'urur va tinchlik kabi ijobiy holatlarni semantik va pragmatik jihatdan tushuntiradi. Maqolada bu emotsiyalarni ifodalash uchun ishlatiladigan leksik birliklar, frazeologik iboralar va sintaktik qurilmalar alohida tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu birliklarning kommunikativ va madaniy kontekstdagi o'rni ham chuqur o'rganilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, meliorativ emotsiyalar nafaqat insonning ichki hissiy holatini ifodalashga, balki ijtimoiy muloqotda iliqlik va samimiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu emotsiyalarning lingvistik va pragmatik xususiyatlarini aniqlash orqali tilshunoslik, psixologiya va madaniyatshunoslik sohalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan muhim nazariy asoslar taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: Meliorativ emotsiyalar, semantik ko'lam, quvonch, muhabbat, g'urur, frazeologik birliklar, lingvistik tahlil, pragmatik ahamiyat.

СЕМАНТИЧЕСКИЙ ОБЪЕММЕЛИОРАТИВНЫХ ЭМОЦИЙ, ОТРАЖАЮЩИХ ЧЕЛОВЕЧЕСКУЮ ПСИХИКУ

Аннотация

В данной статье рассматриваются мелоративные эмоции как лингвистическое средство, отражающее положительные чувства и эмоции человека. Мелоративные эмоции объясняют семантические и прагматические аспекты таких положительных состояний, как радость, счастье, любовь, гордость и спокойствие. В статье проводится отдельный анализ лексических единиц, фразеологических оборотов и синтаксических конструкций, используемых для выражения этих эмоций. Также подробно изучено место данных единиц в коммуникативном и культурном контексте. Результаты исследования показывают, что мелоративные эмоции служат не только для выражения внутреннего эмоционального состояния человека, но и для укрепления теплоты и искренности в социальном общении. Выявление лингвистических и прагматических характеристик этих эмоций предоставляет важные теоретические основы, которые могут быть применены в таких областях, как лингвистика, психология и культурология.

Ключевые слова: Мелоративные эмоции, семантический объем, радость, любовь, гордость, фразеологические обороты, лингвистический анализ, прагматическая значимость.

THE SEMANTIC SCOPE OF MELIORATIVE EMOTIONS REFLECTING HUMAN PSYCHE

Annotation

This article examines meliorative emotions as a linguistic means of reflecting positive human feelings and emotions. Meliorative emotions explain the semantic and pragmatic aspects of such positive states as joy, happiness, love, pride, and peace. The article provides a detailed analysis of lexical units, phraseological expressions, and syntactic constructions used to express these emotions. Additionally, the role of these units in communicative and cultural contexts is thoroughly explored. The results of the study show that meliorative emotions not only serve to express a person's internal emotional state but also help reinforce warmth and sincerity in social interaction. Identifying the linguistic and pragmatic characteristics of these emotions provides important theoretical foundations that can be applied in fields such as linguistics, psychology, and cultural studies.

Key words: Meliorative emotions, semantic scope, joy, love, pride, phraseological expressions, linguistic analysis, pragmatic significance.

Kirish. Til inson ruhiyatini, emotsiyalarini va hissiy holatini ifodalashning eng muhim vositasidir. Emotsiyalarni ifodalash jarayonida tilshunoslikda "meliorativ emotsiyalar" deb ataluvchi, ijobiy ma'nolarni aks ettiruvchi lingvistik birliklar alohida o'rin tutadi. Meliorativ emotsiyalar insonning quvonch, minnatdorlik, g'urur, muhabbat va boshqa ijobiy his-tuyg'ularini ifodalash uchun xizmat qiladi. Ushbu maqolada meliorativ emotsiyalarning semantik kolami, ya'ni ularning mazmuniy cheklari, o'ziga xos xususiyatlari va til birliklari orqali namoyon bo'lishi tahlil qilinadi.

1. Meliorativ emotsiyalar tushunchasi

Meliorativ emotsiyalar tushunchasi insonning ijobiy ruhiy holatlarini ifodalashda ishlatiladigan til vositalarini o'z ichiga oladi. Bular shunchaki his-tuyg'ularni ifodalashgina emas, balki ijobiy baholashni ham o'zida aks ettiradi. Masalan, "xursand", "g'ururlanmoq", "bahramand", "quvonch" so'zlari va iboralar inson ruhiyatidagi iliqlik va ijobiy kayfiyatni aks ettiradi.

1.1. Meliorativlikning semantik asosi

Meliorativ emotsiyalar semantik jihatdan quyidagilarga asoslanadi:

Pozitivlik: Ijobiy ma'no yuklaydigan lingvistik birliklar.

Hissiy baho: Insonning ma'lum bir voqea yoki shaxsga nisbatan ijobiy his-tuyg'ulari.

Muloqot samimiyati: Meliorativ birliklar ko'pincha samimiy munosabatni ifodalaydi va bu ularning asosiy funktsiyalaridan biridir.

1.2. Tilshunoslikda meliorativ emotsiyalarni o'rganish

Tilshunoslikda meliorativ emotsiyalar leksik-semantik, pragmatik va kognitiv jihatdan o'rganiladi. Bu so'zlar va iboralar shunchaki ijobiy kayfiyatni aks ettirish bilan cheklanmaydi, balki kommunikativ maqsadlarga xizmat qiladi.

2. Meliorativ emotsiyalarning semantik ko'lami

Meliorativ emotsiyalar keng semantik ko'lamga ega bo'lib, ular turli darajadagi mazmunlarni qamrab oladi. Quyida ularning asosiy guruhlarini va semantik xususiyatlarini ko'rib chiqiladi.

2.1. Quvonch va baxtni ifodalovchi emotsiyalar

Quvonch va baxt insonning eng ijobiy his-tuyg'ulari bo'lib, ular til vositalarida quyidagicha ifodalanadi:

Leksik birliklar: "baxtiyor", "xursand", "shod", "quvonchli".

Frazeologik birliklar: "ko'ngli tog'dek", "ko'ngli gullarga to'ldi".

Semantik tahlil: Bu birliklar quvonchli holatni tasvirlashda yuqori emotsional ohangga ega.

2.2. Muhabbat va minnatdorlikni ifodalovchi emotsiyalar Muhabbat va minnatdorlik so'zlari insoniy munosabatlarning ilqligi va samimiyligini ifodalaydi:

So'zlar: "sevgilim", "rahmat", "mehribon".

Iboralar: "dildan joy oldi", "minnatdor bo'ldi".

Semantik xususiyatlar: Bunday birliklar ko'pincha muloqotda ijobiy munosabatni mustahkamlash vazifasini bajaradi.

2.3. G'urur va faxrni ifodalovchi emotsiyalar

G'urur va faxr insonning o'ziga yoki boshqalarga nisbatan yuqori baho berishini ko'rsatadi:

Leksik birliklar: "g'ururlanmoq", "iftixor", "shon-sharaf".

Pragmatik rol: Bu emotsiyalar ko'pincha nutqdagi motivatsion omil sifatida namoyon bo'ladi.

2.4. Tinchlik va taskin emotsiyalari

Tinchlik va taskinlik ijobiy ruhiyatning muhim tarkibiy qismlaridir:

So'zlar va iboralar: "xotirjam", "ko'ngli tinch", "bahramand".

Semantik mazmun: Ular stressni kamaytiruvchi va ilq kayfiyatni saqlovchi omillarni aks ettiradi.

3. Meliorativ emotsiyalarning lingvistik ko'rinishlari

Meliorativ emotsiyalar leksik, morfologik va sintaktik jihatdan turlicha ko'rinishda bo'ladi. Ularning lingvistik namoyon bo'lishi quyidagi jihatlarda kuzatiladi:

3.1. Leksik Birliklar

Meliorativ emotsiyalar ko'pincha quyidagi leksik birliklar orqali ifodalanadi:

Sinonimlar: Masalan, "quvonch" va "shodlik" bir-birining yaqin ma'nodagi sinonimlari hisoblanadi.

Antonimlar: Muayyan ijobiy holatlarni ifodalovchi timsollar, masalan, "farishta" yoki "gulday inson".

3.2. Frazeologik birliklar

Frazeologizmlar ko'pincha meliorativ emotsiyalarni boy ma'no va hissiy ta'sir bilan ifodalaydi:

"Dili gullarga to'ldi."

"Quvonchdan uchib ketdi."

3.3. Sintaktik qurilmalar

Meliorativ emotsiyalar ko'pincha muloqotning ohangdorligini oshiruvchi sintaktik vositalar yordamida ifodalanadi:

Emotsional gaplar: "Bu qanday baxt!"

Takrorlash va urg'u berish: "Bu ajoyib! Juda ajoyib!"

4. Meliorativ emotsiyalarni tushunishda pragmatik asoslar Meliorativ emotsiyalar nafaqat lingvistik, balki pragmatik asoslarga ham ega. Ular muloqot jarayonida suhbatdoshlarning ijobiy kayfiyatini oshirishga qaratilgan:

4.1. Kommunikativ funktsiyalar

Samimiyligni namoyon qilish: "Sizga rahmat!"

Hissiy qo'llab-quvvatlash: "Sen bunga loyiqsan."

4.2. Kontekstual Ta'sir

Meliorativ emotsiyalar faqat til birliklariga emas, balki muloqot kontekstiga ham bog'liq:

Formal va norasmiy muloqotda farqlanish.

Madaniy o'ziga xoslik (masalan, sharq va g'arb tillarida emotsional ifodalarning xilma-xilligi).

Xulosa. Meliorativ emotsiyalar insonning ijobiy ruhiy holatlarini ifodalashda va ularning muloqotdagi ahamiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ushbu birliklarning semantik kolami juda keng bo'lib, ular tilning leksik, frazeologik va sintaktik darajalarida namoyon bo'ladi. Ularning o'rganilishi nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy va madaniy tadqiqotlar uchun ham dolzarb hisoblanadi. Meliorativ emotsiyalar orqali insonlar orasida ilq munosabatlari shakllanadi va muloqot yanada samarali bo'ladi.

Kelgusida ushbu mavzuni boshqa tillar bilan qiyosiy tahlil qilish va madaniyatlararo o'xshashliklarni o'rganish tadqiqot doirasini kengaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Abdullayeva, G. N. "Til va emotsiyalar: lingvistik tahlil". Toshkent: Fan nashriyoti, 2018.
2. Boboyev, R. Q. "Semantika nazariyasi va leksik tahlil". Toshkent: O'qituvchi, 2020.
3. Safarov, Sh. "Tilshunoslik va muloqotning psixologik asoslari". Toshkent: Universitetskiy, 2016.
4. G'ulomov, A. "Frazeologik birliklarning semantik qirralari". Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019.
5. Wierzbicka, A. "Emotions Across Languages and Cultures: Diversity and Universals". Cambridge University Press, 1999.
6. Plutchik, R. "The Nature of Emotions". American Scientist, 2001.
7. Kövecses, Z. "Metaphor and Emotion: Language, Culture, and Body in Human Feeling". Cambridge University Press, 2000.
8. Kramsch, C. "Language and Culture". Oxford University Press, 1998.
9. Pavlenko, A. "Emotions and Multilingualism". Cambridge University Press, 2005.
10. Lotman, Yu. M. "Kultura i vzryv". Moskva: Progress-Traditsiya, 2000.



UDK:8.82-1/-9

Moxichehra MUXAMMADIYEVA,
ToshDO'TAU tayanch doktoranti
E-mail: muhammadiyevamohichexra@gmail.com

ToshDO'TAU professori, f.f.d. M.Abdullayeva taqrizi asosida

HUDHUD OBRAZINING POETIK TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqolada Hudhud obrazining shakllanish genezisi ilmiy jihatdan o'rganilgan. Uning badiiy adabiyotdagi o'rni, shuningdek, biologik xususiyatlari yoritib berilgan. Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr", Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", Mavlono Xo'ja Qozi Payvandi Rizoyni "Qush tili", Salohiyning "Gul va Bulbul", Nishotiyni "Qushlar munozarasi", Omon Matjonning "Qush yo'li" asarlaridagi Hudhud obrazining tasviri qiyosiy tahlil etilgan. Hudhud obrazining badiiy adabiyotda shakllanishi ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: Tayr qissalari, Hudhud, popishak, pir, solik, Qur'on, qush obrazi, tahlil, poetik talqin.

ПОЭТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ОБРАЗА ХУДХУД

Аннотация

В данной статье научно изучается генезис образа Хухуда. Объясняется его место в художественной литературе, а также биологические особенности. Образ Хухуда в произведениях «Мантик ут-тайр» Фаридуddина Аттар, «Мантик ут-тайр» Гульшахри, «Лисаон ут-тайр» Алишера Навои, «Язык птицы» Маулааны Ходжи Казии Пайванди Резаи, «Цветок и соловей» Салахи, «Разговор птиц» Нишоти, «Путь птицы» А. мон Матьян сравнительно проанализированы. Формирование образа Хухуда в художественной литературе имеет научное обоснование.

Ключевые слова: История о птицах, Хухуд, попишак, пир, налог, Коран, образ птицы, анализ, поэтическая интерпретация.

POETIC ANALYSIS OF THE IMAGE OF HUDHUD

Annotation

This article scientifically studies the genesis of the image of Huhud. Its place in fiction is explained, as well as its biological features. The image of Huhud in the works "Mantik ut-tair" by Fariduddin Attar, "Mantik ut-tair" by Gulshahri, "Lison ut-tair" by Alisher Navoi, "The Language of the Bird" by Maulana Khoja Kazi Paywandi Rezai, "The Flower and the Nightingale" by Salahi, "The Conversation of the Birds" by Nishoti, "The Way of the Bird" by A. mon Matyan comparatively analyzed. The formation of the image of Huhud in fiction has a scientific basis.

Key words: Story of birds, Huhud, popishak, feast, tax, Koran, image of a bird, analysis, poetic interpretation.

Kirish. Qushlar obrazining adabiyotga kirib kelishi uzoq asrlarga borib taqaladi. Ularning adabiyotdagi dastlabki tasvirlari yunon va rim mifologiyasida uchraydi. Keyingi asrlar davomida qushlar obrazi tasavvufiy, psixologik va falsafiy ma'no kasb etib bordi va adabiyotda faol qo'llanila boshlandi. HUDHUD (popishak) obrazining adabiyotga kirib kelishi Qur'oni karimning "Naml" surasiga borib taqaladi. Ushbu surada payg'ambarlardan Muso, Solih, Lut alayhissalomlar zikr qilinadi. Xususan, Dovud va Sulaymon payg'ambarlar haqida batafsil to'xtalib o'tiladi. Sulaymon alayhissalom Alloh taoloning payg'ambari bo'lishi bilan birga, jamiyki ins-u jin va parranda-yu darranda olamiga podshoh qilingani to'g'risida hikoya qilinadi. Unda Hudhud qushining Sulaymon alayhissalom va Sab'a o'lkasi malikasi Bilqis o'rtasidagi vositachiligi keltirib o'tilgan. Suraning 20-27 oyatlarida [Naml, 27:20-27]. Hudhud Sulaymon alayhissalomga Yaman mamlakatidagi Sab'a shahrida Bilqis degan malika hukmronlik qilishini, uning katta taxti borligi turkiy va forsiy adabiyotda Hudhud aqli va zehni qush ramzi sifatida tasvirlana boshlandi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Hudhud obrazi haqida navoiyshunoslikda N.Komilov "Hudhud – pir timsoli bo'lsa, o'ttiz qush solik muriddlar timsolidir. Attor va Navoiy tasvirlangan yetti vodiy esa solik ruhining yetti tovlanuvchi manzarasi – Ilohga vosil bo'lish bosqichlari, ma'rifat zinalarini bildirib keladi" [Najmiddin Komilov, 1996], – degan fikrlarni bildirib o'tadi. Shuningdek, Zuhra Mamadaliyeva o'z tadqiqotida: "Hudhud qushlarni Simurg' sari boshqarar ekan, dostonidagi voqealar rivoji davomida uning komil yo'l boshlovchi ekanligi namoyon bo'ladi. U qushlarning oddiy savollariga, masalan, g'ozning "Suv menga makon, demak men pokman, shunday ekan, menga Simurg' nimaga kerak?" degan mazmundagi bergan savoliga chuqur falsafiy mushohada bilan yakunlanadigan dunyoning bir tomchi

svuga arzimastligi haqidagi rivoyat bilan javob beradi" [Zuhra Mamadaliyeva, 2011], – degan mulohazalarni bildirsa, Shafot Hasanova "Mavlono Xoja Qozi Payvandi Rizoyni "Qush tili" dostoni va uning qiyosiy-tekstologik tadqiqi" nomli nomzodlik dissertatsiyasida "Rizoyni Hudhudning tashqi qiyofasini ta'riflab uni ishbilarmon, harakatchan zohiran jozibali botinan orif, vahdoniyat sirlarini o'zlashtirgan, fahrlilik toji va me'rojiga sazovor xislatlarga ega siymo sifatida" [Shafot Hasanova, 2006] ta'riflaydi. Tadqiqotlardan ko'rinib turibdiki, Hudhud qushining ramziy-majoziy xususiyatlari qisman tahlilga tortilib, olimlar tomonidan munosabat bildirilgan. Biroq mazkur obrazning badiiy-poetik talqini alohida tadqiqot obyekti bo'lgan emas. Shu boisdan Hudhud obrazining poetik tahlilini bir nechta badiiy asarlar misolida o'rganishga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Hudhud obrazini adabiyotga Fariduddin Attor Nishopuriy (1119-1229) o'zining "Mantiq ut-tayr" asarida markaziy qahramon sifatida olib kirdi. Olimlarning ta'kidlashicha, Attorning ushbu asarini vujudga kelishida Abu Ali ibn Sinoning "Risalat ut-tayr", Shahobiddin Suhavardiyni "Risolayi musammo ba safari Simurg'", Abu Homid Muhammad G'azzoliyni "Risalat ut-tayr" asarlarining ta'siri katta. Ushbu asarlarda umumiy qushlar haqida gap ketadi. Attor esa aniq qushlar nomini tasvirlaydi. Shoirning mazkur mavzuni rivojlantirishga qo'shgan ulushini belgilovchi omillardan yana biri dostonida Hudhud obrazining mavjudligi bilan xarakterlanadi. Hudhud asarning yetakchi qahramonlaridan biri bo'lib, asarda tasvir etilgan barcha voqea-hodisalar bevosita uning faoliyati bilan bog'liq holda tasvirlangan. Attor Hudhud obrazini ushbu mavzu doirasiga olib kirar ekan, birinchi galda u haqidagi Sharq folklori va Qur'onda mavjud (XXVII sura 20-oyat) ayrim tasavvurlarga asoslanadi [Шарипов Шарофиддин, 2012].

Hudhud qushlarni Simurg' (Olloh) sari boshqarar ekan, qushlarning har bir savoliga falsafiy va tasavvufiy tarzda donolik bilan javob beradi. Hudhud Attorning inson va iloh munosabatlari, inson va uning kamoloti, inson va olam to'g'risidagi fikrlarini asosiy bayon etuvchi obraz ekanligi bilan ham bu dostonida xarakterlidir. Attorning falsafiy va badiiy san'atdagi imkoniyatlari hech qaysi obrazda Hudhudchalik aniq va ravshan namoyon bo'lmagan. Attor "Bulbulnoma" deb atalgan kichik masnaviysida ham Hudhudni kamolotga yetgan sufiy sifatida tasvirlaydi va uni dunyoviy ishq asiri Bulbulga qarshi qo'yadi. Ushbu asarda qushlar Sulaymon payg'ambarning huzuriga borishadi va gulga ishq tushgan bulbul saharlari u uchun qo'shiq kuylab, rohatimizni buzyapti, deb shikoyat qilishadi. Sulaymon payg'ambar Bulbulni chaqiradi va rohatdan chekinib, dard chekishga amr etadi.

Attordan keyin Jaloliddin Rumi "Masnaviyi ma'naviy" asarining birinchi kitobida Sulaymon alayhissalomning Hudhud bilan tanishuvi aks etgan hikoyatni keltiradi. Sulaymon payg'ambar o'z qo'mondonligi ostidagi barcha qushlarni to'plab, ularning mahoratlarini birma-bir aytib berishlarini so'raydi. Navbat Hudhudga keladi va u osmonda uchayotganda yer ostidagi suvni ko'rishini aytadi. Shunda Sulaymon payg'ambar Hudhudning bu xislatini o'zi va lashkari uchun foydali deb o'ylab, uni o'zi bilan olib ketishga qaror qiladi. Qarg'a Hudhudga hasad qiladi va Sulaymon payg'ambarga yuzlanib:

O'z-o'zini Shohga ta'riflab kishi,
Yolg'on aytsa, beadablikdir ishi.

Ko'z muyassar ersa bul xudkomga,
Yerda tushmas erdi hargiz tomga [Jaloliddin Rumi, 2005].

Ya'ni Qopqonni ko'ra olmagan odam qanday qilib uzoqni ko'ra olishini aytib, uni shohning oldida obro'sizlantiradi. Hudhud Sulaymon alayhissalomga bu dushmanlik gaplarga quloq solmasligini, agar Olloh uning ko'zlarini ko'r etmasa, havoda muallaq turganida ham tuzoqni ko'ra olishini aytadi. Shu qobilayati tufayli ham Sulaymon alayhissalom Hudhudni o'ziga yo'ldosh qilib olgani tasvirlanadi [Jaloliddin Rumi, 2005]. Bu o'rinda Jaloliddin Rumi Hudhud qushlarining tabiat in'om etgan suvlikni oldindan sezish xususiyatini badiiy jihatdan aniq tasvirlab o'tadi. Masnaviyda aytilgan voqealarga ko'ra biz hudhudni jamiyatning dono va ziyoli odamlarning ramzi sifatida tushunishimiz mumkin. Bunday insonlar sodir bo'layotgan voqealarni tog'ri tahlil qilishadi va uzoqni ko'rib fikr yuritishadi.

Rabg'uziyning (XIII asr oxiri – XIV asr boshlari) "Qissasi Rabg'uziy" asarida "Sulaymon alayhissalom qissasi" [Nosuriddin Rabg'uziy, 1991] berilgan bo'lib, qissada Hudhud obrazining zakovati, ma'lumotlarni yetkazishdagi farosati tasvirlanadi. Ushbu qissa yuqorida aytib o'tilgan Naml surasi asosida bayon etilgan.

Tahlil va natijalar. Mumtoz adabiyotda Attorga javob tarzida yozilgan ilk turkiy doston turk adibi Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr" asari hisoblanadi. Doston 1317-yilda yaratilgan. Sharofiddin Sharipov o'z tadqiqotida: "Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr" asarida ham Hudhud – qushlar yo'lboshchisi timsolida gavdalanadi. Muallif ushbu dostonida Hudhudni aql timsoli deb baholaydi" [Sharofiddin Sharipov, 1982] – degan fikrlarni bildirib o'tadi. 1499-yilda Navoiy "Mantiq ut-tayr" ga javob tarzida "Lison ut-tayr" dostonini bitadi. Dostonida Hudhud obrazi bosh qahramon vazifasini bajaradi va qushlarni to'g'ri yo'lga boshlovchi, ularga pand-nasihat qiluvchi shayx, pining allegorik obrazi sifatida ifodalanadi. Asarda tasvirlangan 30 qush esa solik muridlar ramzidir. Keyinchalik, bu an'anani davom ettirgan Mavloni Xo'ja Qozi Payvandiy Rizoiy o'zining "Qush tili" nomli asarini yozadi. Payvandiy ta'kidlashicha, dostonni yozishdan asosiy maqsadi Fariduddin Attorning "Mantiq ut-tayr" asariga nazira yozib, o'zining diniy-tasavvufiy qarashlarini bayon

Qiyosiy jadval. 1-rasm

Attorning "Mantiq ut-tayr" asarida	Navoiyning "Lison ut-tayr" asarida	Rizoiyning qush "Qush tili" Asarida	Nishotiyning Qushlar munozarasi asarida	Salohiyning "Gul va bulbul" asarida	Darvish Shamseddinning "Dehi murg" asarida	Omon Matjonning "Qush yo'li" asarida
Hudhud	Hudhud	Hudhud	Hudhud	Hudhud	Hudhud	Hudhud
Bulbul	Shunqor	Musicha	Laylak	Bulbul	Boyo'g'li	Shunqor
To'ti	Samandar	Bulbul To'ti	Akka	Humoyun	Qarg'a	To'ti

etmoqchi bo'lgan. Shafolat Hasanova o'z tadqiqotida ushbu dostonning qo'lyozma nusxasi bilan tanishib, tayr qissalarini davom ettirgan mustaqil asar deya baholaydi. Asarda qushlar obrazi misolida inson o'z nafsini yengib, haqiqat asrari (Simurg')ga yetishishi va bu yo'lga Hudhud qushlarga yo'lboshchilik qilishi tasvirlangan [Rizoiy, 2009]. Rizoiyning Hudhud obrazi bilan Fariduddin Attorning Hudhud hodi obrazi bir-biriga juda o'xshash tasvirlanadi. Ikkala asarda ham uning Sulaymon alayhissalom xizmatida bo'lganligi, Sab'a yurti malikasiga islomga da'vat etish maqsadida maktub olib borganligi tasvirlanadi. Bu o'xshashliklarni ikki ijodkor ikki xil badiiy uslubda tasvirlaydi. Rizoiy har bir hikoyatlardan keyin Qur'on va hadislardan iqtiboslar keltiradi. Bu tasvir Attor va Navoiyda kuzatilmaydi.

Salohiyning 1740-yilda yozilgan "Bulbul va gul" dostonida Hudhud epizodik obraz sifatida ishtirok etadi. Salohiy ham ushbu asarning xotima qismida Attorning "Mantiq ut-tayr"ga javob tariqasida bitganligini ta'kidlaydi. Ammo dostonning mazmuni "Mantiq ut-tayr"dan tubdan farqlanadi. Dostonida, asosan, Bulbulning qizil gulga oshiq bo'lishi va shu suvjet bilan bog'liq epizodlar, Bulbulning qushlar bilan uchrashib, savol-javob qilishi va asar so'ngida qafasga tushib vafot etishi tasvirlanadi. "Bulbul va Gul" dostonida Bulbul va sakkizta qush (Humoyun, Tovus, To'ti, Kabk, Qumri, Foxta, So'fiyo va Hudhud) o'rtasidagi savol-javobga keng o'rin berilgan [Surayyo Shodiyeva, 2023].

XVIII asrning boshida yashab ijod etgan Muhammadniyoz Nishotiy o'zining "Qushlar munozarasi" asarida Hudhudni markaziy obraz sifatida tasvirlaydi. Asar majoziy xarakterga ega bo'lib, 14 ta ramziy qush obrazlarining (akka, zog', qumri, foxtak, bulbul, to'ti, qirg'ovul, kaklik, qarchig'ay, o'rdak, qashqaldaq, tovus, humo, hudhud) o'zaro bahs-munozarasi tasvirlangan. Asarda Hudhud bahsli vaziyatda yechim beruvchi donishmand insonlarning ramzi sifatida gavdalanadi. Nishotiy ham an'anaviy Hudhud obrazidan foydalanadi. Navoiyning "Lison ut-tayr" asaridagi Hudhudni qushlarning o'zlari chaqirganlaridek, Nishotiyning Hudhudni ham qushlar chorlashadi. U yetib keladi va qushlar hikoyat aytib beradi. Ya'ni bir kuni bo'ron osmondan yerga tushadi va yerni juda bepayon ekanligini ko'radi. U yerga tushganiga hijolat bo'la boshlaydi va kim bilan majaro qilishni bilmaydi. Sadafni ichiga tushadi va durga aylanadi. Demak, inson qachonki, o'zini anglasa, qalbiga nazar solsa, nafsini jilovlay olsa, qalbidagi sadafni ko'radi va ko'ngil ko'zi ochiladi.

XX asrning 70-yillarida Omon Matjon o'zining "Qush yo'li" asarida Hudhudni yana bir bor markaziy qahramon darajasiga olib chiqadi. Doston Navoiyning "Lison ut-tayr" asariga javob tariqasida yozilgan. Dostonda qushlarning Navro'z vaqtida Baxmal tog'larida to'planib majlis qilishi tasvirlanadi. Hudhud boshchiligidagi qushlar boshidan kechirgan voqealarni hikoya qilib, Simurg' sari yo'lga chiqishadi. Navoiy o'z falsafiy qarashlarini Hudhud tilidan bayon etgani kabi Omon Matjon ham ijtimoiy vaziyat haqidagi qarashlarini Hudhud obrazi orqali ifodalaydi. Asarda Hudhud mustaqillik ramzi sifatida ifoda etiladi. Omon Matjon Hudhud obrazining an'anaviy jihatlarini saqlab qolgan holda, uni hayotiy talqinlar bilan boyitadi. Dostonida mustabid tuzumning og'ir zarbalari, xalq ko'rgan qiyinchiliklar qushlar tilidan bayon etiladi.

Turkiyada Sulton Salim hukmronlik davrida Darvish Shamseddin "Deh-I murg" ("Qushlar munozarasi") asarini yozadi. 1503-yilda yozilgan ushbu asar ham ramziy xarakterga ega bo'lib, Boyo'g'li (so'fiy), Qarg'a (nafis va bilimdon shoir), To'ti (olim, mulla), Kerkes (gerges), Bulbul (xonanda), Hudhud (tabib), Qaldirg'och (munajjim), Tovus, Kaklik (Farhod) va laylak kabi ramziy qush obrazlarining o'zaro bahs-munozaralari tasvirlanadi. Shamsiddin Darvish Hudhud qushini tabiblarning ramziy obrazi sifatida tasvirlaydi [Ali Yilmaz, 1995]. Quyidagi jadvalda Hudhud qushi markaziy obraz bo'lgan asarlar qiyosi keltirilgan.

Tovus	Bulbul	Kabk	Zog'	Tovus	To'ti	Laylak
G'oz	To'ti	Durroj	Qumri	To'ti	Kerkes	Chag'alay
Kaklik	Tovus	Andalib	Foxtak	Kabk	Bulbul	Kabutar
Humo	Qumri	Tovus	Bulbul	Qumri	Tovus	Bulbul
Lochin	Kabutar	Tazavr	To'ti	Foxta	Qaldirg'och	Qirg'ovu
Butimor	Kaklik	Qumri	Qirg'ovul	So'fiyo	Kaklik	Oqqush
Boyqush	Tazavr(tustovuq)	Bo'timor	Kaklik		Laylak	olaqarg'a
Sa'va	Burgut(uqob)	Boyqush	O'rdak			Chumchuq
	Kuf	Sa'va	Qashqaldoq			Musicba
	Tovuq(xo'roz)	Humoy	Kaklik			Tustovuq
	Qarchig'ay	O'rdak	Qarchig'ay			Ko'k kaptar
	Xumoy	Qarchig'ay	Tovus			Mirzoqush
	Qalog'(olaqarga)		Humo			Qaldirg'och
	Xod (kalxat)					Lochin
	O'rdak					G'oz
	Durroj					O'rdak
	Shoxboz					Zag'izg'on

Ushbu qiyosiy jadvaldan ko'rinib turibdiki, Hudhud qushlarga yo'lboshchilik qilib, ularni o'zini anglashga, nafsni jilovlay olishga haq visoliga yetishishga chorlaydi va bu yo'lda ularga yo'lboshchilik qiladi. Asarlarda keltirilgan majoziy va

ramziy qush obrazlari orqali turli xil darajadagi insonlarning Haq yo'liga kirishi tasvirlanadi. Demak, Hudhud haqiqat yo'lini zabt etib, me'roj safarini amalga oshirgan donishmand obrazidir.



Popishak qushining tabiiy ko'rinishi. 2-rasm.

Xulosa va takliflar. Hudhud obrazi o'zbek adabiyotida, balki turkiy va forsiy adabiyotda ham o'z o'rniga ega. Bu obrazning adabiyotga kirib kelish genezisi Qur'oni Karimning Naml surasiga borib taqaladi. Hudhud (popishak) qushining vafodorligi, zehni o'tkirligi, suvlikni uzoqdan ko'ra olish kabi biz yuqorida ta'kidlagan bilologik xususiyatlari Fariddun Attor, Gulshahriy, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy, Rizo, Omon Matjon asarlaridagi Hudhud obrazida badiiy jihatdan tasvirlanadi.

Haqiqat sari yo'lboshlovchi obraz: Hudhud qushi Fariddun Attorning "Mantiq ut-tayr", Gulshahriyning "Mantiq ut-tayr", Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr", Mavlono Xo'ja Qozi Payvandi Rizoyni "Qush tili" dostonlarida qushlarni nafsni yengib, Semurg' (O'loh) sari yetaklaydigan, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatadigan obraz sifatida gavdalanadi. Ushbu asarlarda

hudhud piri murshid, haqiqatga erishgan komil insonlarning ramzidir.

Xabarchi va diniy obraz: Qur'oni Karimda, Rabg'uziyni "Qissasi Rabg'uziy" asarida Hudhud obrazi Sulaymon alayhissalomga Sab'a yurti malikasi Bilqis haqida ma'lumot olib kelgan xabarchi qush sifatida tasvirlanadi.

Donishmandlik va aql ramzi. Hudhud ko'pincha tabiat va insonning ichki dunyosini bog'lab turuvchi, inson ruhining tub qirralarini aks ettiruvchi obraz sifatida gavdalanadi. Gulxaniyning "Zarbulmasal", Nishotiyning "Qushlar munozarasi" asarlarida donishmand insonlarning ramzi sifatida tasvirlanadi.

Riyokor zohidlar, xudbin shayxlar obrazi. Salohiyning "Gul va bulbul" asarida qilgan diniy amallarini ko'z-ko'z qiladigan, o'zini hammadan ustun sanaydigan shayxlar va zohidlarning majoziy obrazi.

ADABIYOTLAR

1. Sharipov Sharofiddin. "Lison ut-tayr" dostonining genezisi va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. – Toshkent. Fan, 1982. – B. 60.
2. Nishopuriy Fariddun Attor. Mantiq ut-tayr. Forsiydan Jamol Kamol tarjimai. – Toshkent: Fan, 2006. – B. 59.
3. Mamadaliyeva Zuhra. Alisher Navoiyning "Lison ut-tayr" dostonidagi ramziy obrazlar tizimi. Fil. f. n. diss. – T.: 2011. - B. 50.
4. Shayx Fariddun Attor. Bulbulnoma. Pandnoma. – T.: Fan, 2012.
5. Rumi Mavlono Jaloliddin. Masnaviyi ma'naviy. Forsiydan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjimai. –Toshkent: Meriyus, 2005. –B. 45.
6. Rabg'uziy Nosuriddin Burxoniddin. Qisasi Rabg'uziy. 2-kitob. –Toshkent: Yozuvchi, 1991. –B. 47.
7. Navoiy Alisher. Lison ut-tayr:(nasriy bayoni bilan). T.: G'afur G'ulom, 2005. – B. 31.
8. Mavlono Xoja Qozi Payvandi Riyoziy. "Qush tili". // Shafat Hasanova Riyoziyning "Qush tili" dostoni "Tezkor Press Print" Toshkent. 2009.
9. Gul va bulbul. Doston. Nashrga tayyorlovchi Surayyo Shodiyeva. – T.: Firdavs-shoh, 2023. B.88
10. Zarbulmasal. Gulxaniy. Nashrga tayyorlovchi H. Yoqubov. – T.: Ma'naviyat, 2016. B.10
11. Matjon Omon. "Ming bir yog'du". T.: G'afur G'ulom, 1998. B.25
12. Ali Yilmaz, Deh Murg Dervish Shemseddin Kuşları tartışması,
13. https://www.isam.org.tr/documents%5C_dosyalar%5C_pdfler%5Cislam
14. Qur'oni Karim. O'zbekcha izohli tarjima. Tarjima va izohlar muallifi: Shayx Alovuddin Mansur. – Toshkent: Cho'lpon: 2004. – B.148.



Muxayyohon NAJMIDDINOVA,
University of business and science o'qituvchisi
E-mail: muhayyonajmiddinova72@gmail.com

NamDPI dotsenti, psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD M.Badritdinova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF ADEQUATE DECISION-MAKING IN ADOLESCENT EXTERNEAL SITUATIONS

Annotation

In this article, the situations that are common in the society today, the management of their behavior in non-situational situations and the psychological mechanisms of adequate decision-making in adolescents were theoretically covered. In our current developing society, we can see that rapid development processes are observed in every aspect. This, in turn, requires an unconventional approach to the individual in various situations. The process of unconventional approach to unexpected situations requires thinking. If we take such psychological aspects into account in our work, not only in interpersonal relations, but also in our work, the work efficiency will increase, the psychological climate in the team will be positive among personnel, and the team environment will be healthy and positive in all aspects.

Key words: Adolescence, accentuation, adaptation, adequate, psychological defense mechanisms, motive, knowledge, skill, individual, extreme, paraextreme, neutral.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ АДЕКВАТНОГО ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ В ЭКСТРЕМАЛЬНЫХ СИТУАЦИЯХ У ПОДРОСТКОВ

Аннотация

В данной статье теоретически освещены ситуации, распространенные сегодня в обществе, управление своим поведением в неситуативных ситуациях и психологические механизмы принятия адекватных решений у подростков. В современном развивающемся обществе мы видим, что процессы быстрого развития наблюдаются во всех аспектах. Это, в свою очередь, требует нестандартного подхода к личности в различных ситуациях. Процесс нестандартного подхода к неожиданным ситуациям требует размышления. Если мы будем учитывать такие психологические аспекты в своей работе не только в межличностных отношениях, но и в самой работе, то эффективность труда повысится, психологический климат в коллективе будет положительным среди персонала, а атмосфера в коллективе будет здоровой и благоприятной. позитив во всех отношениях.

Ключевые слова: Подростковый возраст, акцентуация, адаптация, адекватный, механизмы психологической защиты, мотив, знание, умение, личность, крайний, параэкстремальный, нейтральный.

O'SMIRLARDA EKSTEREMAL VAZIYATLARDA ADEKVAT QAROR QABUL QILISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda jamiyatda ko'p uchrayotgan holatlar, o'smirlarda nosituativ vaziyatlarda o'zlarining xulq-atvorlarini boshqarishni va adekvat qaror qabul qilishning psixologik mexanizmlarini nazariy jihatdan yoritildi. Hozirgi rivojlanayotgan jamiyatimizda har bir jabhasida tezkorlik rivojlanish jarayonlari kuzatilayotganligini ko'rishimiz mumkun. Bu o'z navbatida shaxsga nisbatan turli vaziyatlarda qanday noan'anaviy yondashishni talab etadi. Shaxs kutilmagan vaziyatlarga noan'anaviy yondashish jarayoni albatta tafakkur qilishni talab etadi. Shunday psixologik jixatlarini o'z ish faoliyatimizda inobatga olsak shaxslararo munosabatlarda nafaqat ish faoliyatimizda ish samaradorligi oshadi kadrlar o'rtasida jamoada psixologik iqlim ijobiylashadi mana shunda jamoa muhiti har tomonlama sog'lom va ijobiy tashkil etiladi.

Kalit so'zlari: O'smirlik davri, aksentuatsiya, adaptatsiya, adekvat, psixologik ximoya mexanizmlari, motiv, bilim, ko'nikma, individual, eksteremal, paraeksteremal, neytral.

Kirish. Bugungi kunda jamiyatimizda turli yoshdagi kishilarning xulq-atvorlarini baxolash va ularning turli xildagi eksteremal vaziyatlarda o'zlarida psixologik ichki resurs topa olish imkoniyati qay darajada ekanligini bilish juda ahamiyatlidir. Bunday vaziyatlar ayniqsa o'smir yoshdagi bolalarda psixologik jarayonlar xar xil kuzatiladi. Bunda esa maktab o'quvchilariga insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati, doimiy ravishda paydo bo'ladigan yangi xavfli va favqulodda vaziyatlarda oqilona harakat qilish shakli sifatida xavfsiz xatti-harakatlarni o'rgatish zarurati dolzarbdir. Xavfsiz xatti - harakatlar deganda biz ichki va tashqi muhit omillari ta'siri ostida sub'ekt tomonidan amalga oshiriladigan o'zaro bog'liq harakatlar va harakatlar tizimini tushunamiz.

Muayyan vaziyatda odamning xatti-harakati, qoida tariqasida, ko'p motivli, ya'ni bir qancha sabablarga ko'ra yuzaga keladi. Inson uchun sub'ektiv ahamiyatga ega bo'lgan motiv eng samarali hisoblanadi, chunki u o'smirning harakatlari va harakatlariga shaxsiy ma'no beradi. O'qituvchilar o'quvchilarni o'quv materialining ahamiyatini ochib berish, shaxsiy hayotda

xavfsizlikka tayyorgarlik ko'rish zarurligini tushuntirish orqali xavfsiz xulq-atvorning mazmunli motivlarini aniqlashga va xavfsizlik sohasida yaxshi tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlarning misollarini tushuntirishga rag'batlantirdilar va yo'l-yo'riq ko'rsatdilar, xavfli vaziyatlarni muvaffaqiyatli bartaraf etish yo'llarini o'rgatadi. Qidiruv, ijodiy, muammoli xarakterdagi vazifalarning mazmuni o'quvchilarning xavfsizlik, kognitiv faollik va o'z-o'zini takomillashtirishga bo'lgan intilishini rag'batlantirishga qaratilgan. Talabalarning xavfsiz xulq-atvorni o'rgatishga bo'lgan munosabati asta-sekin salbiy yoki befarqlikdan ijobiy, shaxsiy ahamiyatga ega bo'lib o'zgardi.

10. Shermamatova S., Odiljonova M.. O'zbek va ingliz adabiyotida metaforalarning foydalanish tahlili. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 3(4), April, 2023.
11. Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. - Тошкент: Фан, 1990.
12. Мирзаева Н.Б. XX аср шеърятда метафорик образ муаммоси (Гарсиа Лорка ва Шавкат Раҳмон шеърятда мисолида): Филол. фан. докт...дисс. – Т., 2006. – Б. 7.
13. Эрназарова Г. Ҳозирги ўзбек шеърятининг медитатив табиати. Филол.фан. д-ри... дисс. автореф. – Тошкент, 2020. – Б. 27.



Nigina RASULEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti, PhD
E-mail: nigina1114@gmail.com

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti professori, f.f.d A.Mannonov taqrizi asosida

YANGI ASR XITOIY ILMIY FANTASTIK PROZASIDA ILM-FAN VA FANTAZIYANING O'ZARO BOG'LIQLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Yangi davr xitoy adabiyotidagi eng so'nggi tendensiyalardan biri bo'lgan "ilmiy fantastika" janri haqida fikr yuritilgan. Ilmiy fantastik romanlarda ilm-fan hamda fantaziyaning o'zaro aloqalari va uyg'unlikda namoyon bo'lishi holatlari hikoya qilingan.

Kalit so'zlar: Xitoy adabiyoti, ilm-fan, ilmiy fantastik proza, realism, fantaziya.

ВЗАИМОСВЯЗЬ НАУКИ И ФАНТАСТИКИ В КИТАЙСКОЙ НАУЧНО-ФАНТАСТИЧЕСКОЙ ПРОЗЕ НОВОГО ВЕКА

Аннотация

В статье рассматривается жанр «научная фантастика» — одно из новейших направлений в китайской литературе Нового времени. Научно-фантастические романы рассказывают истории о взаимодействии и гармонии науки и фантастики.

Ключевые слова: Китайская литература, наука, научно-фантастическая проза, реализм, фантастика.

THE INTERRELATIONSHIP BETWEEN SCIENCE AND FANTASY IN CHINESE SCIENCE FICTION PROSE OF THE NEW CENTURY

Annotation

This article discusses the "science fiction" genre, one of the latest trends in New Age Chinese literature. Science fiction novels tell stories about the interactions and harmony between science and fantasy.

Key words: Chinese literature, science, science fiction prose, realism, fantasy.

Kirish. Ilmiy fantastik romanlar Xitoy zaminida yaratilgan xudo, jinlar va maxluqlar haqidagi romanlardan (神魔怪谈小说) farq qiladi, "import qilingan mahsulot" sifatida ilmiy fantastik romanlar Xitoyga kirib kelganidan boshlab uzoq vaqt davomida ilmiy-ommabop romanlar bilan tenglashtirilgan. "Ilmiy-ommabop" degan nomlanish Sovet Ittifoqidan kelib chiqqan bo'lib, "ommabop ilmiy bilim" ma'nosini anglatadi, shu nuqtai nazardan, ilmiy fantastik romanlarning yaratilishdan kutilgan maqsad ilmiy bilim va ilmiy dunyoqarashni ommalashtirishdan iborat deb hisoblanadi. Bunday chegaralash, aslida, ilmiy fantastik romanlarning adabiy tabiati va klassik turini rad etishni nazarda tutadi. Zamonaviy ommaviy axborot vositalari kontekstida fantastik romanlar (玄幻小说) ham jadal rivojlanmoqda, ilmiy fantastikaning mustaqil janr sifatidagi ta'rifi esa hozirgacha noaniq deb ko'rinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Liu Cixin 刘慈欣 "Uch jism muammosi" 《三体》 romanida shunday ta'kidlagan: "Xitoyda har qanday noodatiy va jo'shqin g'oya darhol halokatga uchraydi, chunki voqelikning tortish kuchi juda og'irdir". Bu bayonot ma'lum darajada ilmiy fantastik romanlar Xitoyda keng tarqalgan adabiyot qatoriga hech kira olmasligi sababini tushuntirib bera olgandek ko'rinadi. XX asr oxirlarida ilmiy fantastik romanlar Xitoyga kirib kelganidan buyon, uning rivojlanishi ikki yo'lga bo'lingani sabab o'zaro farq qiluvchi ikki rivojlanish yo'li mavjud. Bir tomondan, Liang Qichao 梁启超 kabi islohot va qayta qurish tarafdori bo'lgan ziyolilar Xitoyning yangi va eski madaniyatining almashinuviga ko'proq e'tibor qaratishdi, u "Yangi roman" 《新小说》 jurnalida aytib o'tganidek, ilmiy fantastik romanlar ikki qismdan iborat bo'lishi kerak: chuqur falsafa va yangi fikrlash doirasi kabi. Ya'ni ilmiy bilim va o'zgacha hikoya qilish nuqtai nazarini izohlashi lozim. Aslida, Liang Qichaoning qarashlari o'sha davrdayoq keyinchalik esa G'arbning ilmiy fantastik romanlarida ilmiy bilim va mafkuraviy mazmunga teng urg'u berish talabini o'zida shakllantirishni boshlagan edi.[2] Bundan farq qiladigan boshqa yo'lda Lu Xun 鲁迅 kabi adabiyot orqali xalqni falokatdan qutqarmoqchi bo'lgan

ziyolilar ilmiy fantastik romanlarda ilm-fanning odamlar idrokini yorituvchi jihatiga ko'proq e'tibor berishadi, ma'rifatni tarqatish va idrokni yoritish uchun ilg'or ilm va texnika bilimlari xorijdan olib kirilishi va oddiy xalqqa yetib borishiga umid qilishadi, lekin u metafizik g'oyalarga urg'u bermaydi. Ko'rinib turibdiki, 1950-yillardan keyin Xitoy ilmiy fantastik romanlarining rivojlanish yo'li Lu Xun ko'rsatgan yo'nalish bo'yicha davom etdi, voqelik tobora ko'proq ulushni egalladi, falsafa esa faqat ilmiy fantastika janrining ba'zi mualliflarining ijodidagina mavjud bo'ldi.

Darko Suvin 达科苏恩文 rus formalizmi (俄国形式主义) va marksizm tanqididan (马克思主义批评) tajribaga ega bo'lib, ijodiy yo'l bilan ilmiy fantastikaning estetik tahlilini (科学美学分析) taklif qildi hamda "tajriba" va "fantastika" ni ilmiy fantastik matn tahlili muhokamasining diqqat markaziga aylantirdi.[10] Bu ikki unsur ajratuvchi chiziqli sifatida olinib, adabiyotni ikki toifaga bo'lish mumkin: biri voqelik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan va asosan hissiy kechinmalarni tasvirlaydigan naturalizm adabiyoti (自然主义文学), ikkinchisi esa tasavvur asosida tuzilgan va yozilgan mazmun voqelikdan ajralgan begonalashtiruvchi (陌生化) adabiyotdir. Uning demiliarizatsiya nazariyasi (陌生化理论) akademik hamjamiyat tomonidan keng qabul qilinadi, "kognitivlik" (认知性) ham Darko Suvinning ilmiy fantastika nazariyasining ichiga olingan tez-tez tilga olinadigan tushunchadir. "Afsonalar" (神话), "Xalq hikoyalari" (民间故事) va boshqalar defamiliarizatsiya mavzulari bo'lsa ham ularni ilmiy fantastik roman deb atash mumkin emas, chunki ilmiy fantastik roman kognitivlik bo'lmish muhim shartga ham ega bo'lishi kerak.[8] Realizm (现实主义) nuqtai nazaridan, naturalizm adabiyotini (自然主义文学) kognitivlik bilan birlashtirganda, bugungi kunda bizga tanish bo'lgan realizm adabiyoti (现实主义文学) yuzaga keladi.[4] Ijtimoiy kognitiv qonuniyatlarga zid borilganda, zamonaviy Amerika xalq adabiyoti (通俗文学) bilan ifodalangan kognitiv bo'lmagan realizm adabiyoti (非认知性现实主义文学) paydo bo'ladi. Defamiliarizatsiya nuqtai nazaridan, agar demiliarizatsiya kognitiv bo'lmagan adabiyot bilan

birlashtirilsa, bu voqelikka asoslanmagan fantaziya mavzusidagi romanlar, masalan, afsonalar, fantastik romanlar (奇幻小说) va boshqalar yuzaga keladi. Defamiliarizatsiya kognitivlik bilan birlashganda esa bizga tanish bo'lgan ilmiy fantastik roman (科幻小说) hosil bo'ladi.[5] Ushbu asos "defamiliarizatsiya" ni ilmiy fantastik romanning asosiy elementi sifatida ko'radi, kognitivlik esa ilmiy fantastika janrini boshqa demiliarizatsiya romanlaridan ajratib turadigan asosiy ajratish nuqtasidir. Kognitivlik matnga ishonchlikni ato etib, odamlarning voqelikdagi dunyoga nisbatan onglilikni uyg'otadi (唤醒认知), defamiliarizatsiya esa bu voqelikni asossizlantiradi, bu ikki birlashganda ilmiy fantastika o'quvchilarga olib keladigan go'zallikni o'ziga xos "begona go'zallik" ga aylantiradi. Bu begonalik kelajakka bo'lgan tasvir va tasavvurdan kelib chiqadi, bunday estetik tajribani yakunlash uchun o'quvchi tasavvurining

Dastlabki ilmiy fantastik romanlar Lu Xun 鲁迅 tomonidan belgilangan yo'nalish bo'yicha kundalik hayotga yo'nalgan va keng ommaga yetib borgan. Oddiy xalq hayotiga yaqin bo'lish uchun ko'plab ilmiy fantastik romanlarda ilmiy bilimlar tushunarli tilda ommaga tanishtirilgan va shu bilan ilmiy bilimlar jamiyatni inqilob qilish natijasiga erishish maqsad qilingan. Liang Qichao ham, Lu Xun ham ilmiy fantastik romanlar voqelikdan oshib ketishiga va Xitoyning rivojlanishi uchun tarixiy yo'l topishiga umid qilishgan hamda ilmiy fantastika janrining go'zalligiga hech qanday baho bermaganlar.[6] Ilmiy fantastik romanlarning rivojlanish jarayonida doimo voqelik va ilm-fan chegarasi, ya'ni defamiliarizatsiya va kognitiv nisbat o'rtasidagi ajratuvchi chiziq borasidagi bahs mavjud. "Ilmiy fantastika" matnlarni farqlashda asosiy unsur bu "fantastika" va "ilm" o'rtasidagi "ajralish chizig'i" bo'lib, turli davrlar va turli tanqidchilar tomonidan ilmiy fantastikaga berilgan ta'riflarni saralash uchun "ilmiy fantastika" chegarasini topishda katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy fantastik romanning paydo bo'lishi shundan iboratki, zamonaviy texnikaning paydo bo'lishi bilan insoniyat tarixda birinchi marta jamiyatda juda keskin o'zgarishlarga duch keldi, ilmiy fantastik roman ana shu zaminda vujudga kelgan adabiy shakldir." Bu ta'rif ilm-fan va texnologiya nuqtai nazaridan ilmiy fantastik roman va realizm adabiyoti o'rtasidagi farqni ajratib, ilmiy fantastik romanning paydo bo'lish sababini ham ko'rsatdi, ya'ni ilmiy fantastikaning paydo bo'lishi zamonaviy ilmiy darajaning jadal rivojlanishi sababli bo'lib, odamlar ilm-texnologiyaning rivojlanishiga nisbatan yo' havotir yo umid bilan yondashar, shu ilm va texnologiyaga bo'lgan fantaziya asosida nihoyat ilmiy fantastik romanlar yaratildi. Xitoy nazariya hamjamiyati odatda Azimovning fikriga nisbatan qo'shilib, ilmiy fantastikani adabiyotning kichik tarmog'i sifatida ko'rishadi va unda tasvirlangan hayoliy dunyo va voqelik o'rtasidagi eng katta farq texnologik rivojlanish darajasining har xilligida, deb hisoblashadi. Azimovning ilmiy fantastik romanga bergan ta'rifini o'rganganimizda shuni ko'rishimiz mumkinki, ilmiy fantastik roman fan va texnologiyaning jadal rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan katta ijtimoiy o'zgarishlardan kelib chiqqan bo'lib, uning mazmuni ilm va texnologiyaning rivojlanish darajasiga bo'lgan fantaziya dan ildiz olgan, uning dastlabki boshlanish nuqtasi uydirma qilingan fantaziya emas, balki ilm-fandir. Azimov nuqtai nazaridan, biz, ehtimol, ilmiy-fantastik romanni quyidagicha ta'riflashimiz mumkin: u ilmiy masalani romanning asosiy maqsadi sifatida olmaydi, balki ilm-fanni obyekt va g'oya sifatida qabul qiladi. Bunday ta'riflash ilmiy fantastik romanni "xudolar va jinlar haqidagi romanlar" dan ajratib turadi, chunki ilmiy voqelik ilmiy fantastik romanning tamal toshi hisoblanadi.

G'arbda ilmiy fantastik romanning rivojlanish tarixiga nazar tashlasak, uni taxminan uch bosqichga bo'lish mumkin:

Ilmiy fantastik romanlar XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida ilmiy afsona bosqichida boshlangan. Bu bosqich namoyandalari Edgar Allan Po va Meri Shelli 爱伦坡、玛丽雪莱 bo'lib, asarlar ilmiy bilimlar bilan bezatilgan holda g'ayrioddiy syujetga urg'u beradi, ulardan Meri Shellingning "Frankenshteyn" (弗兰肯斯坦) asari shoh asar hisoblanadi. [1]

Ikkinchi bosqich namoyandalari Azimov va Lyuis 阿西莫夫、刘易斯 hisoblanadi. Bu bosqichda ilmiy fantastik

romanlar ko'ngil ocharlik hamda ilmiylik xususiyatlariga ega bo'lib, biznes sohasida juda katta muvaffaqiyatga erishdi. Bu bosqich hozirgi ilmiy fantastik romanlarning shakllanish va rivojlanish davri edi. Ilmiy fantastik romanlarda dastlabki davrda faqat syujetga ahamiyat berilgan bo'lsa, bu davrdagi ilmiy fantastika janri yozuvchilari ilmiy fantastik romanlarning chuqur g'oyaviy mohiyatiga e'tibor bera boshladilar, Ilmiy fantastik romanlarni tajriba maydoni sifatida olib kelajakdagi dunyoni tasvirlash orqali voqelikka bo'lgan hujumni ifodalashni boshlashdi. Ulardan "1984" va "Ajib yangi dunyo" 《美丽新世界》 asarlari eng yaxshi asarlar hisoblanib, birinchisi totalitarizmi tanqid qilsa, ikkinchisi iste'molchi jamiyatning gedonizm ta'limotini va ilm-fanning inson tabiatiga bo'lgan bosimini tanqid qiladi.

Uchinchi bosqich postmodern ilmiy fantastik romanlar davri bo'lib, g'arb sanoatining rivojlanishi, postmodernizm tanqidiy tanqidiy adabiyot nazariyasining rivojlanishi hamda fanlararo adabiy ijod amaliyoti ta'sirida ilmiy-fantastik romanlar har qachongidan ham ko'proq tanqidiy vazifalarni bajardi. "Postmodernizm romani" 《后现代主义小说》 kitobida Brayan MakKeyl 布赖恩·麦克黑尔 hattoki postmodern davrida faqat ikkita roman uslubi, ya'ni postmodernizm romani va ilmiy fantastik roman mavjud, deb hisoblaydi va ilmiy fantastik romanlarni asosiy romanlar bilan teng maqomga ko'taradi.

Tahlil va natijalar. Ilmiy faktlardan tashqari, ilmiy fantastik romandagi fantastika unsuri ham juda muhimdir. Ilmiy fantastik romandagi fantastik mazmun ikki jihatga ega. Bir tomondan, bu fan va texnologiya rivojlanishi borasidagi fantaziya bo'lib, bunday mazmun mavjud fan va texnologiya taraqqiyoti darajasiga asoslanadi, xuddi ba'zi yozuvchilarning ilmiy fantastikaga bergan ta'rifi kabi, ilmiy fantastikaning maqsadi "muallif yashagan davrda amalga oshirilishi mumkin bo'lmagan ishlarni yozishdir". [3] Boshqa tomondan, bu kelajakdagi texnologik taraqqiyot darajasining insoniyatga qanday ta'sir qilishi haqida taxmin qilish bo'lib, bunday fantastik mazmuni ham voqelikdagi dunyoda yashovchi odamlarning psixologik darajasi, xulq-atvori paradigmaları va hokozalardan ajralmasdir. Ko'pchilik ilmiy fantastik roman texnologiyadagi yangi o'zgarishlarni bashorat qilishi mumkinligiga ishonishadi, chunki ilmiy fantastik romanlarda tasvirlangan ko'plab sahnalar bizning hayotimizda haqiqatan ham paydo bo'ldi, lekin ilmiy fantastik romanlarning voqelikka aralashuvi "yangi texnologiyalar" va "yangi ixtirolar" bilan cheklanib qolmay, fantaziya shaklida zamonaviy ijtimoiy muammolar va insoniyatning psixologik holati haqida fikr yuritishni ham o'z ichiga olishi ko'proq uchraydi. Ilmiy fantastik romanlarning sayoz matni ostida asar yozilgan davrdagi jamiyat, xattoki davrdagi fan va texnologiyaga bo'lgan qarash yashiringandir. "Ilmiy fantastikaning yangi tarixi: ilmiy fantastika tadqiqotlari" 《科学史·科幻研究》 da, Jiang Syaoyuan 江晓源 hatto ilmiy fantastik romanga ilm-fanning bir qismi sifatida qarashni xohlaydi, chunki hozirda ilmiy fantastik romanlarda tasvirlangan narsalar juda aql bovar qilmaydigan ko'rinsa-da, lekin tarixda biz ko'p marotaba mavjud bo'lgan kognitiv daraja bilan cheklanganmiz, biz noto'g'ri deb hisoblagan ilmiy bilimlar keyinchalik to'g'ri deb tan olindi. Uning fikricha, mavjud ilm-fan tarixi bu bugungi kunda bizning fikrimizcha to'g'ri bo'lmagan mazmunni ajratib tashlagan "sof" ilm-fan tarixidir.

Masalan, Ye Yongliening 叶永烈 "Syao Lingtong kelajakka sayri" 《小灵通漫游未来》 asarida tilga olingan "gapira oladigan kichik quti", odamlarning qarigan organlarni almashtira olishi kabilar hozir hayotga aylangan mobil aloqa tarmog'i va ilg'or tibbiyotga ishora qiladi. [7] Ilmiy fantastika janri yozuvchilari ilm va texnologiyadan oldinda yurib, tasavvur kuchidan foydalangan holda o'quvchilarni uzoq vaqt va makonga yetkazish orqaligina kelajak kelishidan avval o'quvchilar texnologiya va ilmiy fantastika sehrini his qilishlariga zamin yaratadilar.

Ilmiy unsur ilmiy fantastik romanlarning janr belgisi sifatida qaralib, ilm-fan uydirmanini voqelikka aylantiradi, shu sababli ilm-fan ilmiy fantastika paydo bo'lishining asosi hisoblanadi, ilmiy fantastika ilmiy nazariyaga asoslanishi shartdir. Biroq, ilmiy fantastikadagi fantaziya unsurining nisbati ham adabiy tanqidchilar o'rtasida bahs-munozaralarga sabab

bo'lmoqda. Djen Venguan 郑文光 "Ilmiy-fantastik romanlari haqida suhbat" 《谈谈科学幻想小说》 kitobida ta'kidlagan: "Bu aslo ilmiy-fantastik romanlar kelajakda insoniyatning ishlab chiqarish faoliyati va hayotining eng to'g'ri bashoratidir degani emas. ... Asosiy ilmiy tamoyillarni buzmaslik sharti bilan yozuvchilar asarlarida o'z tasavvurlarini to'liq ifodalashi, xohish-istaklari va hatto dohiyona farazlarini qo'shishlari mumkin." Djen Venguan ta'riflari aslida ilm-fanni sehrdan ajratib turuvchi asosiy unisurni oshkor qildi, ya'ni sehrli yoki fantastik matnlarda, sehrgarlik yoki abadiy hayot qonunlariga (仙法) o'xshash narsa fantaziya olamini boshqarib qoidalarni ijro etadi.

Xulosa va takliflar. Yangi asr Xitoy ilmiy fantastik prozasida ilm-fan va fantaziya bir-birini to'ldiruvchi muhim unsurlar sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, Liu Cixin 刘慈欣 kabi yozuvchilarning asarlarida ilmiy nazariyalar va futuristik g'oyalar tasavvurni kengaytiruvchi, innovatsion yondashuvni shakllantiruvchi vosita sifatida qo'llaniladi. Xitoy adabiyotida ilmiy fantastika janri G'arb ilmiy fantastikasidan farqli ravishda, Sharq madaniyati va falsafasi bilan uyg'unlashgan holda rivojlanmoqda. Asarlarda kvant mexanikasi, kosmologiya, sun'iy

intellekt, ekologik muammolar kabi mavzular ilmiy haqiqat va badiiy tasavvurlar orqali tasvirlanmoqda. Natijada, bu janr nafaqat kitobxonni o'yga soluvchi hikoyalarga boy bo'ladi, balki ilmiy tafakkurni ham rag'batlantiradi.

Ilmiy asosni mustahkamlash- Xitoy ilmiy fantastikasida fan va texnologiyaga asoslangan g'oyalar ustunlik qilayotgan bo'lsa-da, bunday asarlarning ilmiy jihatdan ishonchligini ta'minlash uchun yanada chuqur ilmiy izlanishlar talab etiladi. Fantastik tasvirlarni ilmiy haqiqat bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning ilmga bo'lgan ishonchini oshiradi.

Ijtimoiy va falsafiy yondashuvni kengaytirish- Xitoy ilmiy fantastik asarlarida jamiyatning kelajagi, insoniy qadriyatlar va texnologiya ta'siri masalalari chuqurroq o'rganilishi kerak. Chunki texnologik taraqqiyot faqat ilmiy taraqqiyot bilan emas, balki ijtimoiy o'zgarishlar bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Ilmiy fantastik adabiyot yoshlarni ilm-fanga qiziqitirishning samarali vositalaridan biridir. Shuning uchun Xitoy ilmiy fantastik asarlari maktab va universitet dasturlarga kiritilishi, yosh yozuvchilar va olimlar o'rtasida hamkorlik rivojlantirilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. 吴岩. 科幻文学的中国阐释[J]. 南方文坛, 2016.6:27.
2. 孔庆东. 中国科幻小说概说[J]. 渤海师范学院学报, 2003, 19(3):38.
3. 方红. 《奥蕾克斯与克雷克》:一部后现代科幻小说[J]. 外国文学研究, 2006.5:106.
4. 冯鸽. 中国科幻小说的精英叙事-以王晋康的生死平衡为中心[J]. 苏州教育学院学报. 2017.4(34).
5. 舒伟. 从《西方科幻小说史》看多丽丝·莱辛的科幻小说创作[J]. 当代外国文学, 2008.4.
6. 王卫英, 张懿红. 20 世纪中国科幻小说创作的本土化进程[J]. 贵州社- 60 参考文献会科学, 2008(06).
7. 刘柯论刘慈欣《三体》及对阿瑟·克拉克的接受[J]. 外国文学研究, 2016.2
8. 尹传红. 中国科幻百年 (中) [J]. 中国科技月报, 2000(4).
9. 乔治·马丁. 我喜欢《三体》, 它很可能获雨果奖[EB/OL]. [2019.3.2] https://www.guancha.cn/culture/2015_05_08_318806.shtml.
10. 吴岩. 吴岩: 科幻现实主义和科幻未来主义将长期并存[EB/OL]. [2018-12-28] https://www.cdsm.cn/theme/khsj/khxx/khcb/201812/t201812_28_903636.html.



UDK: 81`27: 81`373.7

Malika RUSTAMOVA,

Doctoral student at Samarkand state institute of foreign languages

E-mail: ciaoamarcanda@gmail.com

Reviewer: University of Tashkent for Applied Sciences, department of foreign languages, associate professor, Sh. Bobojonova

O'ZBEK VA ITALYAN FRAZEOLIGIZMLARIDA IJOBIY VA SALBIY EMOTSIYALARNING IFODALANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va italyan tillarida emotsional holatlarni ifodalovchi frazeologik birliklarning o'rni, shakllanishi va lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ijobiy va salbiy emotsiyalarni aks ettiruvchi frazeologizmlarning semantik, strukturaviy va funksional jihatlari o'rganiladi. O'zbek va italyan frazeologizmlari o'rtasidagi o'xshashlik va tafovutlar lingvomadaniy nuqtayi nazardan tahlil qilinib, ularning milliy mentalitet va madaniyat bilan bog'liqligi yoritiladi. Tadqiqot natijalari ushbu ikki tilning frazeologik tizimidagi emotsional ifoda shakllarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Frazeologizmlar, emotsionallik, ijobiy va salbiy emotsiyalar, lingvomadaniy tadqiq, o'zbek tili, italyan tili.

ВЫРАЖЕНИЕ ПОЛОЖИТЕЛЬНЫХ И ОТРИЦАТЕЛЬНЫХ ЭМОЦИЙ В УЗБЕКСКИХ И ИТАЛЬЯНСКИХ ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ

Аннотация

В данной статье анализируется роль, формирование и лингвокультурные особенности фразеологических единиц, выражающих эмоциональные состояния в узбекском и итальянском языках. В ходе исследования изучаются семантические, структурные и функциональные аспекты фразеологизмов, передающих положительные и отрицательные эмоции. Сходства и различия между узбекскими и итальянскими фразеологизмами рассматриваются с лингвокультурной точки зрения, а также выявляется их связь с национальным менталитетом и культурой. Результаты исследования способствуют более глубокому пониманию форм выражения эмоций в фразеологической системе этих двух языков.

Ключевые слова: Фразеологизмы, эмоциональность, положительные и отрицательные эмоции, лингвокультурное исследование, узбекский язык, итальянский язык.

EXPRESSION OF POSITIVE AND NEGATIVE EMOTIONS IN UZBEK AND ITALIAN PHRASEOLOGY

Annotation

This article analyzes the role, formation, and linguocultural characteristics of phraseological units that express emotional states in Uzbek and Italian. The study examines the semantic, structural, and functional aspects of phraseological expressions that convey positive and negative emotions. The similarities and differences between Uzbek and Italian phraseological units are analyzed from a linguocultural perspective, highlighting their connection to national mentality and culture. The findings of the study contribute to a deeper understanding of the ways emotions are expressed in the phraseological systems of these two languages.

Key words: Phraseology, emotionality, positive and negative emotions, linguocultural study, Uzbek language, Italian language.

Kirish. Til inson tafakkuri va madaniyatining aksidir. Unda xalqning tarixi, turmush tarzi va dunyoqarashi mujassam topgan. Frazeologik birliklar esa tilning eng boy va mazmunan chuqur qatlamlaridan biri bo'lib, ular orqali xalqning emotsional holatlari, hissiy tajribalari va madaniy qarashlari ifodalanadi. Har bir xalqning o'ziga xos hissiyati va emotsional dunyoqarashi uning frazeologiyasida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, o'zbek va italyan tillaridagi ijobiy va salbiy emotsiyalarni aks ettiruvchi frazeologizmlarni tadqiq qilish lingvistika va madaniyatshunoslik uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Frazeologik birliklar kommunikativ jarayonda nafaqat ma'no uzatish, balki muayyan hissiy holatni ham aks ettirish vazifasini bajaradi. Ular tilning obrazlilik, ta'sirchanlik va ifodaliylik xususiyatlarini kuchaytiradi. Ayniqsa, ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar odamlarning kundalik nutqida keng qo'llaniladi va nutqiy uslubni boyitadi. Masalan, o'zbek tilida ko'ngli tog'dek ko'tarildi yoki ko'ngli vayron bo'ldi kabi iboralar insonning hissiy holatini aniq ifodalasa, italyan tilida essere al settimo cielo (yettinchi osmonda bo'lish – juda baxtli bo'lish) yoki avere il cuore spezzato (yuragi sinish – chuqur qayg'uga tushish) kabi frazeologizmlar emotsional ekspressiyani kuchaytiradi.

O'zbek va italyan tillaridagi emotsional frazeologizmlarni lingvomadaniy nuqtayi nazardan o'rganish ushbu tillarning o'ziga xos jihatlari aniqlashga va ularning xalq hayoti hamda milliy mentalitet bilan bog'liqligini tahlil qilishga imkon beradi. Mazkur tadqiqot orqali ushbu ikki til frazeologizmlarining o'xshashlik va tafovutlari aniqlanib, emotsional ifodalarning milliy-madaniy xususiyatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Frazeologik birliklarni tadqiq etish lingvistika, madaniyatshunoslik va psixolingvistika doirasida muhim yo'nalishlardan biri sanaladi. Frazeologizmlarning emotsional ifoda vositasi sifatida o'rganilishi ko'plab tilshunoslardan tomonidan keng yoritilgan. Shu jumladan, G. X. Obruyeva [9] va Y. Nurmuhammedov [8] o'zbek tilidagi frazeologizmlarning tarkibiy va semantik xususiyatlarini tadqiq qilib, ularning emotsional ifodalash quvvati haqida muhim ma'lumotlar taqdim etgan. A. E. Mamatov [4] o'zbek tilidagi frazeologizmlarning shakllanishi va lingvistik normalari haqida ilmiy izlanishlar olib borgan.

Italyan tilida frazeologizmlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini o'rganish tadqiqotchilar qatorida A. Cattaneo [1] va M. T. Loporcaro [3] kabi olimlarni ko'rsatish mumkin. Ularning tadqiqotlarida italyan frazeologizmlarining madaniy asoslari va ularning ekspressiv funksiyalari chuqur tahlil qilingan. Bundan tashqari, emotsional frazeologizmlar madaniyat va xalq mentaliteti bilan uzviy bog'liq ekanligi V. A. Maslova [7] va R. Lakoff [2] tomonidan ham o'z izlanishlarida tasdiqlangan.

O'zbek va italyan tillarida ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar bo'yicha qiyosiy tadqiqotlar yetarlicha chuqur o'rganilmagan. Shunday bo'lsa-da, umumiy frazeologik xususiyatlar va emotsional ifoda vositalari haqidagi ilmiy manbalar ushbu maqolaning nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ushbu tadqiqotda tasviriy va qiyosiy-tahliliy metodlardan foydalanildi. Frazeologizmlarning emotsional funksiyalarini chuqur o'rganish maqsadida, avvalo, deskriptiv tahlil usuli qo'llanilib, o'zbek va italyan tillarida ijobiy hamda salbiy

emotsiyalarni ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik va strukturaviy xususiyatlari o'rganildi. Keyinchalik, qiyosiy tahlil yordamida ushbu frazeologizmlar o'zaro solishtirilib, ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Frazeologizmlarning madaniy kontekst bilan bog'liqligini tahlil qilish uchun lingvomadaniy yondashuv qo'llanildi. Bu esa xalq mentaliteti, tarixiy an'ana va ijtimoiy omillar frazeologizmlar tarkibiga qanday ta'sir ko'rsatganini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot davomida ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarning qo'llanilish chastotasi va ularning umumiy tizimdagi o'zni statistik usul yordamida baholandi. Ushbu metodlar asosida o'zbek va italyan tillaridagi frazeologik birliklarning emotsional va lingvomadaniy jihatlari mukammal tahlil qilindi.

Natijalar tahlili va muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek va italyan tillarida emotsional frazeologizmlar xalqning milliy mentaliteti, tarixiy tajribasi va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar semantik, strukturaviy va funksional jihatdan farq qilsa-da, ularning asosiy vazifasi inson hissiyotlarini chuqur ifodalashdan iborat.

O'zbek va italyan tillaridagi ijobiy emotsional frazeologizmlar quvonch, baxt, qoniqlik va ruhiy yuksalish holatlarini aks ettiradi. Masalan, o'zbek tilidagi ko'ngli tog'dek ko'tarildi yoki baxtdan boshi osmonga yetdi iboralar insonning ichki ruhiy holatini ifodalash uchun ishlatiladi. Xuddi shu ma'noda italyan tilida essere al settimo cielo (yettinchi osmonda bo'lish) iborasi qo'llaniladi [1]. Ushbu frazeologizmlar semantik jihatdan yaqin bo'lsa-da, ularning tasviriy unsurlari milliy madaniyat va dunyoqarash bilan bog'liq. O'zbek tilida ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar ko'pincha ko'ngil, yurak, ko'z kabi inson tana a'zolari bilan bog'liq bo'lib, ular orqali hissiy holatlar tasvirlanadi. Masalan, ochiq ko'ngil, yurakdan qilmoq kabi iboralar insonning ichki dunyosini ifodalashda keng qo'llaniladi. Bu iboralar o'zbek madaniyatida insonning ichki hissiyotiga alohida e'tibor berilishini ko'rsatadi. Italyan tilida esa ijobiy emotsiyalar ko'pincha tabiat, kosmos va diniy tasavvurlar bilan bog'liq. Misol uchun, essere al settimo cielo (yettinchi osmonda bo'lish) iborasi diniy va kosmik tasavvurlar asosida shakllangan bo'lib, bu italyan madaniyatida yuqori darajadagi baxtni ifodalash uchun ishlatiladi. Bu farq har ikki tilning madaniy kontekstdagi qarashlari va metaforik asoslari bilan bog'liqdir [3].

Salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar ham o'zbek va italyan tillarida keng uchraydi. O'zbek tilida ko'ngli vayron bo'ldi yoki yuragi siqildi kabi iboralar insonning qayg'u, tushkunlik va umidsizlik holatlarini ifodalash uchun ishlatiladi.

Xuddi shu ma'noda italyan tilida avere il cuore spezzato (yuragi sinish) yoki essere giù di morale (ruhiy tushkunlikka tushish) kabi iboralar salbiy emotsiyalarni chuqurroq va dramatik tarzda ifodalaydi [7].

Funksional jihatlaridan ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar ikkala tilda ham nutqiy uslubni boyitish va hissiy ta'sirchanlikni oshirish vazifasini bajaradi. O'zbek tilida ko'zlari porladi (juda xursand bo'lish) kabi iboralar nutqga jo'shqinlik va hayajon kiritadi. Italyan tilida esa avere le stelle negli occhi (ko'zlarida yulduzlar bo'lish) iborasi orzu va umidni ifodalashda keng qo'llaniladi. Salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar esa odatda tashvish, qayg'u va hasratni tasvirlash uchun ishlatiladi. O'zbek tilida joni azobda (qattiq tashvishli bo'lish) iborasi insonning ruhiy holatini chuqur ifodalaydi. Italyan tilida esa essere giù di morale (kayfiyati past bo'lish) iborasi ruhiy tushkunlikni tasvirlashda qo'llaniladi.

Frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili shuni ko'rsatadiki, har ikki til o'ziga xos emotsional tasvirlarga ega bo'lsa-da, ularning aksariyati umumiy psixologik va ijtimoiy omillarga asoslanadi. Masalan, baxt va quvonch holati har ikki tilda ham yuksalish, osmonga chiqish kabi tasvirlar orqali ifodalansa, tushkunlik va qayg'u aksincha, yiqilish, sinish yoki qorong'ilik kabi metaforalar bilan bog'liq bo'ladi [9]. Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, o'zbek va italyan frazeologik tizimlarida emotsional ifodalar milliy mentalitetga bog'liq bo'lsa-da, ular umumiy insoniy tajribaga asoslanadi. Misol uchun, avere il cuore in pace (yurak tinch bo'lish) va o'zbek tilidagi ko'ngli hotirjam bo'lmoq iborasi diniy va ruhiy tinchlikni ifodalaydi.

Tadqiqot davomida o'zbek va italyan tillarida ijobiy va salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarning qo'llanilish chastotasi statistik usul yordamida baholandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'zbek tilida ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarga nisbatan ko'proq qo'llaniladi. Italyan tilida esa salbiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlar ijobiy emotsiyalarni ifodalovchi frazeologizmlarga nisbatan biroz ko'proq qo'llaniladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'zbek va italyan tillaridagi frazeologik birliklar emotsional holatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ijobiy va salbiy emotsiyalarni aks ettiruvchi frazeologizmlar ikkala tilning ham lingvomadaniy xususiyatlarini ochib beradi. O'zbek tilida insonning ichki dunyosi va hissiyotlari asosiy o'rin tutsa, italyan tilida esa tabiat, kosmos va diniy tasavvurlar keng o'rin tutadi. Bu farqlar ikkala xalqning madaniy, tarixiy va ijtimoiy kontekstlariga bog'liqdir. Tadqiqot natijalari frazeologizmlarni o'rganish orqali madaniyatlararo tushunishni oshirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Cattaneo A. Italian Phraseology: Semantic and Pragmatic Aspects. Milan: Lingua Press; 2012. p. 250.
2. Lakoff R. The role of metaphor in language and thought. J Pragmat. 1993;20(3):213-245.
3. Loporcario MT. Language and Emotion in Italian Expressions. Rome: Cultural Linguistics Journal; 2018. p. 198.
4. Mamatov AE. Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari. Tashkent; 1991.
5. Mamatov AE. O'zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. Tashkent; 1997.
6. Mamatov AE. O'zbek tilida frazeologizmlarning shakllanishi masalalari. Tashkent: O'TA; 2001. (3-son).
7. Maslova VA. Cultural Linguistics and Phraseology. Moscow: Language & Culture Press; 2004. p. 315.
8. Nurmuhamedov Y. Frazeologiyani dolzarb masalalari. O'quv-uslubiy qo'llanma. Samarqand: SamDCHTI; 2022. p. 90.
9. Obruyeva GX. Frazeologiyani dolzarb masalalari. Samarqand: SamDCHTI; 2023.



UDK:811.512.133

Dildora SALIMOVA,

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-mail: furqatovnadildor@gmail.com

f.f.d, prof. Y. Saidov taqrizi asosida

BOLALARNING SIFAT SO'Z TURKUMIDAGI SO'ZLARNI O'ZLASHTIRISHI BO'YICHA PSIXOLINGVISTIK TADQIQOTLAR TAHLILI

Аннотация

Ushbu maqola bolalar tomonidan sifat so'z turkumini o'zlashtirish, sifatning o'zlashtirilishini belgilovchi asosiy omillarni ochib beruvchi tadqiqotlar tahlilini taqdim etadi. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar asosida bolalarning so'z o'zlashtirish jarayonini rivojlantirishga oid ma'lumotlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Sifat, ot, fe'l, nutq, so'z o'zlashtirish, psixolingvistika, bolaga qaratilgan nutq.

ANALYSIS OF PSYCHOLINGUISTIC STUDIES ON CHILDREN'S ACQUISITION OF WORDS IN THE ADJECTIVE CATEGORY

Annotation

This article presents an analysis of research that reveals the main factors determining children's acquisition of adjectives as a part of speech. Additionally, based on studies conducted on this topic, information is provided on developing children's word acquisition processes.

Key words: Adjective, noun, verb, speech, word acquisition, psycholinguistics, child-directed speech.

АНАЛИЗ ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ ПО УСВОЕНИЮ ДЕТЬМИ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ

Аннотация

В данной статье представлен анализ исследований, раскрывающих основные факторы, определяющие усвоение детьми качественных прилагательных. Также на основе проведенных по этому вопросу исследований приводятся сведения о развитии процесса усвоения слов детьми.

Ключевые слова: Прилагательное, существительное, глагол, речь, усвоение слов психоллингвистика, речь обращенная к детям.

Kirish. Tilshunoslik va psixolingvistika negizida paydo bo'lgan psixolingvistika sohasi til va inson ongi o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi.

Psixolingvistikaning diqqat markazida individ va kommunikatsiya turadi. Unga ko'ra, so'zlovchi nutqni yuzaga chiqarar ekan, o'zi o'ylagan niyatini ma'lum qoidalar asosida aniq tilning nutq birliklariga uzatadi. Tinglovchi nutqni qabul qilar ekan, nutq ifodalarning tashqi shaklida o'z aksini topgan ma'noni chiqarib oladi[1]. Til o'zlashtirish- til qobiliyatini tabiiy va ongsiz ravishda egallash jarayonini ifodalovchi termindir. Bu jarayon bolalarning tabiiy va ixtiyorsiz ravishda til qobiliyatiga ega bo'ladigan davrni anglatadi. Til egallash – til o'zlashtirish va til o'rganish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu ikki tushuncha bir-biridan farlanadi. Til o'zlashtirish ona tilini o'zlashtirish va chet tilini o'zlashtirish jarayonlarini qamrab oladi.

Birinci tilni o'zlashtirish- bolalarning ona tilini o'zlashtirish jarayonini anglatadi. Ikkinchi tilni o'zlashtirish- bu insonlarning ona tiliga qo'shimcha tarzda ikkinchi tilni o'zlashtirishni ta'riflash uchun ishlatiladigan atamani anglatadi. Bu atama shuningdek, ona tilini o'zlashtirgandan keyin har qanday tilni o'rganishni ta'riflash uchun ham qo'llaniladi. Til o'zlashtirish inson uchun tabiiy jarayon hisoblanadi. Shunga qaramay, til o'zlashtirish jarayonining shakllanishida atrof-muhit ham muhim rol o'ynaydi. Insonlar til o'zlashtirish qurilmasi bilan tug'ilganlari uchun til o'rganishga moyil bo'ladilar, bu esa ularga boshqalar bilan gaplashish imkonini beradi[2]. Til o'zlashtirishda bolalar o'z fikrlarini ifodalashda qiyinchiliklarga duch keladilar. Bu nutq organlari hali to'liq rivojlanmaganligi sababli, ular o'ylagan narsani to'g'ri ifodalamasliklarida namoyon bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqning miya qobiliyati atrof-muhitga ehtiyoj sezadi. Ular sekin-astalik bilan ota-onalari, yaqinlari va tevarak atrofdagi ovozlarga moslasha boradi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Ilmiy adabiyotlarda bola nutqining rivoji tasnifida yosh asosiy mezon sifatida qaralmaydi, bolaning nutqida so'zlar muayyan yoshning qaysi oyidan boshlab, ya'ni bir yoki bir yarim yoshdan ko'rinsa

boshlashi emas, balki nutqiy birliklar rivoji muhim ahamiyat kasb etishiga binoan belgilanadi. Quyida bola nutqi rivoji bosqichlari berildi:

G'uldirlash(bu bosqichda bola tovushlarni talaffuz qiladi). So'z sifatida qabul qilinadigan bo'g'inlar.

So'z

So'z birikmasi

Turlangan/tuslangan so'zlar.

Bo'lishsiz va so'roq strukturalar.

Murakkab konstruksiyalar.

To'liq nutq[3].

Har bir inson kundalik faoliyatida tildan mulqot vositasi sifatida foydalanadi. Chaqaloqning birinchi til bosqichi yig'lashdir. Yig'lash haqiqiy nutq faoliyati bo'lmasa ham bolalar yig'lashni his- tuyg'ularini ifodalash uchun instinktiv ravishda amalga oshiradilar. Keyingi bosqich g'urg'urash nomi bilan atalib, 6 haftalik chaqaloqlarda kuzatiladi. Bu yoshda chaqaloqning nutq organi til yaratish uchun yetarlicha rivojlanmagan bo'ladi. G'uvillash bu – chaqaloq oyoqlarini harakatlantirish orqali o'z mushaklarini avtomatik tarzda kuchaytirganda hosil bo'ladigan tovushdir. Bu paytda yaratilgan tovushlar ko'pincha lablar yoki tishlar yordamida hosil qilinadi [2]. Shuning uchun hosil bo'lgan tovushlar “ma-ma”, “di-di”, “ba-ba” tarzida ifodalanadi. 8 oylikdan boshlab chaqaloqlar chug'urash bosqichiga o'tishadi. Bu bosqichda go'daklar intonatsiyadan ham foydalana boshlaydi, bunda ohang ko'tarilishi kuzatiladi. Oldingi bosqichlardan farqli tarzda bu bosqich eshitish organining me'yorda ishlayotgani yoki yo'qligini ko'rsatadi. Shu sababli eshitishda nuqsoni bor bolalar bu bosqichdan o'tishmaydi. Keyingi bosqich “bir so'zli ifoda” deb atalib, bu davrda bolalar predmet nomi bilan bog'liq 1-so'zlarni ayta boshlaydilar[2]. Shu paytdan boshlab chaqaloqlar miyada til rivojlanishi natijasida tanish so'zlarni ayta boshlaydilar. Ular nimani gapirayotganlarini tushuna boshlaydilar va o'zlariga tanish narsalarga taqlid qilishga harakat qiladilar. Masalan, “vov-vov” deb itni yoki “miyov” deb mushukni ataydilar. Bolalar so'zning

haqiqiy ma'nosini tushunmasdan turib kattalarga taqlid qilgan holda so'zlarni talaffuz etishadi. Bu hola kattalar tomonidan ularga so'zning asl ma'nosi tushuntirish ularning til o'zlashtirish jarayonidagi yordam berishning eng yaxshi usulidir.

Bolalar so'z bilan ishlashni boshlaydilar. Ular so'z turkumlarini ikki jihatga ko'ra aniqlashadi: so'zlarning umumiy xususiyatiga tayanib, ularni shaxs, narsa, joy yoki harakatga ajratishadi hamda bir vaqtning o'zida shu so'zning qachon va qaysi vaziyatda aytilishiga e'tibor berishadi. Dastlab so'z tarkibidagi qo'shimchalar farqlanmaydi, ular so'z sifatida qabul qilinadi. [3]. Nutqning o'sishi jarayonida so'z turkumlaridan otlar tez o'zlashtiriladi. Otlardan so'ng fe'l va sifatlar egallanadi[4]. 2 yoshdan boshlab bola ot va fe'llarni to'g'ri tartibda saqlab qolishga intiladi, lekin bog'lovchi va so'zlarni bir-biriga bog'lovchi vositalarni tushirib qoldiradi. Bolalar sifat so'z turkumidagi so'zlarni ot va fe'llardan so'ng o'zlashtira boshlaydi. Sifatlar tushunchalarni tavsiflash va farqlash uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq ular boshqa so'z turkumlariga nisbatan uzoqroq rivojlanish jarayoniga ega[5]. Sifatlarning o'zlashtirilish tartibi nafaqat ularning chastotasi, balki konseptual murakkabligi bilan ham belgilanadi. Turli tillarda bolalar dastlab aniq xususiyatlarni ifodalovchi sifatlarini mavhum otlarga nisbatan qo'llaniladigan sifatlariga nisbatan kam qo'llaydi. Masalan, shirin olma shirin tush.

M. Sodiqovanning o'zbek tili sifat kategoriyasining ilmiy tahliliga bag'ishlangan monografiyasida sifatning ma'no turlari, yasallishi, darajalari ilmiy asosda o'rganiladi. Datlabki tekshirish olib borgan ko'p turkologlar turkiy tillar sistemasida sifatlarning alohida so'z turkumi ekanligiga shubha bilan qarashgan.

Predmet, holat, hodisa va ish-harakatning turli-tuman o'ziga xos konkret hamda abstrakt belgilari bo'ladi. Bunday belgilar normal va shu normallikka nisbatan ortiq yoki kam, past yoki baland bo'lishi mumkin. Belgining bunday xususiyatlari sifatning daraja formalari yordamida ifodalanadi[6]. Bir qator tillarga xos omillar ham sifatlarini o'zlashtirishning rivojlanish qonuniyatlariga ta'sir qiladi. Masalan, daraja shakllari kam tillarda (golland) bir xil ma'no (kuchaytirish) ko'plab shakllar bilan bog'liq bo'lgan tillarga qaraganda tezroq o'zlashtiriladi. Sifatlarini bilish tilni tushunish va ishlab chiqishning markaziy tarkibiy qismidir. Sifatlar bolalar lug'atini nomlashdan tashqari, obyektlarni tavsiflash, o'zgartirish va farqlash uchun muhim grammatik sinfdir. 30 oylik bolalarning lug'atida odatda 50 ga yaqin sifat so'z turkumidagi so'zlar bo'lsa-da, bolalar taxminan 4 yoshgacha sifatlardan moslashuvchan foydalana olmaydilar[5]. Bu esa sifatning boshqa so'z turkumlariga nisbatan keyinroq o'zlashtirilishini anglatadi.

Shunga o'xshash fikrni Yakubinskiy ham aytgan: "Ot va sifat o'rtasida grammatik jihatdan dastlab hech qanday farq sezilmaydi. Har ikkala grammatik kategoriya ham ot turkumidan kelib chiqadi, ya'ni biri predmet nomini anglatasa, ikkinchisi belgi nomini anglatadi[6;4]

Natijalar va muhokama. Sifatlar tilni tushunishda nisbatan murakkab so'z turkumi hisoblanadi. Masalan, sifatning ma'nosi u o'zgartiruvchi otga bog'liq. Bu nisbiylik "kichik mashina" va "kichik fil" kabi subyektiv sifatlarini talqin qilishda ishtirok etadigan turli xil shakllarni ko'rib chiqayotganimizda namoyon bo'ladi. Shuningdek, "yaxshi kun", "yaxshi ovqat" va "yaxshi ish" o'rtasidagi ma'no diapazonida ham ko'rinadi. Sifatlarini o'zlashtirishda semantik tushunchani leksik belgi bilan bog'lash vazifasi grammatik kategoriyalarning lingvistik bilimlariga ot yoki fe'llarni o'zlashtirishdan ko'ra ko'proq bog'liq bo'lishi mumkin. Sintaksis va semantika interfeysi nuqtai nazaridan, ingliz tili kabi tillarda sifat ko'pincha otdan oldin kelgani uchun, sifatning xususiyati ot eshitilishidan oldin qayta

ishlanishi va saqlanishi kerak. Bolalar obyektlarning nomlarini ko'plab turdagi sifatlardan, masalan, ranglardan oldin o'rganishini hisobga olsak, sifatlarini postnominal freymga, masalan, "o'g'il bola kichkina" deb joylashtirish, avvalo, bolaning e'tiborini yaxlit muhitdan keyingi sifatni qayta ishlashga tayyorgarlik ko'rish uchun maxsus referentga qaratadi. Yoshida va Hanania (2013) ingliz tilida so'zlashuvchi ikki yoshli bolalar yangi sifatlarini ularning xususiyatlariga xaritalashda, ular ma'lum otdan keyin kelganda, yoki undan oldin kelganiga qaraganda ko'proq muvaffaqiyatga erishishini qayd etadi. Bundan tashqari, ikki yoshlilarning sifat tushunishi "Bu qalam qizil" kabi postnominal, predikativ freymlar bo'yicha mashg'ulotlardan so'ng sezilarli darajada yaxshilanadi[5]. Tribushinina va boshqa tilshunolar bolalar tomonidan sifatlarning qo'llanilishi ota-onalar nutqidagiga mos kelishini aniqladilar. Masalan, Kreyn-Toreson, Dahlin, & Pauell, (2001); Hoff-Ginsberg, (1991); Noble, Cameron-Faulkner, & Lieven, (2017), Montag, Jones, & Smith, (2015); Kameron-Faulkner & Noble, (2013). Murphy & Jones, (2008) kabi tadqiqotchilar ilmiy kuzatuvlarida sifat so'z turkumining xususiyatlari, bu turkum so'zlarining bolalar tomonidan o'zlashtirilishi bilan bog'liq jihatlarini tadqiq etishdi.

Boshqa so'z turkumi ham belgi ifodalaydi. Ammo sifat barqaror va turg'un belgi ifodalashi jihatidan ulardan ajralib turadi. Masalan, Gul-qizil deganda turg'un (statik) belgi namoyon bo'lgan. Sifat anglatadigan belgi boshqa turkum anglatadigan belgidan xususiyati bilan farqlanadi. Masalan, qizg'ish – qizil – qip – qizil. Boshqa turkum anglatuvchi belgida esa bunday xususiyat yo'q[7]. Tribushinina bolalar tilidagi sifatlar haqida ko'plab foydali ma'lumotlar beradi. Tadqiqotchi so'nggi tadqiqotlardan olingan empirik ma'lumotlar asosida sifatlarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarni tushuntirishga harakat qiladi. U sifatlarning o'zlashtirish murakkab ekanligini ularning nutqda nisbatan kam uchrashi, ko'pincha mavhum ma'nolarga egaligi, otlarga bog'liq bo'lishi va ularni o'rganish ong nazariyasini talab etishi kabi sabablar bilan izohlaydi. Shuningdek, u sifatlar turli yoshdagi o'rganuvchilar uchun muammoli hisoblanishini va ular ot va fe'llarga qaraganda kechroq o'zlashtirilishini ta'kidlaydi. Sifatlar kommunikativ jihatdan muhim, chunki ular odamlar, narsalar va hodisalarning xususiyatlarini tasvirlaydi. Bular jismoniy idrok etiladigan xususiyatlar (masalan, qizil, yumshoq) yoki ichki holatlar (masalan, xafa, xursand) va baholash (masalan, yaxshi, zerikarli) kabi mavhumroq xususiyatlar bo'lishi mumkin. Shunga qaramay, sifatlar turli o'rganuvchilar guruhlar uchun haqiqiy qiyinchilik tug'dirishi haqida ko'plab dalillar mavjud. Bolalar nutqida sifatlar ot va fe'llarga qaraganda keyinroq paydo bo'ladi: Bolalar taxminan 12 oyligida birinchi so'zlarini ayta boshlaydilar, hayotning ikkinchi yilida bolalar nutqida ba'zan sifatlar uchraydi, lekin bolalar 1 yosh 8 oylikkacha sifatlarini yuqori sur'atda o'rganishni boshlamaydilar. Biroq, hatto 3 yoshli bolalar ham yangi sifatlarini xususiyatlarga moslashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Turli tillarni o'zlashtirayotgan bolalarning uzoq muddatli kuzatuv tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolaga qaratilgan nutqda (BQN) sifat belgilari barcha so'z belgilarining atigi 2-6 foizini tashkil etadi. Bolalar nutqida sifat chastotalari 2 va 3 yosh oralig'ida tez o'sadi va taxminan 3 yoshda kattalar darajasiga yetadi. Ota-onalar ham bolaning yoshi o'sishi bilan sifatlardan ko'proq foydalana boshlaydilar [10].

Xulosa. Sifatlar obyektlarni tavsiflash va farqlash uchun juda muhim so'z turkumi bo'lib, ot va fe'l turkumiga nisbatan kechroq o'zlashtiriladi. Sifat so'z turkumidagi so'zlarning o'zlashtirilishiga oid aniq ma'lumotlar olish uchun ko'proq tadqiqotlar o'tkazilishi kerak. Bu tadqiqotlar sifatning shakli, so'z ma'nosining rivojlanishi, atrof –muhit omillariga bog'liq psixolingvistik jihatlarini bilan birga o'rganilishi lozim.

ADABIYOTLAR

1. Usmanova Sh., Shamsiyeva Sh. Psixolingvistika. –Toshkent,2022. –B.188.
2. Vivi Velanitta. 2020. Language perception and language production in early childhood: language acquisition. Journal of English Language Teaching and Learning (JETLE) 1(2):19-27 DOI:10.18860/jetle.vli2.8003
3. Саидрахмедова О. И. Табный тартиб гипотезасининг ўзбек тили учун талкини. Фил. фан. бўйича фал. док. ...дисс. автореф. –Ташкент,2021 .-496.
4. Сайидирахимова Н. Мактабгача ёшдаги ўзбек болалар нутқининг лингвистик хусусиятлари. Филол.фан.номз...дисс.–Ташкент, 2004. – Б.117.

5. Davies, C., Lingwood, J. and Arunachalam, S (2020) Adjective forms and functions in British English child-directed speech. *Journal of Child Language*, 47(1). pp. 159-185. ISSN 0305-0009 <https://doi.org/10.1017/S0305000919000242>
6. Sodiqova M. *Hozirgi o'zbek tilida sifat*. –Toshkent, 1974.
7. Sayfullayeva R. va boshqalar. *Hozirgi o'zbek adabiy tili*. –Toshkent, 2009. –B. 237.
8. Tribushinina Elena (2017), Do degree adverbs guide adjective learning cross-linguistically? A comparison of Dutch and Russian. *Linguistics* 55(4), 899-933.
9. Tribushinina Elena, Voeikova Maria & Noccetti Sabrina (eds.) (2015), *Semantics and Morphology of Early Adjectives in First Language Acquisition*, Newcastle upon Tyne, Cambridge Scholars Publishing.
10. Tribushinina Elena, Van den Bergh Huub, Ravid Dorit, Aksu-Koç Ayhan, Kilani-Schoch Marianne, Korecky-Kroll Katharina, Leibovitch-Cohen Iris, Laaha Sabine, Nir Bracha, Dressler Wolfgang U. & Gillis Steven (2014), Development of adjective frequencies across semantic classes: A growth curve analysis of child speech and child-directed speech, *Language Interaction and Acquisition* 5, 185-226.



Durdona SULTANOVA,

The teacher is a trainee of the Gulistan State Pedagogical Institute

E-mail: abulnasovadurdona@gmail.com

Based on the review of Doctor of Pedagogy, Associate Professor D. Jabborova

LINGUISTIC ASPECTS OF METAPHOR AND METONYMY

Annotation

The article addresses the issues related to the cognitive essence of metaphor and metonymy. The author gives a brief review of studies on metaphor and metonymy, stresses the continuity of different paradigms in the exploration of these phenomena, reveals the dynamic character of metaphorization and metonymization, points out and describes the common and differential features which help to distinguish these cognitive phenomena.

Key words: Metaphor, metonymy, mental space, conceptual integration, change of focus.

METAFORA VA METONIMIYANING LINGVISTIK JIHATLARI

Annotatsiya

Maqola metafora va metonimiyaning kognitiv mohiyati bilan bog'liq masalalarga bag'ishlangan. Muallif metafora va metonimiya bo'yicha tadqiqotlarning qisqacha sharhini keltiradi, ushbu hodisalarni o'rganishda turli paradigmalar uzviylikini ta'kidlaydi, metaforizatsiya va metonimizatsiyaning dinamik xarakterini ochib beradi, ushbu kognitiv hodisalarni farqlashga yordam beruvchi umumiy va farqlovchi xususiyatlarni aniqlab, tavsiflaydi.

Kalit so'zlar: Metafora, metonimiya, mental makon, konseptual integratsiya, diqqatni o'zgartirish.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ МЕТАФОРЫ И МЕТОНИМИИ

Аннотация

Статья посвящена вопросам, связанным с когнитивной сущностью метафоры и метонимии. Автор дает краткий обзор исследований по метафоре и метонимии, подчеркивает преемственность различных парадигм в изучении этих явлений, раскрывает динамический характер метафоризации и метонимизации, выделяет и описывает общие и дифференциальные признаки, которые помогают различать эти когнитивные явления.

Ключевые слова: Метафора, метонимия, ментальное пространство, концептуальная интеграция, изменение фокуса.

Introduction. Despite the truly huge number of works devoted to metonymy and metaphor (see the review in (Oparina 2000)), the interest of researchers in studying these phenomena does not weaken, but rather increases: their specificity in various types of discourse, their cultural conditioning, their pragmatic potential, their ability to influence our perception and assessment of events are considered etc. At the same time, many issues related to the study of metaphor and metonymy continue to be debatable. In our opinion, one of such controversial issues is the issue of a clearer differentiation of these processes.

Materials and methods. Issues related to the commonality and difference of metaphor and metonymy have been considered by many researchers (Lakoff, Johnson 2004; Paducheva 2004; Kövecses 1998; Panther 2003; Ruis de Mendoza Ibáñez 2003; Ungerer, Schmid 1996, etc.), whose works consider both the commonality and the differences between these processes. However, differentiations of these phenomena are still out of the field of view of researchers.

The processes of metaphorization and metonymization are among the basic cognitive mechanisms that ensure the conceptualization and categorization of objects and phenomena of the external and internal human world. Considering the cognitive foundations of linguistic categorization, J. Lakoff introduces the concept of idealized cognitive models (ICMS), understanding them as special cognitive entities that underlie language categories, and identifies four types of such ICMS: propositional, defining the nature of the elements of the category, their properties and relationships between them; image-schematic models reflecting the main figurative representations that form categorical classes; metaphorical models that allow us to represent some abstract area by identifying it with another area, usually more specific and accessible to empirical observation; metonymic models that act together with the first three and ensure the transfer of characteristics of one element of the set to the entire set (Lakoff 1987: 68-76).

Results and discussion. Obviously, it is the importance of the processes of metaphorization and metonymization for the conceptualization and verbalization of phenomena of the external and internal world that explains the place occupied by the study of metaphor and metonymy at all stages of the development of linguistics, despite the fact that at different stages of this development, the focus of research, in accordance with the dominant paradigm of the era, were different aspects of these complex and multifaceted phenomena.

The origins of the theory of metaphor and metonymy, as well as many linguistic theories, lie in ancient teachings. The theory of metaphor was born in the depths of rhetoric, which considered metaphor primarily as a means of influencing the audience. It was Aristotle who raised the question of the heuristic possibilities of metaphor. Considering metaphor in the context of rhetoric as a technique of oratorical and poetic art, he at the same time drew attention to the logical mechanism of metaphor, i.e. the mechanism that underlies the ability of metaphor to express knowledge about the world, i.e., speaking in modern metalanguage, to participate in the processes of conceptualization. He also expressed an important idea about the need for a metaphorical nomination, emphasizing that before the metaphorical name in the language there was no exact nomination of the described concept. Aristotle also goes back to establishing the relationship between metaphor and comparison, metaphor is defined by him as an abbreviated or hidden comparison (Aristotle, 1978).

The works of A.A. Potebnya also made a significant contribution to the development of the theory of metaphor (namely, its conceptual essence). Discussing with Aristotle and Gerber about the possibility of rearranging the members of a proposition in a metaphor, A.A. Potebnya writes that such a rearrangement would be possible if the language of science and poetry did not reflect the direction of the processes of cognition – from the previously known to the new, unknown (e.g. with the

description of the essence of conceptual metaphor in the works of J. Lakoff and M. Johnson) (Potebnya, 1990).

It should be recognized that the conceptual areas of the source and purpose, which serve as the basis for describing the cognitive essence of metaphor in the Lakoff-Johnson theory, appear as formed, static formations, which somewhat limits the applicative potential of this theory to describe the processes of generating new meanings and creating author's metaphors in the process of metaphorization. This limitation has been overcome in the works on conceptual integration, which represent a further development of the cognitive theory of metaphor. A distinctive characteristic of the theory of conceptual integration, the main provisions of which are presented in the works of J. Fauconnier, M. Turner, E. Sweetser (Fauconnier & Turner 1998; Sweetser & Fauconnier 1996, etc.), is that it focuses on the creative, dynamic nature of the process of meaning generation in general and metaphorization in particular.

The theory of conceptual integration is based on the concept of mental space, which is not a static, but a dynamic entity. Mental spaces are not given in advance, but represent packages of information that arise on-line in the process of comprehension, conceptual processing of a past or current situation based on existing knowledge. The process of conceptual integration involves the interaction of four mental spaces: two initial spaces, a common space (created as a result of their intersection based on common features) and a combined, integral space, the so-called blend, which, in fact, is the result of conceptual integration. The advantage of this theory is that it represents the process of metaphor formation, as well as the process of meaning formation in general, as dynamic entities. As N.K. Ryabtseva emphasizes, the concept of conceptual integration is fundamentally important for the language as a whole, since the language itself is integral, syncretic, and ambiguous (Ryabtseva, 2005). O.K. Iriskhanova, noting the great explanatory potential of this theory, indicates that it can be used in the study of the semantics of syntactic constructions, phraseological units, the construction of artistic texts, and various stylistic techniques (Iriskhanova, 2000).

It should be emphasized that, despite the presence of a conventional metaphor, which is based on a stable association of a graceful woman with a swan, this metaphor is the author's, generated in this text. Her individuality lies primarily in the fact that, unlike the existing conventional metaphor based on the comparison of a woman with a swan and having positive connotations, this metaphor also includes negative connotations that are clearly present in the combination to swallow Coca-Cola. In addition, this metaphor, as it seems to us, carries a certain culturally specific flavor, which is indirectly indicated by such details as the loudness of her husband's belch, emphasizing the place and purpose of a woman in China at that time, as well as swan feather – a swan feather, indirectly associated with lightness, weightlessness oriental women.

The consequence of a kind of metaphorological boom was that, firstly, the study of metonymy from a cognitive perspective was somewhat postponed in time, and, secondly, that some cases of transfer of meaning of an obviously metonymic nature began to be described as metaphorical. So, for example, when considering cases like Ten dollars later... some researchers attribute them to varieties of conceptual metaphor (Gileva, 2002) based on the basic metaphorical model of TIME IS MONEY. Of course, there is a certain temptation to treat these cases as metaphorical, but then how to consider such cases when the units of measurement of time are not the names of monetary units, but the names of other entities, such as: He put on an apron and began to peel. One potato later, Sheila mentioned:

"Evelyn called" (E.Segal) or a thousand years ago, when I was a lonely child... (A.Sexton), which is clearly not reducible to a mathematical model, TIME IS MONEY.

It seems to us that there are much more reasons to consider these cases as metonymic in their basis, i.e. based on the adjacency transfer of "an action occurring in time, an object of an action occurring in time" → "a unit of measurement of time", i.e.

an event, object or other entities associated with an action occurring in time can become units of measurement of time, as K. once demonstrated. Vonnegut in the classic phrase "When I was a young man – two wives ago, 250,000 cigarettes ago, 3,000 quarters of booze ago" (Vonnegut K.).

Based on the above, we believe that the essential difference between metaphor and metonymy is that for metonymy, a shift in focus of attention is essential, and for metaphor, the presence of common features, on the basis of which a combined, integral space – blend is formed. In the process of metaphorization, two mental spaces are involved, having a common feature, on the basis of which an integrated space underlying the metaphor is created. In this regard, metaphor turns out to be much closer to comparison, which is also based on the conceptual integration of two different mental spaces, which allows us to consider metaphor and comparison as members of the same cognitive category (Fludernick, Freeman & Freeman, 1999). The mental processes involved in the process of metonymization occur "on the territory" of one mental area, within the framework of which the refocusing of attention takes place. The result of such refocusing, which occurs at the mental level, at the linguistic level, is the saving of linguistic resources, a kind of semantic ellipsis, when time, place, object and other characteristics become signs of the event itself. Thus, metonymy as a mental operation acts as a way of cognitive economy, focusing the main thing, which also distinguishes it from metaphor, which is not related to economy.

Conclusion. Let's summarize what has been said. Metaphor and metonymy, as cognitive operations and as semantic processes taking place in the field of linguistic semantics, are characterized by both elements of similarity and difference. Their similarity lies in the fact that they:

- a) are fundamentally cognitive;
- b) increase the resources of our consciousness and language;
- c) they can be both conventional and individual, creative in nature and have significant pragmatic potential;
- d) are explained in the theory of semantics in terms of transfer, or shift of meaning.

The difference between metaphor and metonymy is that:

- a) for metonymy, a shift in the focus of attention is essential, and for metaphor, the presence of common features, on the basis of which a combined, integral space is formed – a blend;
- b) metaphor is based on the interaction of two mental spaces, metonymy as a cognitive operation takes place within the boundaries of one mental space;
- c) at the mental level, metonymy is associated with the principle of cognitive economy, and at the linguistic level – with a kind of semantic ellipsis; metaphor is not related to economy;
- d) at the linguistic level, metaphor is primarily associated with a noun, the metaphorization of the verb occurs through an associative connection with the subject of an action called a verb; metonymy can take place both in the sphere of nouns and verbs, while the verb is metonymized independently, due to the operation of shifting the focus of attention.

In conclusion, it should be recognized that, despite these differences, metaphor and metonymy may in some cases overlap, overlap each other, which makes their differentiation quite difficult. Such cases often occur in the field of linguistic representation of temporal and spatial relations, which is primarily due to the complexity of the nature of the relationship between the basic concepts of SPACE and TIME, as well as in the field of linguistic representation of emotions. The facts of crossing the boundaries between metaphor and metonymy indicate the continuity of our thinking and the diffuse boundaries between different mental processes.

Figurative and expressive means of speech play an important role in the study of modern Russian language. They add vividness to speech, enhance its emotional impact, and draw the reader's or listener's attention to the statement (Sultanova D, 2024).

REFERENCES

1. Fauconnier G., Turner M. Conceptual Integration Networks // *Cognitive Science* 1998. №22. P. 133–187.
2. Fludernik M., Freeman D.C., Freeman M.H. Metaphor and Beyond // *Poetics Today* 1999, 20. 3. P. 383–396.
3. Kövecses Z. Metonymy: Developing a Cognitive Linguistic View // *Cognitive Linguistics* 1998, #9-10. P. 37–77.
4. Lakoff, G., *Women Fire and Dangerous Things. What Categories Reveal about the Mind*. Chicago and L.: The University of Chicago Press, 1987.
5. Panther K.U. Introduction: on the Nature of Conceptual Metonymy // *Metonymy and Pragmatic Inferencing*. Amsterdam and Philadelphia: Benjamins 2003. P. 1–20.
6. Ponterotto D. Metaphors We Can Learn by: How Insights from Cognitive Linguistic Research Can Improve the Teaching/Learning of Figurative Language // *English Teaching Forum*, vol. 32. Number 3. July 1994. P. 2–8.
7. Ruis de Mendoza Ibáñez F.J. The Role of Mappings and Domains in Understanding Metonymy // *Metaphor and Metonymy at the Crossroads: a Cognitive Perspective* / Ed. by A. Barcelona. B. and N.Y.: Mouton de Gruyter, 2003. P. 109–132.
8. Алексеева Л.М. Метафоры, которые мы вы-бираем // *Слововыюязыку*. М.; Воронеж: Во-ронеж. гос. ун-т, 2002. С. 288–298.
9. Аристотель Сочинения: в 4 т. Т. 2. М.: Мысль, 1978.
10. Арутюнова Н.Д. *Язык и мир человека*. М.: Языки русской культуры, 1998.
11. Султанова Д. А. Роль изобразительно-выразительных средств в русском языке. // *Ilm-ma'rifat nashriyoti*, 2024. URL: https://scholar.google.ru/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=LhpU0foAAAAJ&citation_for_view=LhpU0foAAAAJ:W7OEmFMylNYC



Kamola TOJIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi

Xorijiy til va adabiyoti kafedrası mudiri, F.f.n., dotsent X.Sarimsokov taqrizi asosida

O'ZBEK TILI IQTISODIY - MOLIYAVIY SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING VUJUDGA KELISH DAVRIY KETMA-KETLIGI

Annotatsiya

Mazkur maqolada, bizgacha yetib kelgan tarixiy manbaalarni o'rganish natijasida, jamiyatda muhim o'rin egallagan pul, xisob-kitob asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar bir necha asrlar avval paydo bo'lib, yillar davomida rivojlanib kelayotganligini ko'ramiz. Iqtisodning tarkibiy qismi bo'lgan moliya-budjet, g'azna, soliq, boj sohaslarida to'g'ri siyosatni amalga oshirish jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri xisoblanadi. Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham iqtisodiy-moliyaviy terminlarining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o'z tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganligi va bu haqida ma'lumotlar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar: Ulus, yog'iy, diram, bojgir, sarrof, shig'ovul, xazinabon, muknat, musamman, mushtariy.

THE PERIODIC SEQUENCE OF OCCURRENCE OF LEXICAL UNITS RELATED TO THE ECONOMIC AND FINANCIAL SPHERE OF THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

In this article, as a result of studying the historical sources that have come down to us, we see that economic relations based on money and accounts, which occupy an important place in society, appeared several centuries ago and have been developing for years. The implementation of the right policy in the areas of finance and budget, treasury, tax, and customs, which are components of the economy, is considered one of the important factors determining the development of society. As in other languages, the formation, formation, and development of economic and financial terms in the Uzbek language has gone through its own historical development path, and information about this is reflected.

Key words: Ulus, yogiy, diram, bojgir, sarrof, shigovul, xazinabon, muknat, musamman, mushtariy.

ПЕРИОДИЧЕСКАЯ ПОСЛЕДОВАТЕЛЬНОСТЬ ПОЯВЛЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ЭКОНОМИЧЕСКОЙ И ФИНАНСОВОЙ СФЕРЕ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

Аннотация

В данной статье в результате изучения дошедших до нас исторических источников мы видим, что экономические отношения, основанные на деньгах и расчетах, занимающие важное место в обществе, возникли несколько столетий назад и развивались на протяжении многих лет. Проведение правильной политики в сфере финансов, бюджета, казначейства, налогов и таможи, являющихся составными частями экономики, является одним из важных факторов, определяющих развитие общества. Как и в других языках, формирование, становление и развитие экономических и финансовых терминов в узбекском языке шло своим историческим путем развития, и сведения об этом отражены.

Ключевые слова: Улус, ягий, дирам, сборщик налогов, меняла, шигауул, казначей, мукнат, мусамман, муштари.

Kirish. Hammaga ma'lumki, ona zaminimizda dunyo fani va madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan ulug' allomalar yetishib chiqqan. VIII-IX asrlardayoq Bag'dodda "Baytu al hikma" (Donishmandlar uyi) deb atalmish fanlar akademiyasi, oradan birmuncha vaqt o'tib, 1010 yilda Ma'mun akademiyasi tashkil etilgan. Mazkur akademiyada butun dunyo ahlini lol qoldirgan buyuk kashfiyotlar qilingan. Lekin ajdodlarimizdan qolgan boy ma'naviy merosini, ayovsiz bosqinlar sababli, hamma vaqt ham to'liq va asl holda saqlab qolishning imkoni bo'lmagan. Natijada barcha sohalar singari tilshunoslik va terminologiya sohasining rivojida ham o'ziga hos pasayishlar kuzatildi. Aksariyat sohalarning ilmiy-nazariy bilimlari Yevropa olimlari nomlari bilan bog'lab kelindi. Bugungi kunga kelib, iqtisodiy-moliyaviy terminlarning shakllanishi va tarkib topish tarixini, ularning mazmun-mohiyati, o'tmishda qanday leksik birliklar bilan nomlanganligini ilmiy manbalar asosida o'rganib, ilmiy jihatdan tadqiq etishning muhimligini hayotning o'zi tasdiqlamoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarixdan ma'lumki, ayni vaqtda adabiy til nuqtai nazaridan eskilik bo'yog'iga ega bo'lgan so'zlar eski qatlamni tashkil etadi. Ushbu qatlamga oid so'zlar asosiy farqli xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi.

1. Tarixiy so'zlar (istorizmlar): ma'lum davrlarda bor bo'lgan narsa vaqtlar o'tishi bilan hayot taqozosiga ko'ra yo'q bo'lib ketish hodisasi nomi istorizmlar deyiladi. Tadqiqotimiz natijasida bu kabi so'zlar orasida sohaga oid leksik birliklar borligi aniqlandi, jumladan, bojgir-bojxonachi; sarrof-pul

almashtiruvchi, yirik pullarni maydalovchi; shig'ovul-elchilarni xon qabuliga olib kiruvchi mansabdor shaxs; xazinabon- iqtisodiy masalalar bilan bog'liq saroy amaldori.

2. Arxaizmlar: bugungi kunda mavjud bo'lgan narsa - xodisalarning eskirib iste'moldan chiqqan, ammo o'z ekvivalenti va sinonimiga ega bo'lgan so'z yoki atamalar xisoblanadi. Masalan, ulus (xalq), yog'iy (dushman), diram (tanga) kabilar [10].

Tadqiqot metodologiyasi. Biz avvalgi maqolalarimizda ingliz tili iqtisodiy-moliyaviy terminologik tizimining bosib o'tgan rivojlanish hamda takomillashish bosqichlarini ko'rib chiqdik. Endi esa mamlakatimizda paydo bo'lgan iqtisodiy-moliyaviy terminlarning tarixiy-genetik ildizlari haqida faktik-analitik ma'lumotlarni keltirishni joiz deb bilamiz.

O'zbek tilida mavjud manbalarga razm solsak, iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarning qo'llanishi Maxmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk", Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul- Xaqoyiq", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", shayx Sulaymon Buxoriyning "Bado'-l-ul lug'at", Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoni", "Hayrat ul-abror", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Xaziriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" va boshqa ko'pgina mutafakkirlar asarlarida o'z ifodasini topgan. Lekin manbaalarni tartibga solishda, sport leksik birliklarining chog'ishtirma tadqiqi ustida ilmiy izlanishlar olib borgan olim X.A. Sarimsokov keltirgan tadrijiy tarixiy davrlar jadvali asosida (unga o'zgartirishlar va to'ldirishlar kiritgan holda) tasnif qilishni joiz deb topdik.

jadval

Iqtisodiy- moliyaviy leksik birliklar taraqqiyotining tarixiy davrlari
(o'zbek tili tarkibida)

№	DAVRLAR	YILLARI	YOZMA MANBAALAR
1	Xalq og'zaki ijodi davri	Yozma adabiyotlarga bo'lgan davr	"Go'ro'g'li" dostoni "To'maris", "Shiroq", "Jamshid haqida", "Ardivisura Anaxta haqida"
2	Arab istilosi davri	632 - 1258 y.y.	Abu Ali Ibn Sino "Qonun"
3	Qoraxoniylar davri	999 - 1141 y.y.	"Devonu lugati-t-turk" "Turk tillarining navviga oid gavxarlar"
4	Mo'g'ul istilosi davri	1220 - 1368 y.y.	"At-tuhfatuz zakiyati fil-lug'atit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa", qisqacha "At-tuhfa")
5	Temuriylar davri	1370 - 1512 y.y.	"Temur tuzuklari", "Muhokamat ul-lug'atayn", "Farxod va Shirin" dostoni, "Xazoyin ul- Maoniy G'aroyib us- sig'ar", "Boburnoma"
6	Xonliklar davri	1512 - 1920 y.y.	"Anjum at-tavorix" ("Tarix yulduzlari"), "Shajarai tarokima", "Shajarai turk"
7	Chor rossiyasi va sobiq sho'rolar davri	1870 - 1991 y.y.	Chor Rossiyasida iqtisodiy tuzum

Tahlil va natijalar. Yuqorida berilgan jadvaldan Temuriylar davri (1370-1512y.y.) tarixini tahlilga tortishni joiz deb bildik:

Temuriylar davri. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'zbek tilshunosligi tarixida temuriylar davrining ahamiyati beqiyosligi bilan ajralib turadi. A. Temurning hukmronligi davrida ilm-fan, madaniyat, san'at gullab yashnadi va turkiy (o'zbek) tilining fors tili bilan teng darajaga chiqishiga shart-sharoit yaratib berdi. Bu davrga kelib savdo-sotiqning shakllanishi soha leksik birliklarining umumiste'moldagi so'zlardan termin sifatida ajrala boshlashiga turtki bo'ldi. Hozirgi kunda milliy-ma'naviy merosimizga aylangan "Temur tuzuklari" asarining o'zida savdo-sotiq va iqtisodga oid quyidagi yuzga yaqin tarixiy so'zlardan foydalanilganini guvohi bo'lamiz. Masalan:

1. Bilmansur Temur, saltanat ishlarida to'rt narsaga amal qilgin, ya'ni; 1) kengashi; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat'iy qaror, tadbirkorlik va xushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. (A. Temur. "Temur tuzuklari": b.15)

2. Tajribamda ko'rdimkim, ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va xushyor bir kishi, ming minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir. (A. Temur. "Temur tuzuklari": b.15)

3. Shu asnoda, Tug'luk - Temurxonga xabar keltirdilarkim, uch fajv amirlari, yerlik xalqdan naqd pul va shvrunlar olib, ular bilan kelishmishlar. Xon shu ondayoq mol-mulk va naqd pullarni odam tayin qildi..... (A. Temur. "Temur tuzuklari": b.19)

4. Xiroj - yer solig'i uchun va umuman daromad solig'i uchun qo'llanilgan istilox; ayrim holda daromadning uchdan birini tashkil etgan; "mol" deb ham atagan. (A. Temur. "Temur tuzuklari": b.21)

5. Amirlarimdan ba'zilar ularning yonini olib menga "bu davlat barimiz sherik bo'lganimizdan keyin, ularni ham davlatga sherik deb bilaylik" dedilar. (A. Temur. "Temur tuzuklari": b.35)[8].

Sohibqiron Amir Temur o'z asarlarida iqtisod sohasiga asosiy e'tibor qaratganlar va buni isboti sifatida o'z suhbatlaridan parchalar bermoqni joiz deb topdik.

Jumladan, "..... raiyatni xonavayron qilish davlat g'aznasining kambag'allashuviga olib keladi. G'aznaning kamayib qolishi esa sipoxning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipoxning tarqoqligi esa saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi", - deyiladi. Asarda ya'na, "Amr qildimki, saltanatning xar bir idorasida kirim-chiqimlarni, kundalik xarajatlarni yozib borish uchun bir kitob tayinlansin", deya ta'kidlaganlar.

Hazrat Navoiy tomonidan bizgacha yetib kelgan manbaalarda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy holatini o'zida ifoda etgan quyidagi iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarni uchratish mumkin: Muknat -Boyluk; Musamman -Qimmatbaho; Mutavaliy - Ish boshqaruvchi; Mushtariy -Xaridor; Muxosib -Hisobchi, hisobdor; Nafaqa -Maosh, xarajat; Naf -Foyda, baxra; Niyoz - Ehtiyot; Oviza -Boyluk; Sayrafiy -Sarraf; Tamavvul -Moldorlik; Tojir -Savdogar, tijoratchi; Ugul -Yig'im; Unquch -Qarz; Ushr -Soliq turi; Xanj -Foyda, naf; Xiroj-Soliq turi; Chorasoz - Tadbirkor; Shafoatgar-Vositachi; Xizonasanj -Xazina o'lchovi; Xiyla-Zeb-ziynat.

Aytish joizki, Navoiy davridan boshlab og'zaki nutq tarkibida mavjud bo'lgan kinoyalar, qochirimlar, so'z o'yinlari, presuppozitsion leksik vosita sifatida yozma nutqda qo'llanila

boshlandi. Olim turkiy zabon elatlar orasida birinchilardan bo'lib turk tili tilshunosligida pragmatik xususiyatlarini ko'rsatib bera oldi. Masalan, ushbu parchani oladigan bo'lsak:

Falak zohidi (Mushtariy yulduzi) ning sof

Nurdan ajoyib joynamozi bo'lib, tunni ibodat bilan

Bedor o'tkazish uchun uni to'shab oladi.

Navoiy ko'nglini ko'p mehr ila oldi ul oy andoq,

Ki olg'an mushtariy qalloshlar molin muzod aylab[9]

Bu baytlarda shoir Shirinni odam naslining parisi, mushtariydek sayyorolari ko'p bo'lgan quyosh deb ataydi. Baytdagi "mushtariy" so'zi ikki maa'noda ishlatilgan. Biri - sayyoraning nomi; ikkinchisi - xaridor ma'nosidir. Bu baytda shoir Shirinni odam naslining parisi, mushtariydek sayyorolari ko'p bo'lgan quyosh deb ataydi. Baytdagi "mushtariy" so'zi ikki ma'noda ishlatilgan. Biri - sayyoraning nomi; ikkinchisi - xaridor ma'nosidir. Ammo, hozirgi kunga kelib "mushtariy" so'zi o'zining eski ma'nosini saqlagan holda semantik o'zgarishga uchrab atoqli ot ya'ni asosan qiz bolalarga qo'yiladigan ism va bu ism arabcha hisoblanadi[7].

Yuqoridagi misollarga qo'shimcha qiladigan bo'lsak, Navoiy asarlarida uchraydigan "mutavaliy" so'zi Temuriylar davrida "ish boshqaruvchi" ma'nosida qo'llanilgan. Hozirgi kunga kelib esa ya'ni bir yangi ma'noda "masjidda domlaning birinchi maslahatchisi" ma'nosida qo'llaniladi. YA'na bir misol keltiradigan bo'lsak, "xiyla" so'zi Hazrat Navoiy asarlarida "zeb-ziynat" ma'nosida qo'llanilgan bo'lsa, hozirda esa "ma'lum darajada, birmuncha, ancha" va "birmuncha fursat, ancha vaqt", "yolg'on, aldov" ma'nolarida keng qo'llanilib semantik o'zgarish hodisasi ro'y bermoqda[7].

Shuni ta'kidlash lozimki, Alisher Navoiy asarlarida zamonlar o'tib sematik o'zgarishga uchramagan iqtisodiy-moliyaviy leksik birliklarni ham topishga muvofiq bo'ldik.

Eyki, ko'nglumni buzub, dersen, hayolimni chiqar,

Hech kim vayronadir ganj istamas xargiz xiroj[9].

Ko'nglumni olibdur ul shahi sabzdavoj,

Kim g'amza bila olur mamolikdin boj[9].

Ushbu namunada boj, xiroj so'zlaridan Navoiy juda ham mohirona foydalangan. YA'ni, "xiroj" so'zi "soliqning bir turi" (Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida, jumladan, O'rta Osiyoda davlat tomonidan undiriladigan yer solig'i, o'lpon. Masalan: "... to ul viloyatni zabt qilg'ay va mol xirojidan nakim tushsa, xazina qilib yibargay" [Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. -T.: 1999. - 238 b.] ma'nosida (muxassil arabcha - xiroj yig'uvchi); "boj" so'zi avval "Sharq mamlakatlarida savdogar, hunarmandlardan olinadigan soliq", hozirda esa "Chetdan keltiriladigan mol uchun olinadigan rasmiy belgilangan haq" ma'nosida kelmoqda.

Navoiyga ko'ngul berdingki, jonin olg'asen bir kun,

Erur o'z na'fi shaxdin gar raiyatg'a rioyadtur[9].

Ushbu jumlada ham Navoiy hazratlari "naf" so'zidan juda mohirona foydalanmoqdalar. "naf" so'ziga ta'rif beradigan bo'lsak, "foйда, baxra" ma'nosini bildiradi va "ushr" so'zi "soliqning bir turi" kabi so'zlar qatorida hozirgacha foydalanib kelinmoqda[7].

Yuqorida qayd etilganidek, Navoiy tarjimaning turli g'aroyib shakllarini topadi. U "Nazm ul-javohir" da hazrat Aliga nisbat berilgan bir satr so'z bilan aytilgan hikmatlarning (ularning soni 250 dan ortiq) har biriga to'rttala misrasi ham mukammal qo'fiyalangan ruboiy bag'ishlaydi. Har ruboiyda hikmatning ma'nosini keltiradi, ham unga she'riy sharh yozadi. Hikmat ichida

hikmat yaratadi. Bu hikmatlar inson ahloqining turli jihatlarini qamrab oladi. Misol uchun, kishining odobi uning boyligidan yaxshiroqdir degan mazmundagi hikmatni Navoiy quyidagicha rivojlantiradi:

Gar yo'qdur adah, ne sud oltun unidin,

Elning adabi xushroq erur oltunidin.... (13 7-b.)

Mo'g'ullar davrida yozilgan "At-tuxfatuz zakiyati fil-lug'atit turkiya" ("Turkiy til haqida noyob tuhfa", qisqacha "At-tuhfa") kitobida "Oltin" so'zi "Alt, altin" ko'rinishida ishlatilgan.

Masalan: 1.2 jadval

Alisher Navoiy asarlarida:

1. "Xazina" ga oid so'zlar

1	Kunuz, ganj	Xazina
2	Manol	Mulk, xazina, uy-joy
3	Maodin	Konlar, xazinalar
4	Maxzan	Xazina

2. "Pul, boylikka" aloqador so'zlar

1	Naqd	Pul, boylik, qimmatbaho narsalar
2	Mablag'	Naqd pul, naqdin

3. "Sarf-xarajatga" aloqador so'zlar

1	Masrif	Sarf-xarajat, chiqim, xarajat qilinadigan joy
2	Musrif	Sarf qiluvchi
3	Soyg'a	Sarf qilmoq, xarj qilmoq

4. "Jarima" ga oid so'zlar

1		Muzlima	Jarima
2		Musodara	Zabt, jarima
3		Tovon	Jarima

Yuqorida keltirilgan misollardan olim turk tili ko'lamini va uning so'z boyligi imkoniyatlarini ko'rsatib berishga intilgan desak xato bo'lmaydi.

Temuriylar davrining yana bir vakili, shu bilan birga, Boburiylar saltanatining asoschisi, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yaratilgan "Boburnoma" asarida ham iqtisod-moliya va ularning turli sohalariga oid leksik birliklar ko'plab uchraydi[3]. Jumladan, Muknat-Boyluk; Musamman-Qimmatbaho; Mutavaliy-Ish boshqaruvchi; Mushtariy-Xaridor; Muxosib-Hisobchi, hisobdor; Nafaqa-Maosh, xarajat; Naf-Foyda, baxra; Niyoz-Ehtiyoj; Oviza-Boyluk; Sayrafiy-Sarraf; Tamavvul-Moldorlik; Tojir-Savdogar, tijoratchi; Ugul-Yig'im; Unquch-Qarz; Ushr-Soliq turi; Xanj-Foyda, naf; Xiroj-Soliq turi; Chorasoz-Tadbirkor; Shafotgar-Vositachi; Xizonasanj-Xazina o'lchovi; Xiyla-Zeb-ziynat.

Yuqorida ko'rsatilgan leksik birliklarni tahlilga tortadigan bo'lsak, Temuriylar davrida "Arzdosh" (arz-dosh) sifatida ishlatilgan so'z hozirgi kunga kelib "Ariza yozish" ko'rinishida foydalanilmoqda. Bunday so'zlarni bir qatorini misol keltirish mumkin, "Irs" so'zi hozirda "Meros" holatida (ya'ni "m" harfi qo'shilib, epenteza ya'ni harf ortirilish hodisasi kuzatilmoqda, "i" harfi "e" harfiga o'zgarimoqda va turkiy tillarga xos xususiyat ikki yonma yon kelgan undosh harflar "r", "s" harflari orasiga "o" unli

Temuriylar davriga kelib esa bu so'z "oltun" holatida qo'llanilmoqda, ya'ni unli harflarda harf almashinish hodisasi ro'y bermoqda.

Shuningdek, Alisher Navoiy asarlarida arabcha va fors-tojikcha lug'aviy birliklarning to'g'ri qo'llanilganligi, o'zbek tilida o'zlashma qatlamning o'ziga xos xususiyatiga egaligi, g'aznachilik, moliya-iqtisod sohasiga oid sinonimik birliklarda aks etgan.

harfi qo'shilib kelmoqda); "Varasa" so'zi "vorislik" holatida hozirda foydalaniladi va fonetik o'zgarish jarayoniga uchragan so'zlar qatoriga kiritilgan bo'ladi deb o'ylaymiz.

Xulosa. Tadqiqotimiz davomida bizgacha yetib kelgan tarixiy manbaalarni o'rganish natijasida, jamiyatda muhim o'rin egallagan pul, xisob-kitob asosida amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlar bir necha asrlar avval paydo bo'lib, yillar davomida rivojlanib kelayotganligini ko'ramiz. Iqtisodning tarkibiy qismi bo'lgan moliya-budjet, g'azna, soliq, boj sohalarida to'g'ri siyosatni amalga oshirish jamiyat taraqqiyotini belgilovchi muhim omillardan biri xisoblanadi. Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilida ham iqtisodiy-moliyaviy terminlarining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o'z tarixiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Har bir terminologik tizimning shakllanishi, rivojlanishi va shu sohaning tarkib topib, taraqqiy etish borishi bilan uzviy bog'liqdir. Albatta, sohaviy jihatdan o'ziga xoslik kasb etadi. Shu ma'noda, o'zbek, ingliz va koreys tili iqtisodiy moliyaviy soha terminologiyasining tarkib topishi, shakllanishi va rivojlanishi o'z taraqqiyot yo'li, genetik asoslariga ega va ushbu davriy ketma-ketlikni turli tillar, davrlar ko'lamida o'z maqolalarimizda atroflicha o'rganib, turli xil misollar orqali tasniflab chiqmoqdamiz.

ADABIYOTLAR

1. Xaydarov I.T. Ingliz va o'zbek tillarida sug'urta leksikasining chog'ishtirma tadqiqi: Filol. fan. d-ri (PhD) diss. –2023.- b.20
2. Солнцев В.М. Курс общий лингвистики. – Москва, 1977. –19 Б.
3. Соссюр Ф.де. Труды по языкознанию. – Москва: Прогресс. 1977. – С.123.
4. Туленов Ж., Фафуров З. Фалсафа. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997. – Б. 238.
5. Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии / Татаринцев В.А. История отечественного терминоведения. Т. I. Классики терминоведения. Очерк и хрестоматия. – М.: Московский лицей, 1994. – С. 218 – 284.
6. Будагов Р.А. Человек и его язык. –М.: МГУ, 1976. – С.176.
7. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildlik. – Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 200-2008.
8. Temur tuzuklari (Forscha matndan Alixonto'ra Sog'univ va Hamidulla Karomatovlar tarjimai). – Toshkent, 2011. – 15-35 b.b
9. Навоий А. Мукаммал асарлар тўплами. Ситтаи зарурия. – Тошкент: Фан, 2008. – 23 б.
10. М. А. Sayfutdinova Ingliz va o'zbek tillari iqtisodiy diskursining lingvopragmatik tabiati: Filol. fan. d-ri (PhD) diss. –2021.- b.56



Dilrabo TOKHIROVA,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti

E-mail: masterdt2007@gmail.com

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, f.f.n N. Mukhammedova taqrizi asosida

PSYCHOLOGICAL FEATURES OF CHILD CHARACTERS IN THE STORY "ELIZABETH" BY SUSAN HILL

Annotation

This article explores the psychological features of child characters in Susan Hill's story "Elizabeth." Through a nuanced analysis of the characters' emotions, motivations, and interactions, the study highlights how Hill portrays the complexities of childhood experience. The article examines themes of innocence, fear, and resilience, offering insights into the psychological landscapes that shape the characters' identities. By employing a psychological lens, the analysis reveals how Hill effectively uses child characters to reflect broader societal issues and the impact of environment on development. Ultimately, this exploration underscores the significance of understanding child psychology within the narrative, enriching the reader's comprehension of the story's deeper meanings.

Key words: Artistic psychology, hermeneutics, emotion, state of mind, freedom, personality, family relationships.

SYUZAN HILNING "ELIZABET" HIKOYASIDAGI BOLA QAHRAMONLARINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Syuzan Hilning "Elizabet" qissasidagi bolalar qahramonlarining psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Qahramonlarning his-tuyg'ulari, motivlari va o'zaro ta'sirini nozik tahlil qilish orqali tadqiqotda Xillning bolalik tajribasining murakkabliklarini qanday tasvirlashini ta'kidlaydi. Maqolada ma'sumlik, qo'rquv va chidamlilik mavzulari o'rganilib, qahramonlar shaxsiyatini shakllantiruvchi psixologik manzaralar haqida tushunchalar berilgan. Psixologik linzadan foydalangan holda tahlil Xill kengroq ijtimoiy muammolarni va atrof-muhitning rivojlanishga ta'sirini aks ettirish uchun bolalar xarakterlaridan qanday samarali foydalanishini ko'rsatadi. Pirovardida, ushbu izlanish hikoya doirasida bola psixologiyasini tushunish, o'qirmanning hikoyaning chuqurroq ma'nolarini tushunishini boyitish muhimligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: Badiiy psixologizm, germenevtika, hissiyot, ruhiy holat, erkinlik, shaxsiyat, oilaviy munosabatlar.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ДЕТСКИХ ПЕРСОНАЖЕЙ В РАССКАЗЕ "ЭЛИЗАБЕТ" СЮЗАН ХИЛЛ

Аннотация

В этой статье рассматриваются психологические особенности детских персонажей в рассказе Сьюзан Хилл "Елизавета." Путем тонкого анализа эмоций, мотивов и взаимодействий персонажей в исследовании подчеркивается, как Хилл изображает сложности детского опыта. В статье рассматриваются темы невинности, страха и стойкости, даются представления о психологических ландшафтах, формирующих идентичность персонажей. Используя психологическую линзу, анализ показывает, как Хилл эффективно использует детские персонажи для отражения более широких социальных проблем и влияния окружающей среды на развитие. В конце концов, это исследование подчеркивает важность понимания детской психологии в повествовании, обогащая понимание читателем более глубоких смыслов рассказа.

Ключевые слова: Художественный психологизм, герменевтика, эмоция, психическое состояние, свобода, личность, семейные отношения.

Kirish. Badiiy psixologizm - bu ko'p qirrali adabiy tushuncha bo'lib, u adabiyot va psixologiya o'rtasidagi murakkab munosabatlarni o'rganadi, psixologik holatlar va jarayonlar badiiy matnlar ichida qanday ifodalanishiga e'tibor qaratadi. Bunday yondashuv qahramonlar, ularning motivlari, ular yashaydigan hissiy manzaralarni chuqurroq anglashga imkon beradi. Adabiyotda psixologizmning tarixiy taraqqiyoti hikoyalarda inson ongi va subyektiv tajribasini mujassamlashtirishga bo'lgan qiziqishning ortishini aks ettiradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ingarden va Fizer (1974) adabiyotshunoslikda psixologizm va psixologiya o'rtasidagi farq haqida fundamental munozara olib borib, qahramonlarni ularning psixologik tajribalari bilan shakllangan murakkab mavjudotlar sifatida tushunish zarurligini ta'kidlaydilar [1]. Adabiyotda psixologizmning shakllanishi va rivojlanishi, uning inson his-tuyg'ulari va motivlarining murakkabliklarini ochib berishdagi ahamiyatini tadqiq etgan Stupnitska (2018) ishida ham bu fikr o'z aksini topgan [10]. Turli mualliflar tomonidan kiritilgan "badiiy psixologizm" atamasi adabiyotdagi psixologik tasvirning estetik o'lchamlariga e'tibor qaratish orqali bu tushunchani yanada takomillashtiradi. Jalilovna (2019) buni Fyodor Dostoyevskiy asarlari orqali ko'rsatadi, uning psixologik qarashlari uning hikoyalarining boyligi va murakkabligiga hissa qo'shadi [5]. Shuningdek, Bobokhonov (2018) turli adabiy an'analari kesimida xarakter taraqqiyotini anglashda adabiy psixologizmning muhim o'rin tutishini ta'kidlab, u orqali inson

kechinmalarining teranligini tahlil qilish uchun obyektiv vazifasini o'tashi haqida fikr bildiradi [9]. Nylander (1995) psixologizm va hikoya tuzilishi o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ko'rib chiqib, bu tushunchani kengaytiradi, xususan, romanlarda, psixologik teranlik o'quvchi ishtirokini qanday oshirishini ko'rsatadi [6]. Uning ta'kidlashicha, psixologik tasavvurlarni hikoya shakllariga singdirish o'qish tajribasini sezilarli darajada boyitishi mumkin. Dmitrenko (2015) ham badiiy matn yaratishning muhim tarkibiy qismi sifatida muallif psixologizmini ta'kidlab, muallifning psixologik nuqtai nazarini tushunish uning ijodining tematik muammolarini yoritishi mumkinligini taklif qiladi [1]. Adabiyotshunoslikda psixologizmning o'ziga xos xususiyatlari Speshilova (2024) tomonidan yanada tadqiq etilgan bo'lib, uning qo'llanilishi janrlar va davrlar bo'yicha farqlanishi mumkinligini ko'rsatadi, bu adabiyotshunoslikning evolyutsion tabiatini aks ettiradi [8]. Bu o'zgaruvchanlik turli mualliflarning psixologik tasavvurga qanday yondashishini tushunish uchun muhimdir. Hasanbiyeva va Chamalovich badiiy matnda mavjud bo'lgan emotivlik va psixologizmni chuqur o'rganib, hissiy ifodalar va personaj motivlarini tahlil qilishda psixologik nazariyalarning dolzarbligini ta'kidlaydilar [3]. Galina et al. (2019) psixologizm poetikasini muhokama qilib, adabiyotning psixologik o'lchamlari mualliflar tomonidan qo'llaniladigan kengroq hikoya qilish usullarini qo'llash orqali amalga oshadi [2]. Buni Shinkevich (2017) qo'llab-quvvatlaydi, u adabiy portretni dastlabki romanlarda psixologizmni ifodalash vositasi sifatida

ko'rib chiqadi, qahramonlar tasviri murakkab psixologik manzaralarni qanday aks ettirishi mumkinligini ko'rsatadi [7]. Qolaversa, Qahhorova (2021) o'zbek bolalar nasridagi adabiy psixologizm pozitsiyasiga to'xtalib, bu freym turli adabiy kontekstlarga qanday tatbiq etilishi mumkinligini ko'rsatib beradi [23]. Rashidovna va Almazovna (2024) tomonidan badiiy psixologizm va uning turli madaniy fonlardagi "ayollar nasri" da aks etishi, psixologik tasvirning adabiyotdagi universal dolzarbligi yoritib berilgan [15]. Adabiy psixologizm psixologiya va hikoya o'rtasidagi o'zaro ta'sirni o'rganish uchun muhim obyektiv vazifasini o'taydi. Syuzan Xillning "Sand" asaridagi bolalar obrazini o'rganar ekanmiz, ushbu tushunchalarni qo'llash

Tahlil va natijalar.

Meni xafa qilyapsan, Elizabet.

Sen yuraver.

Oying va dadang mashinada, shaharga ketishyapti, bilasan-a!

Demak ahvol jiddiy, ikkilandi u. doktorga (Mary Hennessy) ko'rinishga ketishyapti. aytadi. Ular hozir o'sha yerda, kutish xonasida.

Elizabet.

U tez-tez yurishni boshladi, faqat to'g'riga qarab harakatlandi, ukasini yetishib-yetishib yurishga buyurdi. Qo'lida esa maktab sumkasi. Miloning qo'lidan opasi ombur kabi qattiq qisib ushlagan edi, Milo opasi ushlagan joyini og'riganidan ishqaladi. Milo opasining endigina yelkasiga tushgan vakolatini va kuch-qudratini sezib turardi.

Avtobus tashlab ketgan joydan uyga qadar 1 mil edi. Qishloq yo'l yoqalab cho'zilib ketgan.

Elizabet!

Elizabet ukasining ovoizidagi qo'rquvni sezib to'xtadi.

Uyda hammasi joyidami?

Ha, albatta

Qayerdan bilasiz? Uy tinch bo'lmasligi mumkin. Qayerdan bilasiz? (152 bet)

Elizabetning Miloning qo'lidan ombur kabi qisib ushlashi taranglikka ishora qiladi, shu bilan birga ukasiga nisbatan mas'uliyat, himoya kabilarni ham anglatadi. Elizabet ukasi ustidan nazoratni o'rnatishga harakat qilsa-da, uni samarali himoya qilish qobiliyati haqida ishonchsizlik bo'lishi mumkin. Milo ota-onasidan xavotir olib, uy tinchmi yo'qmi deb so'raganda, Elizabetning "ha, albatta" degan tez tasalli ruhidagi javobi himoya mexanizmi sifatida talqin qilininishi mumkin. Psixologik jihatdan, bu javob uning shubhalar davom etayotgan bo'lsa ham, nazorat va barqarorlik pozitsiyasini saqlab qolish istagini ko'rsatadi. Ota-onasining shifokorga borishini eslatib, uning ikkilanishi uning ichki ziddiyatini yana bir bor ta'kidlaydi; u Miloning tashvishlarini tarqatishga harakat qilib, ayni vaqtda o'z qo'ruqlari bilan kurashadi. Elizabetning boshini baland

Elizabet ukasining bu so'rovlariga tayyor emas edi. Uning o'zining tashvishi aslida o'ziga yetib ortadi, go'yoki boshi uzra rutubatli soya bor edi. Ilgari oilasidan hech kim Doktor Hennessyga olib borilmagan edi, va bunga ancha-muncha mablag' ketadi. (153-bet)

Bu parcha orqali Elizabetning hissiy yukini ko'rishimiz mumkin. Bu tashvish yukini ko'tarish ukasi bilan muloqot garmoniyasiga to'sqinlik qiladi. Bunday xavotir ko'pincha oilaviy umidlar va noma'lum narsadan qo'rqish bosimidan kelib chiqadi, bu uning nafaqat o'z his-tuyg'ularini, balki Miloning ham his-tuyg'ularini boshqarish mas'uliyatini his qilishga olib keladi. Oilaning doktor Hennessini ko'rish uchun safari haqidagi bayonot vaziyatning jiddiyligini ta'kidlaydi. Elizabet bunday sayohatlar oson emasligini tushunadi, ya'ni u sog'liq bilan bog'liq muhim voqealarni boshdan kechirgan, bu tashrif nimaga olib kelishi mumkinligidan qo'rqadi. Ushbu xabardorlik uning ruhiy muddatidan oldingi yetuklikni aks ettiradi.

Ularning oilasida hech kim doktor Hennessini ko'rish uchun o'n olti mil masofani shunchaki tekinga bosib o'tmagan degan tushuncha Elizabetning bu bilan bog'liq narsalarni bilishini

Biroq ular orqa eshikdan kirishganida, uy avvalgidek ko'rinardi va uning hidi odamga orom bag'ishlardir. Stol ustida, non bilan yonma-yon bir krujka yaxna choy turardi, hammayoq jimjiti edi. (154 bet)

Uyda ufurib turgan tinchlantiruvchi hidini ilgari bildirilgan tashvish bilan taqqoslash Elizabet ichidagi ziddiyatni ko'rsatadi. U ota-onasi va shifokorga borishi haqidagi tashvishlari bilan kurashar ekan, tanish muhit barqarorlik tuyg'usini ta'minlaydi. Ushbu ikkilik uning noaniqlik sharoitida qulaylikka bo'lgan ehtiyojini aks ettiradi.

Germenevtik nuqtai nazardan, ushbu parcha Elizabetning hissiy manzarasini ochib beradi, chunki u o'z muhitining murakkabliklarini boshqaradi. Uy ham qulaylik, ham voqelik

Elizabet birdan tushundi, u onasi yashab o'tgan hayot uning tasavvurida rasmdagidek aniq ko'rindi. Onasi misolida kambag'al bo'lish, itdek ishlash, qabargan qo'llar, o'ziga vaqt topa olmaslik nimaligini anglab yetdi. 155 -bet

Ushbu parcha Elizabet uchun onasining hayoti va kurashlari haqida tushunchaga ega bo'lgan muhim lahzani ta'kidlaydi. Tushunish onasining ahvoriga hamdard bo'lish imkonini beradi. Psixologik jihatdan, bu payt Elizabetning balog'atga yetish oila dinamikasining murakkabliklari haqidagi tushunchasi shakllanishida yaqqol namoyon bo'ladi. Elizabetning qashshoqlik va mehnatsevarlikni tushunishi onasiga nisbatan

hikoyadagi psixologik murakkabliklar va mavzuiy rezonanslarni yoritadi, pirovardida matn haqidagi tushunchamizni boyitadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Adabiy tahlilga germenevtik yondashuv matnlarning konteksti va ma'nosiga e'tibor qaratib, talqin va teran tushunishga urg'u beradi. Ayniqsa, bu metodika psixologizmni tahlil qilishda samarali bo'lib, o'quvchilarga qahramonlar va rivoyatlarning psixologik holatlarini chuqurroq o'rganish va tushunishga imkon beradi. Ushbu yondashuv orqali Syuzan Hilning "Sand" asaridagi bola qahramonlarining murakkab ruhiyat tasviri va ularning tajribasini shakllantiradigan psixologik quyi oqimlari tahlil qilinadi.

ko'tarib, tezda olg'a ketishga qaror qilishi uning his-tuyg'ularini boshqarish uchun kurashayotganidan dalolat beradi. To'g'ri oldinga qarash harakati uning qo'ruqlariga qarshi turmaslik uchun himoya mexanizmini anglatadi. Bu uning hissiy yukini ta'kidlaydi; u nafaqat o'zi uchun, balki Miloning hissiy holati uchun ham javobgarlikni his qiladi. Miloning qo'ruq ifodasi e'tiborga molik. Uning Elizabetga qayta-qayta murojaat qilishi va ularning uydagi ahvoli haqidagi so'rovi bolaning zaifligi va hissiy xavfsizlik uchun opasiga qaramligini aks ettiradi. Germenevtik nuqtayi nazardan bu parcha Elizabet xarakterining murakkab qatlamlarini ochib beradi. Uning himoyaviy xatti-harakati, nazoratchi va himoyachi, yupatuvchi pozitsiyasi va hissiy kurashlari noto'g'ri muhitda o'sishning murakkabliklarini o'z ichiga oladi.

ko'rsatadi. Bu tushunish bolalarcha beg'uborlik va bolalarcha soddalikning yo'qolganligini anglatadi. Germenevtik nuqtayi nazardan bu parchada Elizabetning xarakterida kechadigan chuqurroq hissiy oqimlar ochib beriladi. Uning bezovtaligi biz uning kechinmalari va reaksiyalarini talqin qilishimiz mumkin bo'lgan linza bo'lib xizmat qiladi. Shifokor huzuriga sayohat murakkabroq, ko'inch qo'rqinchli voqelikka o'tish ramzidir, bu oddiy tashvishsiz bolalikdan kattalar og'ir kattalikka o'tishni anglatadi. Bu lahza uning ichki ziddiyatining mohiyatini aks ettiradi, bu yerda uning atrof-muhit bosimi uni xavfsizlik va oilaviy rishtalarga tahdid soladigan qo'ruqlarga qarshi turishga majbur qiladi. Elizabet orqali hikoya tashvish, mas'uliyat va noaniqliklar bilan to'lgan dunyoda ulg'ayish muammolarini keng ko'lamda tasvirlaydi.

yukining ramzi bo'lib xizmat qiladi, u yerda tanish manzaralar va hidlar uning bezovtaligi o'rtasida xavfsizlik istagini uyg'otadi. Yupatuvchi xarakterga ega bo'lgan uyini uning hissiy notinchligi bilan taqqoslash uning tajribasining ikki tomonlama tabiatini ko'rsatadi. Bu lahza bolalik, oilaviy aloqalar va tashqi bosimlar qarshisida o'ziga xoslik uchun kurashning kengroq mavzularini o'z ichiga oladi va o'quvchilarni Elizabetning o'tmishi va bugungi kunini kuzatar ekan, uning ruhiyatining murakkab qatlamlarini kashf qiladi.

chuqurroq hamdardligini ko'rsatadi. Onasining qurbonliklarini tan olish ular o'rtasidagi munosabatlarni kuchaytiradi, bu esa Elizabetning hissiy rivojlanishi uning boshqalar bilan bog'lanish qobiliyatiga asoslanganligini ko'rsatadi. Bu yetuklikni aks ettiradi, bu ko'pincha shafqatsiz haqiqatlarga duch kelishdan kelib chiqadi, bu esa Elizabetni bolalikning begunohligidan uzoqlashtirib, hayotni yanada nozikroq tushunishga undaydi. Onasining "qo'pol

va qabargan qo'llari" va "o'zingizga vaqt topa olmaganligi" tavsifi uning shaxsiyatiga og'ir mehnatning zarari borligini ta'kidlaydi. Elizabetning onasining ularning holatini qabul qilganini tan olishi va uning "sog'inchning chaqnashlari" taslim bo'lish va istak o'rtasidagi keskinlikni ko'rsatadi. Bu ikkilanish Elizabetni umidsizlik yoki qayg'u tuyg'ularini qabul qilishga olib kelishi mumkin, chunki u o'zining ijtimoiy-iqtisodiy maqomi

Elizabetning miyasida fikrlari kapalakday charx urardi. Kelgusi yillarda boshqa mamlakatlarga sayohat qilishingiz kerak. O'zingizdan tashqarida siz zabt etishingiz kerak bo'lgan dunyo bor. Buni hech qachon unutmang. Ba'zan onasi hech qanday ogohlantirishsiz toza kiyimlar va uyg'a oid kitoblar haqida emas, balki kattalar hayoti va muqarrar o'limi haqida gapirardi. Agar siz bunday qilmasangiz, Elizabet, men umidsizlikka tushib qolaman, mendan keyin hayotingizni vaqtinizni behudaga isrof qilmang. (156 bet)

Elizabetning fikrlari kapalakka o'xshatilishi metaforasi bezovtalik tuyg'usini va o'tkinchi va qo'lga kiritish qiyin bo'lgan g'oyalar oqimini anglatadi. Ushbu tasvir uning ichki notinchligi va yaqin atrof-muhitdan tashqarida izlanish istagini aks ettiradi. Psixologik jihatdan, bu uning o'z intilishlarini va hozirgi sharoitlari tomonidan qo'yilgan cheklolarni anglashni anglatadi. Elizabetning onasining sayohat qilish va dunyoni ko'rish haqidagi maslahati imkoniyat va sarguzashtlarga chanqoqlikni anglatadi. Bu ko'rsatma Elizabetga chuqur ta'sir qiladi va uning hozirgi voqeligidan xalos bo'lish istagini uyg'otadi. "O'zingizdan tashqaridagi dunyo"ning tilga olinishi shaxsiy o'sish va kashfiyotning muhimligini ta'kidlaydi, bu esa Elizabetning o'z orzularini hozirgi hayoti bilan kelishishi kerak bo'lgan buriilish nuqtasida ekanligini ko'rsatadi. Onasining so'zlari ilhomlantirishga mo'ljallangan bo'lsa-da, ular kelajak va uning bu umidlarni amalga oshirish ehtimoli haqida xavotir uyg'otadi. Bu noqulaylik uning ichki ziddiyatini ochib beradi: u onasi aytgan imkoniyatlarni qabul qilishni xohlaydi, ammo hozirgi hayotining cheklolarni his qiladi. Onasining to'satdan dunyoviy

U "dunyo" deb atalmish bu yerda o'z kelajagini tasavvur qila olmasdi; u faqat o'z-o'ziga savol berardi. Shunga majburmanmi? U bezovtalik bilan yalang oyoqlariga tikilarkan, o'zini allaqanday haydalishtirish marosimi va begona odamlar orasida dahshatli tanholikni sezayotgandek his qilardi. Dunyo siz uchun ham men uchun ham kam, bir kengligi bor. (157 bet)

Ushbu bayonot Elizabetning introspektiv tabiatini anglatadi. Ushbu ichki diqqat izolyatsiya hissini ko'rsatishi mumkin, bu uning tashqi dunyo bilan muloqot qilish qiyinligini ko'rsatadi. Psixologik jihatdan, bu o'ziga xoslik va tegishlilik bilan kurashni aks ettiradi, chunki u o'z qo'rquvlari va intilishlarini chekllovchi kontekstda kurashadi. Dunyoning barcha uchun bir kamligi satrlari Elizabet o'zi uchun kutgan qayg'uli haqiqatni ifodalaydi. Cheklangan imkoniyatlarni tan olish uning oilasidagi ijtimoiy-iqtisodiy kurashlardan xabardorligidan kelib chiqishi mumkin. U avlodlar o'rtasidagi qiyinchiliklar siklini va uning ushbu cheklolarni o'zlashtirishini ta'kidlaydi, o'z kelajagi haqida taslimlik va umidsizlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Elizabetning boshqa odamlar orasida bo'lsa ham o'zini yolg'iz his qilishi aloqaga bo'lgan ishtiyoqi va yolg'izlikdan qo'rqishini ta'kidlaydi. Bu uning mustaqillikka intilishi va tanishlikning qulayligi o'rtasidagi taranglikni aks ettiradi. Germenevtik nuqtayi nazardan, ushbu parcha Elizabetning qo'rquvlari va intilishlarini boshqarishda psixologik kurashini o'z ichiga oladi. Uning ichki diqqati tashqi dunyo noaniqliklaridan himoya mexanizmi bo'lib xizmat qiladi, kelajak haqidagi xavotirlari esa uning hissiy holatining murakkabliklarini ochib

tomonidan qo'yilgan cheklollar bilan kurashadi. Germenevtik nuqtai nazardan, ushbu parcha Elizabetning evolyutsion ongini talqin qilish uchun ahamiyatli linza bo'lib xizmat qiladi. Tushunish lahzasi nafaqat onasining hayotini, balki ushbu hikoyadagi o'z o'rnini tushunish uchun darvoza vazifasini bajaradi.

mavzulardan hayot va o'lim haqidagi chuqur munozaralarga o'tishi bolalikdagi begunohlikdan dunyoni yanada murakkabroq tushunishga o'tishini aks ettiradi. Germenevtik nuqtayi nazardan, ushbu parcha Elizabetning istaklari va uning voqeligi o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqani ochib beradi. Sayohat va izlanishlar haqidagi eslatma uning bevosita tajribasidan tashqari o'sish va tushunishga intilishi uchun metafora bo'lib xizmat qiladi. Onasining so'zlari ham yo'l ko'rsatuvchi nur, ham bosim manbai bo'lib, ota-onaning murakkab umidlarni qamrab oladi. Kapalakdek charx urgan fikrlar tasviri jonli ichki hayotni, shu bilan birga tartibsiz va murakkab hayotni ko'rsatadi. Ushbu lahza o'quvchilarni tashqi bosimlar qarshisida intilish, oilaviy mas'uliyat va o'ziga xoslik uchun kurashning umumbashariy mavzulari haqida fikr yuritishga undaydi. Elizabetning sarguzashtga intilishi va umidning og'irligi o'rtasidagi ichki ziddiyat uning o'z-o'zini kashf etish yo'lidagi murakkab sayohatini ta'kidlaydi, bu bolalik ma'sumligi va katta bo'lish bilan bog'liq mas'uliyat o'rtasidagi muvozanatni ko'rsatadi.

beradi. Uning introspeksiya va kengaygan kelajak g'oyasi o'rtasidagi qarama-qarshilik u o'z muhiti tomonidan qo'yilgan cheklolarni o'ylab ko'rar ekan, qamoq va erkinlik mavzusini yoritadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Syuzan Xillning "Elizabet" asari bolalikning ruhiy chuqurliklarini Elizabet obrazi orqali nozik tarzda aks ettiradi. Onasining muqarrar o'limi haqidagi keskin anglovi Elizabetning hissiy olamiga chuqur ta'sir ko'rsatadi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, Elizabetning begunoh bolaligi qo'rquv va himoyasizlik hissi bilan qorishib ketgan, bu esa bolaning o'lim haqidagi tushunchasi va unga xos bo'lgan bardoshlilik o'rtasidagi murakkab aloqani yoritib beradi. Xillning tasviri nafaqat shaxsiy ruhiy kechinmalarni aks ettiradi, balki bu kechinmalarni shakllantiradigan keng ijtimoiy kontekstlar haqida fikr yuritishga ham xizmat qiladi. Kelajakdagi tadqiqotlar adabiyotdagi bola obrazlarining ruhiy tasviriga, yo'qotish va chidamlilik mavzularini o'rganishga e'tibor qaratishi lozim. Bu bolalik tajribalarini va ularning jamiyatga keng ko'lamdagi ta'sirini chuqurroq anglashimizga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Dmytrenko, J. M. (2015). Author's psychologism as a component of the literary text creation. Cherkasy University Bulletin: Philological Sciences, 27(360).
2. Galina, G., Gareeva, G., Alibaev, Z., & Khaliullina, A. (2019). Poetics Of Psychologism In Bashkir And Tatar Prose Of The Twentieth Century. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences, 93.
3. Hasanbieva, T. M., & Chamalovich, B. B. Emotivity And Psychologism In Literary Texts Written In The Kabardian Language. European Proceedings of Social and Behavioural Sciences.
4. Hill, S. (2004). The boy who taught the beekeeper to read. Random House.
5. Ingarden, R., & Fizer, J. (1974). Psychologism and psychology in literary scholarship. New Literary History, 5(2), 213-223.
6. Jalilovna, K. D. (2019). The concept of literary psychologism in the works of F. Dostoyevsky. European journal of literature and linguistics, (2), 39-42.
7. Nylander, L. T. (1995). Psychologism and the Novel. The Journal of the Society for the Advancement of Scandinavian Study, 407.
8. Shinkevich, O. N. (2017). The literary portrait as a way of expressing psychologism in the early novels of Kuprin. Nizhnevartovsk Philological Bulletin, 2(2), 63-67.
9. Speshilova, V. P. (2024, March). About the specifics of the concept of "psychologism" in literary criticism. In 11th International Scientific & Practical Conference "Culture, Science, Education: Problems and Perspectives" (pp. 213-218).
10. Бобохонов, М. (2018). The place of the literary psychologism in the system of literary concepts. Иностранные языки в Узбекистане, (1), 232-240.
11. Ступницька, Н. М. (2018). Formation and development of psychologism in literature. The Journal of VN Karazin Kharkiv National University. Series "Philology", (79), 134-139.



Gulorom TULABOYEVA,
Toshkent davlat transport universiteti dotsenti,
E-mail: Lyalyanani@gmail.com

O'zDJTU professori, filologiya fanlari doktori J. Yoqubov taqrizi asosida

MECHANISMS OF TRANSLATION OF WORD GROUPS AND VERBS (ON THE EXAMPLE OF FOREIGN LANGUAGE METHODOLOGY)

Annotation

This article discusses the mechanisms of translating word groups and expressions (on the example of foreign languages) and the important aspects of translating adjective word groups and expressions in foreign languages, and the fact that each language has its own characteristics, which require the functional restoration of the grammatical forms used in the original not blindly to the target language, but using alternative forms expressed through them.

Key words: Adjective, word class, linguistics, language, translation, method, idiom word class, concept of form, concept of content, speech activity, contextual meaning, polysemantic words.

МЕХАНИЗМЫ ПЕРЕВОДА СЛОВОГРУПП И ГЛАГОЛОВ (НА ПРИМЕРЕ ИНОЯЗЫЧНОЙ МЕТОДИКИ)

Аннотация

В данной статье рассматриваются механизмы перевода словосочетаний и выражений (на примере иностранных языков) и важные аспекты перевода прилагательных словосочетаний и выражений на иностранные языки, а также тот факт, что каждый язык имеет свои особенности, которые требуют функционального восстановления грамматических форм, используемых в оригинале, не слепо по отношению к целевому языку, а с использованием альтернативных форм, выраженных через них.

Ключевые слова: Прилагательное, класс слов, лингвистика, язык, перевод, метод, класс слов-идиом, понятие формы, понятие содержания, речевая деятельность.

SO'Z TURKUM VA RAVISHLARNI TARJIMA QILISHNING MEKANIZMLARI (CHET TILLARINI METOLOGIYASI MISOLIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada so'z turkum va ravishlarni tarjima qilishning mexanizmlari (chet tillarida misolida) hamda chet tillaridagi sifat so'z turkumlari va ravishlarni tarjima qilishning ahamiyatli tomonlari va har bir tilning o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi asiyatda foydalanilgan grammatik shakllarni tarjima tiliga ko'r-ko'rona emas, balki ular vositasida ifoda etilgan muqobil shakllar yordamida vazifaviy qayta tiklashni taqazo etadi.

Kalit so'zlar: Sifat, so'z turkumi, tilshunoslik, til, tarjima, metod, ravish so'z turkumi, shakl tushunchasi, mazmun tushunchasi, nutq faoliyati, kontekstual ma'no, polisemantik so'zlar.

Kirish. Dunyo tilshunosligida xalqlar madaniyati kishilar o'rnatadigan munosabatlarning muayyan bir shakli sifatida tadqiq qilinayotgan yo'nalish – lingvomadaniyatshunoslik bugungi kunda jadal rivojlanayotgan, tilda o'z ifodasini topayotgan va barqarorlashayotgan soha sifatida talqin qilish mumkin. Ijtimoiy ongning shakllanish omillarini tahlil qilish turli madaniyatlarning o'zaro munosabatlarini va o'zaro tushunish mexanizmlarini chog'ishtirishni tadqiq qilish imkoniyatlarini vujudga keltirdi. Hozirgi kunda Oliy o'quv yurtlari bakalavriat yo'nalishi o'quv rejasiga kiritilgan "Ingliz tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanining maqsadi hozirgi ingliz tillarning fonetik-fonologik, morfem-morfologik, leksik-semantik va straktur-grammatik xususiyatlarini yaxlit holda tahlil qilish, ingliz tili grammatikasida oltoy tillariga xos lingvistik jarayonlar ifodasini yoritish, chet tillarni tasniflashda fonetik, leksik, grammatik, geografik, etnik mezonlarning o'rni izohlash; chet tillarning umumiy va xususiy taraqqiyot bosqichlari haqida muayyan tasavur hosil qilish, tipologik o'ziga xosliklarini umumlashtirish. farqli jihatlarni ajratishdan iborat. "Chet tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fani doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning amaliy qiymati quyidagilarda ko'rinadi:

Hozirgi kunda barcha sohalarida globalashuv jarayoni ta'siri ko'zga tashlanmoqda. Ana shunday vaziyatda "Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi" fanining asosiy masalalari borasida to'plangan bilim ko'nikmalari turkologiya sohasini takomillashtirishda, /umurturkiy global masalalarni hal qilishda, turkiy tillarda yaratilgan yozma yodgorliklar mazmunni o'zlashtirishda, turkiy tillar, xususan, o'zbek tili taraqqiyot xususiyatlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, milliy til, qardosh tillar tarixi, takomiliga jiddiy e'tibor qaratish

barcha ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning, mamlakat rivojining, millat ravnaqining asosiy mezonini belgilaydi. Tarjima - nutq yoki matn bir tildan boshqa tilga o'zgartirish faoliyati. Hozirgi kunda tilshunoslikning ushbu bo'limi jamiyat hayotining deyarli barcha jabhalarida muhim o'rin tutadi. Tarjima murakkab jarayon. Asl ma'noni to'g'ri etkazish uchun chet tilining xususiyatlarini tushunish kerak. Ba'zan tarjima uchun so'zlarni topish deyarli mumkin emas. Misol uchun, "qayta qurish" yoki "kommunal" atamalarining ekvivalenti yo'q, chunki ular juda o'ziga xos va o'ziga xosdir. Bu so'zlar Rossiya tarixidagi ma'lum bir davrga, ya'ni Sovet Ittifoqi davriga tegishli. Ko'pincha bunday qiyinchiliklarni tilga yoki aksincha, rus tilidan boshqa tilga badiiy tarjimada uchraydi. Natijada munozarali savol tug'iladi: "Asl nusxa bilan ishlashning eng yaxshi usuli qanday?" Tarjimonlar matn shaffof va eng mayda detallarigacha qayta ko'rib chiqishlari kerakmi? Yoki ular uchun asosiy mezon sifatida ish/matn atmosferasiga yopishib olish yaxshiroqmi? Ushbu bahslarni hal qilishda faqat belgilangan standartlar va ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish mumkin: aniqlik va sifat, ma'noni etkazish. Tarjimaning asosiy turlari va shakllari Zamonaviy chet tillari filologiyasi matnlarni janr, uslub va boshqa toifalar bo'yicha ajratib turadi, ularning juda ko'plari bor. Eng keng tarqalgan turlarini ko'rib chiqing. O'tkazmalar quyidagilar bo'yicha tasniflanadi:

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Hozirgi zamonda O'quv jarayonida o'quv qo'llanma sifatida harakat qilish, tinglash asosiy, aslida kommunikativ rollarga qo'shimcha ravishda bir qator yordamchi, pedagogik funktsiyalarni bajaradi. U o'quvchilarning nutq faoliyatini rag'batlantiradi, o'quv jarayonini boshqarishni ta'minlaydi, talabalarni yangi til, nutq va mintaqaviy

geografik material bilan tanishtirish uchun ishlatiladi, ko'nikmalarni rivojlantirish vositasi sifatida ishlaydi, erishilgan nutq darajasini saqlashga yordam beradi, nutq samaradorligini oshiradi. fikr-mulohaza va o'z-o'zini nazorat qilish. Bugungi davrda chet tillarini o'rganishning ahamiyati O'zbekistonda avvalgiga qaraganda ancha yuqori bo'lib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-1875-son qarori chet tilini o'quv fan sifatida boshlang'ich ta'lim tarkibidan to'liq o'rin egallashi, chet tillarni o'rganishga qiziqishni kuchaytirish va xalqning o'rtacha ma'lumot darajasini o'stirish, umumiy madaniyatga talabning oshishi, xalqaro va madaniyatlararo hamkorlikka tayyorgarlikni shakllantirish kabi istiqboldagi vazifalarni amalga oshirishni ko'zda tutadi. bir qancha chet tillari mutaxassislari chet tillarini o'rganishni yangi metod va yo'llarini hayotga tadbir qilishmoqda. bu albatta chet tillarni o'qitish samaradorligini yanada oshiradi. chet tillarida sifat ravishlardagi ma'noni asosiy shakllari va muammolarini tahlili. til insonlar o'rtasida aloqa o'rnatuvchi vosita hisoblanadi. shakl va ma'no xususiyatdagi nazariy muammolar aristotel, platon kabi faylasuflar yashagan davrlardan to hozirgi kunga qadar tilshunolar, faylasuflar va fan arboblari diqqat markazida bo'lib kelgan. chet tillari ko'p ma'noli so'zlarga boy til hisoblanadi. matnda ko'p ma'noli so'zlarni ishlatilishi ularni qo'llanilishini nazarda tutib qolmasdan, matnni ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Sifat so'z turkumi. Uning ma'no turlari haqida ma'lumotlar. Turkumi sifat deyiladi. Sifat asosan otga bog'lanadi va uning belgisini aniqlaydi. Masalan: oq ko'ylak, kuzgi ekin, aqlli qiz, yumshoq non, o'rtancha o'g'il. Bunda belgi bildiruvchi so'z sifatlovchi, uni boshqarib kelgan ot esa sifatlanmish deyiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot olib borish davomida tizimlilik, nazariy-deduktiv xulosa chiqarish, analiz va sintez, tarixiylik va mantiqiylik, qiyosiy-komparativistik tahlil qilingan. Sifat bog'lanib kelgan ot turli so'z o'zgartuvchi qo'shimchalar bilan qo'llanish mumkin, lekin sifat o'zgarmaydi: ko'k qalam, ko'k qalamning, ko'k qalamdan kabi. Sifat gapda asosan a) sifatlovchi-aniqlovchi vazifasini bajaradi: Bir ozdan so'ng yoqimli shamol esa boshladi; b) kesim bo'lib keladi: Osmon tiniq. Sifat ba'zan fe'lga bog'lanib, harakatning belgisini bildirishi mumkin. Bunday holda sifat ravish kabi gapda hol vazifasini bajaradi: U do'stining yuragida kechayotgan tuyg'ularni yaxshi tushunardi. Sifatning ma'no turlari. Sifatlar ma'no jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi: xususiyat bildiruvchi sifatlar: kamtarin, sho'x, ziqla, sodda, yo'rg'a, mehribon; holat bildiruvchi sifatlar: kekxa, badavlat, iliq, tinch, salqin, ochiq, xursand; shakl- ko'rinish bildiruvchi sifatlar:

gavdali, novcha, qiyshiq, yassi;
rang – tus bildiruvchi sifatlar: oq, qora, qizil, pushti;
hajm – o'lchov bildiruvchi sifatlar: keng, tor, uzun, yaqin, katta, og'ir;

maza – ta'm bildiruvchi sifatlar: nordon, achchiq, bemaza, shirin;

hid bildiruvchi sifatlar: muattar, xushbo'y, badbo'y;
o'rin va paytga munosabat bildiruvchi sifatlar: kechki, tonggi, kuzgi, bahorgi.

Tadqiqot metodologiyasi. Jumladan, bugungi kunda sifat va ravishlarning ko'p ma'noliligi o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida bir qator nomutanosibliklarni keltirib chiqaradi. Sifat va ravishlarni matndagi leksik va grammatik xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularni o'quvchiga yetkazish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklarni hisobga oladigan bo'lsak bu mavzuni qanchalik muhimligi ko'zga tashlanadi. Ko'p ma'nolilik kategoriyasini tahlil qilish murakkab tadqiqot bo'lib, bu borada tarjimonning yutuq va kamchiliklarini, o'quvchilarga muqobil variantlar asosida yetkazishdagi tarjimaning turl xil yo'llari va tarjimada vujudga keladigan muammolarni qamrab oladi. Sifat – predmetning rangi, hajmi, shakli, mazasi, xarakteri, psixik holati, o'rin yoki vaqtga munosabati kabi belgilarni anglatadi. Masalan qizil, katta, shirin, baland, yomon, sho'x, ertalabki kabilardir. Sifatlar anglatgan ma'nosidan kelib chiqqan holda asliy va nisbiy sifatlar ajratiladi. Sifatlar ko'p ma'noligiga ko'ra bir qancha qiziqarli muammolarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi va bunda asosan matndan kelib chiqadigan kontekstual ma'noga e'tibor

qaratiladi. Millerning qayd etishicha "Sifatlar boshqa so'z turkumlaridan farqli o'laroq o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ular sinonim va antonimlar bilan aloqa kirishganda tilning lug'at boyligini boyitishga xizmat qiladi". So'zlarda antonym va sinonimlar o'rtasidagi aloqa bir vaqtini o'zida vujudga keladi. Masalan "strong" sinonimlarning butun guruhini tashkil qiladi (sturdy, powerful, tough, etc) va u antonimik aloqasiga ko'ra "weak" bina o'zaro aloqaga kirishib guruhlar ajratiladi (puny or frail). Sifatlar ko'plab ma'nolarda qo'llanilib, kontekstga bog'langan va moslashuvchanlik xususiyatiga ega.

Antonim haqida fikr yuritishda, uni qanday vaziyatda ishlatilishiga qarab fikr yuritiladi. Masalan "light" sifati antonimi "dark" bo'lib kelganda, uni "light"ning boshqa bir antonimi "heavy" dan ajratish kerak. Sifatlar qanda tuzilganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi ya'ni ularni otlar ishtiroki bilan tuzilishi asosiy tahlil vositasi hisoblanadi. Ushbu metodlar ko'p ma'noli sifatlar o'ld ma'nolarni turlarga ajratishni taqozo etgan "Cobuild Dictionary"ni yaratilishiga sabab bo'lgan. Yana bir sifatlar o'rtasidagi ma'noni farqlash uni qanday gap bo'lagi vazifasida kelishini bilishdir. Masalan: My old girlfriend (attributive) My girlfriend is old (predicative).

Sifatlarda o'xshash ma'noni ajratish ham o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Bunda dastlab o'sha ma'noni tushunishga harakat qilinadi, shuni qayd etish joizki ba'zi sifatlar ko'p ma'noli emasdek ko'rinadi. Masalan "lax" yoki "lead" ko'p ma'nolidek ko'rinmasada, ammo ularning beshdan ortiq ma'nolari bor.

Misol uchun: 1)"lax" sifati quyidagi ma'nolarga ega:

1. kuchsiz, zaif
2. nomukammal, talabga javob bermaydigan
3. bo'shashgan 4. bo'sh (idishga nisbatan)
5. qat'iyyatsiz
- 2) "lead" sifati esa quyidagi ma'nolarga ega:
1. qo'rg'oshing o'ld
2. og'ir, qattiq
3. ko'kintir, bo'z
4. bo'shashgan, lohas
5. sekin, qiyinchilik bilan bajarilgan.

Shuningdek, yana shunday ko'p ma'noli sifatlar borki, ularning, ma'nolari oltitadan ortiq bo'lib, ba'zi ma'nolari sifatga yaqin taxminiy ma'nolar sifatida qayd etiladi va munozaraga sabab bo'ladi. Shunday so'zlar sirasiga apart, canonical, deyep, foating, idle, marginal, particular, remote, stable, unbalanced kabilardir. Masalan "deyep" sifati juda murakkab tahlil vositasi hisoblanib, uni 20 dan ortiq bir-biridan farqlanuvchi ma'no shakllarini lug'atda kuzatamiz. Shu bilan birga u bir qancha so'z birikmalari bilan birga o'ziga xos ma'no kasb etadi. Masalan "deyep space" – tubsiz koinot, "deyep design" – jalb qilingan loyiha "deyep freezer"- uzoq saqlaydigan muzlatkich, "deyep green"- tabiatga bog'liq muammolarni hal etuvchi inson, "deyep mourning" qattiq aza tutish, "deyep structure" – murakkab tuzilish, "deyep bodied"- baliqsimon tana, "deyep discount" – og'ir chegirma, "deyep fred"- yaxshi qovurilgan. Bundan ko'rinadiki, sifatlar ma'noga ajratish murakkab jarayon hisoblanadi.

Ravishlar holatni turli shakllari va vazifalarini o'z ichiga olgan so'z turkumi sifatida tez-tez muhokamaga sabab bo'ladi. Ravishlarda grammatik hamda ma'no jihatdan sifatlar bilan bog'liqlik mavjud bo'lib, bu ikkalasini birgalikda qiyoslab o'rganilishini taqozo etadi. Agar ravishlar gapda turli vazifada kelsa, ular ifodalaydigan ma'no ham turlicha bo'lishi mumkin:

1. Cow gives birth to a calf naturally. 2. Naturally, cow gives birth to a calf

Bu ikkita gapni birinchisida "naturally" ravishi "tabiiy ravishda" ikkinchi gapda esa "albatta" ma'nosida ishlatilayapti. "quite" ravishini ma'nosi ham albatta kontekst bilan uzviy bog'liq. Ammo Amerika va Angliyada ishlatilishiga ko'ra bu ravish ma'no jihatdan farq qiladi. Amerikaliklar uni "juda" degan ma'noni ifodalash uchun qo'llasa, Angliyaliklar "ozgina" degan ma'noda ishlatadi. Qo'shimcha qilib aytganda, "quite few" (juda oz miqdorda) degan ma'noni bildirsa, "quite a few" (juda katta miqdorda) degan ma'noni bildiradi. Tarjimada mana shunday holatlarni ham e'tiborga olish lozim. Shu bilan birga "still", "hard", "last", "then", "rarely" kabi ravishlarni ham bir nechta ma'nolari mavjud.

Xulosa va takliflar. Chet tillaridagi ravishlarni tarjima qilishda uchraydigan muammolar va yechim sifatida va ravishlarni ko'p ma'noliligini talqin qilishda grammatik birliklardagi ma'no xususiyati bilan birga, jumla tarkibidagi so'zlarni o'zaro munosabatga kirishish va moslashish holatlarini puxta bilish zarur, aks holda tilning grammatik hamda mantiqiy

meyorlari yo'l qo'ya olmaydigan ifodalar vujudga kelib qolishi mumkin. Chunki tarjimada asliyatda mujassamlasgan fikr tarjima tili vositalari yordamida qayta yaratiladi. Xulosamiz so'nggida shuni qayd etish joizki, tillardagi ko'p ma'nolilik tilni jozibasini sayqallash bilan birga, bir necha asrlardan beri qiziqarli tadqiqot mavzularidan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 dekabrda «Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1875- son qarori. // «Xalq so'zi» gazetasi, 11.12.2012 y., 240 (5660)-son.
2. Doniyorov R. O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. – T.: «Fan», 1977.
3. Jalolov J. Chet tili o'qitish metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1996. -139-b.
4. Kogan V.M. K voprosu o formalizatsii otrasli prava. // «Voprosi kibernetiki i pravo». – M.: «Nauka», 1967.
5. Nasrullo Jumanxo'ja. Qonun tili mezonlari. – T.: «Muharrir», 2010.
6. Reformatskiy A.A. Misli o terminologii. // «Sovremenniye problemi russkoy terminologii». – M., 1986.
7. Sitkina F.A. Terminologiya i perevod: K osnovam sopostavitelnogo terminovedeniY. – Lvov, 1988.



Dildora TUXTAYEVA,

Buxoro davlat universiteti tayanch doktranti, Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Email: d.z.tuxtayeva@buxdu.uz

BuxDPI dotsenti f.f.n, H.O'. Yusupova taqrizi asosida

FRAZEOLIGIK BIRLIKLAR: TOR VA KENG MA'NOLARDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada jahon va o'zbek tilshunosligida olimlar tomonidan frazeologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari ko'rsatib o'tilgan. Shuningdek, tilshunoslarning tomonidan frazeologik birliklarning o'rganish obyektlariga turli tuman yondashuvlariga misollar keltirilib, maqol matal, aforizmlarni frazeologik birliklar bilan aynan bir xil til hodisasi deb qayt etilishining sabablari va ushbu tadqiqotlarni inkor qiluvchi fikr mulohazalar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Frazeologik birliklar, frazeologiya, idoma, turg'un birikma, frazema, o'zgaras so'zlar, so'z birikmasi, maqol, matal, aforizm, metafora, ko'chma ma'no.

PHRASEOLOGICAL UNITS: IN NARROW AND WIDE MEANINGS

Annotation

This article presents the research conducted by scientists in the field of phraseology in world and Uzbek linguistics. Also linguists provide examples of different approaches to the objects of study of phraseological units, analyze the reasons why proverbs, aphorisms are referred to as the same linguistic phenomenon as phraseological units and opinions that deny these studies.

Key words: Phraseological units, phraseology, idiom, set expression, phraseme, fixed words, collocation, proverb, saying, aphorism, metaphor, figurative meaning.

ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИЕ ЕДИНИЦЫ: В УЗКОМ И ШИРОКОМ ЗНАЧЕНИИ

Аннотация

В данной статье представлены исследования, проведенные учеными в области фразеологии в мировой и узбекской лингвистике. Лингвисты приводят примеры различных подходов к изучению фразеологизмов, анализируют причины, по которым пословицы и афоризмы рассматриваются как одни и те же языковые явления наряду с фразеологизмами, а также обсуждают мнения, противоречащие этим исследованиям.

Ключевые слова: Фразеологические единицы, фразеология, фразеология, сложное выражение, фразема, фиксированные слова, разговор, пословица, поговорка, афоризм, метафора, образное значение.

Kirish. Frazeologiya (grekcha frazis-ifoda, logos-ta'limot) XX asrning boshlarida frazeologiya tilshunoslikning alohida sohasi sifatida o'rganila boshlangan. Frazeologiyani umumnazariy masalalari dastlab fransuz tilshunosi Sh. Balli tomonidan o'rganilgan. Sh. Balli o'z asarlarida so'z birikmalarini sistemalashtirib, anglatgan ma'nolari va sintaktik o'ziga xosligidan kelib chiqadigan yaxlitligicha qo'llaniladigan turg'un birikmalarni frazeologizmlar deb ataydi. Sh. Balli frazeologizmlarni semantik hodisa deb qaraydi va semantik xususiyatini frazeologizmlarning mutlaq belgisi deb hisoblaydi [4]. Vinogradov frazeologiyaga lingvistik fan sifatida qaraydi. O'zining tadqiqotlarida frazeologik birliklar haqida ta'limotni ilgari suradi [12].

D.F. Qayumovning ta'kidlashicha zamonaviy tilshunoshlikda frazeologiya termini ikki ma'noda ishlatiladi: birinchidan frazeologik birliklarni o'rganuvchi fan sifatida, ikkinchidan, tildagi birliklarning tarkibiy qismi sifatida. Tilning lug'at tarkibiga nafaqat so'zlar, balki, turg'un birikmalar ham kiradi [6].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Frazeologik birliklar turli davrlarda turli olimlar tomonidan har tomonlama tadqiqot qilingan. Jahon tilshunosligida V.V. Vinogradov, Kunin, N.N. Amosova, A.U. Smirnitkiy va o'zbek tilshunosligida Sh.U.Rahmatullayev, M.E.Umarxo'jayev, A.E.Mamatov, B.Yo'ldoshev, K.T.Bozorboyev, G.I.Ergasheva kabi tilshunoslarning bu sohaga katta hissa qo'shganlar va ular tomonidan frazeologik birliklarning grammatik, semantik funksional-uslubiy jihatlari o'rganilgan.

Natijalar va muhokamalar. Hozirgi kunda biz frazeologik birliklarning o'zbek tili ingliz tilshunoshligida turli xil atamalar frazeologik birliklar (phraseological units), frazeologiya, (phraseology) (phraseologism), frazema (phraseme) ibora (idiom), set expression (turg'un birikmalar), o'zgaras so'zlar (fixed

words) bilan ataymiz. Buning asosiy sabablaridan biri frazeologik birliklarga turli xil ta'riflar va qarashlar mavjudligidir.

Jahon tilshunosligida olimlarning frazeologiya sohasida olib borgan tadqiqotlari tor va keng ma'noli anglashilganligi bilan bir qancha bahs munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Frazeologiyani keng ma'noda tushunuvchi olimlar frazeologik birliklarning tarkibiga maqollar, matallar, aforizmlarni kiritadilar, tor ma'nodagi frazeologiya tarafdorlari esa frazeologik birliklarni ko'chma ma'noli turg'un birliklarni o'rganish bilan cheklanadilar [12].

A.V. Kunin frazeologik birliklarni keng ma'noda tushunib, uning obyektiga "murakkab ma'noli" barcha turg'un birikmalarni kiritadi. Ya'ni maqollarni ham frazeologik birliklarning obyektiga kiritadi. Aytib o'tilgan fikrga misol tariqasida tilshunos V.N.Teliya frazeologiya obyekti xususidagi fikrlarini umumlashtirar ekan, u quyidagi fikrni ilgari suradi: ba'zi olimlar frazeologiyani ichiga faqat ikki guruhni – idiomalar va frazeologik birliklarni kiritadilar, boshqalari maqollar va matallarni ham frazeologiyani bir qismi deb hisoblaydilar. Bu guruhga ba'zida turli xil klishe, qanotli iboralar ham kiritiladi. Bu birliklarning hammasini bir xususiyat birlashtiradi: bir necha so'zdan iborat bo'lish va mulohazada ularga bo'lgan ehtiyojning kuchliligidir. Boshqacha qilib aytganda frazeologizmlar tarkibini tayyor holatda bo'lgan va avvaldan mulohazada ishlatilgan so'z birliklarini tashkil etadi [7].

Bundan tashqari boshqird tilshunosi Z.G.Uraksinning ilmiy ishlarida frazeologiya obyekti tor ma'noda tushunish tarafdori ekanligi aks etgan. U o'zining "Boshqird tili frazeologiyasi" monografiyasida tayyor holda mavjud, takror qo'llanuvchi, a'zolari orasidagi o'zaro bog'lanishi turg'un va yaxlit ma'noli frazeologizmlarni tahlil qiladi, frazeologizmlarni turg'un birikmalarining bir qismiga kiritib va boshqa tipdagi

turg'un birikmalardan obrazliliği bilan farqlari mavjudligini ko'rsatadi [11].

O'zbek tilshunosligida frazeologiya bo'yicha bir qancha ilmiy izlanishlar olib borgan tilshunos Sh. Rahmatullayev quyidagi fikrni izohlaydi. Iboraga o'xshab ketadigan, shu sababli iboralar bilan bir qatarga qo'yib, frazeologiya doirasiga kiritib yuriladigan ba'zi boshqa hodisalar ham bor. Bular- maqol, aforizm, qanotli so'zlardir. Shu bilan bir qatorda Sh. Rahmatullayev ham frazeologiyani tor va keng tushunish tarafdorlariga to'xtalib, uning o'rganish obyektini tor tushunishni to'g'ri ekanligini takidlaydi [8]. Uning fikricha hodisalar orasida faqat tashqi o'xshashlikning bor bo'lishi ularni yagona sistemaga birlashtirish uchun uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Shuning uchun ham frazeologik birliklar (iboralar) unga o'xshab ketuvchi hodisalardan farqlanishi lozim.

Ibora bilan maqol bir biriga o'xshash, ammo parallel hodisalardir. Maqol koinot qonuniyatlarini kuzatish, turmush tajribalariga suyanish asosida chiqarilgan xulosalarning qisqa mazmundor ifodasidir. Maqol mazmunan voqealikka bevosita qaratilgan bo'lishi yoki majozga asoslangan bo'lishi mumkin. Maqol o'zi anglatayotgan voqealikka qarata ishlatiladi. Masalan, Yer haydasang, kuz hayda, kuz haydamasang yuz hayda maqoli orqali yerni vaqtida haydash zarurligini anglatish maqsadida keltiriladi. Bunday maqollardan anglashilgan mazmun to'g'ri ma'noli turgun bog'lamlarni eslatadi.

Maqolga asoslangan tabiiy aynan o'zi anglatgan voqealikka nisbatan emas, balki o'xshash voqealikka nisbatan keltiriladi. Qo'shning ko'r bo'lsa, ko'zingni qis maqolida misolida maqol tarkibidagi so'zlarni hech kim to'g'ri tushunmaydi. Lekin "atrofingdagi kishilar o'zini qanday tutsa, sen ham o'zingni shunday tut ularidan farqlanib qolma" kabi mazmun ifodalanadi. Bunday mazmun esa iboralardagi kabi gavdalanadi. Ammo ulardagi farq shundaki, iboradan anglashiladigan ma'noni, xuddi so'zdan anglashiladigan ma'no kabi ta'riflash mumkin; maqoldan anglashiladigan mazmun esa tasviriy yo'l bilan ochiladi. Iboralarda ifodalanadigan ma'noda lug'aviy ma'no bo'ladi, shuning uchun ibora lug'aviy birlik hisoblanib, tilning lug'at boyligiga kiradi; maqoldan esa pand-nasihat, yo'l-yo'riq ko'rsatish yo'sinidagi umumlashma anglashiladi, u keng mazmunli va ixcham shaklli badiiy asar hisoblanadi.

Buni yana boshqa misollarda ham ko'rishimiz mumkin ko'rpasiga qarab oyoq uzatmoq- ibora, ko'rpangga qarab oyoq uzat - shu iboraning maqolga teng shakli; aravani quruq olib qochmoq- ibora, Aravani quruq olib qochma!- shu iboraning maqolga teng shakli; besh panja(sini)ni og'z(i)ga tiqmoq - Besh panjangni og'zingga tiqma!; Temirni qizig'ida boshmoq- Temirni qizig'ida bos kabi.

Misollardan ko'rinadiki, iboraning ma'lum bir shakli maqol ko'rinishida bo'lishi mumkin. Ammo ularni bir biriga tenglashtirib bo'lmaydi. Mazkur misollar ibora va maqolning bir hodisa emas balki parallel hodisalar ekanligi ko'rsatadi.

Ularining yana bir farqi shundaki, maqollar o'z grammatik qurilishi jihatdan doim gapga teng bo'ladi, iboralarda esa bir xillik yo'q: ular ham birikmaga, ham gapga teng bo'la oladi. Sh. Rahmatullayev shu bilan birga ibora, aforizm va maqollarni taqqoslar ekan, turg'unlilik hodisasiga ham alohida to'xtalib o'tadi. Shu ikki narsani qorishtirmaslik kerak: nutqqa tayyor holda kiritish talabi boshqa-yu, turg'unlilik belgisi boshqa. Aforizm aynan ko'chirma bo'lganligi tufayli hech qanday o'zgarishga yo'l qo'yilmaydi, ammo shu asosda uning tarkibidagi so'zlar

turg'unlik kashf etmaydi. Iboralar esa bu jihatdan har xil: o'zgarishga yo'l qo'ymasligi mumkin yoki ma'lum darajada yo'l qo'yishi mumkin. Ammo iboraning tarkibi qanchalik o'zgarmasin, bunday o'zgarish, avvalo, til sistemasi yo'l qo'yg'an doirada voqe bo'ladi, ikkinchidan, bunday o'zgarishlar iboraning turg'unligini buzmaydi, shu turg'unlik yo'l qo'yg'an darajada amalga oshiriladi. Aks holda ibora yo'qqa chiqadi [8].

Tilshunos olim Ginzburg maqol, matal va sitatalarni frazeologik birliklardan farqlaydi. Va ularning farqi haqida iboralar nutqda tayyor holda mavjud va uning tarkibidagi so'zlarni o'zining mustaqil ma'nosini yo'qotib maxsus ma'no ifodalaydi degan fikrni aytib o'tadi. Funktsionalizm tarafdorlari maqollar frazeologik birliklarning sohasiga aloqador emas deb ta'kidlaydilar. Birinchi navbatda bunday birliklarning o'ziga xos alohida xususiyati mavjudligini ta'kidlab, frazeologizmlar asosan metaforaga asoslanadi masalan, to carry coals to Newcastle, to fall between two stools, or fine feathers make fine birds kabi iboralar misolida ko'radigan bo'lsak, ushbu birliklarning ma'nosi ularning tarkibidagi so'zlar ma'nosidan emas, balki uning umumiy metaforik ma'nosidan anglashilyapti deb hisoblaydilar [3].

Abdimurod Mamatovning fikriga ko'ra frazeologiyani "tor" va "keng" ma'noda tushunmaslik kerak, ya'ni uni bir ma'noda tushunish zarurligini aytadi. Uning fikricha frazeologizmlar qanday til birliklari deb tasnif qilinishidan qat'iy nazar, aforizmmi, maqol yoki matalmi, turg'un so'zlashuv formulalarimi, "qanotli so'zlarmi", xullas agar ular frazeologizmning ta'rifiga mos tushsa, undagi talablarni bajara olsa, ya'ni tuzulishi jihatdan so'z birikmasi yoki gapga teng bo'lgan obrazli, umumlashgan ma'no anglatadigan leksik elementlari qisman yoki to'liq ko'chma ma'noga ega bo'lgan lug'atlarda qayd etilgan har qanday turg'un birliklar frazeologik birliklar tarkibiga kiritilishi shart [7].

Berdiyev va R. Rasulov paremiologiya va frazeologiyani bir biridan farqlab, paremiologiya frazeologiya bilan uzviy bog'liq ekanligini, "paremiologiya tilda turli xarakterdagi barcha frazeologizmlarni o'rgansa, frazeologiya uning bir qismi sifatida faqat ko'chma ma'noli turg'un birikmalarni o'rganishini qayd qilib o'tadilar [2]. Frazeologik birliklar va paremiylarni qiyoslashda tillararo lingvomadaniy farqlar yorqin ifodalanadi, zero frazeologiya milliy obrazlar, ya'ni turli xalqlarning madaniy konseptlari bilan chambarchas bog'liq [15].

L. Jafarovning tadqiqotiga ko'ra maqol va idiomalar matnda bir xil komponentlarga ega. Idioma va maqollar o'rtasidagi asosiy farq shundan iboratki, idiomalar ham sintaktik hamda leksik jihatdan bir birida ajratilsa bo'ladi, maqollar esa frazeologik birlik va idioma sifatida alohida qismga bo'lingan holda ham ajratilsa va nutqda ishlatila olinadi [5].

Xulosa. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan izlanishlardan shuni ko'rishimiz mumkinki, ibora, maqol, aforizmlarning umumiy xususiyatlaridan bu ularning nutq jaroyida yaratilmasligi ya'ni tayyor holda mavjudligi va turg'unlilik hodisasidir. Shunday ekan ulardagi bu jihatlar ularni bir hodisa sifatida qarashga asos bo'la olmaydi. Chunki ularni bir biridan farqlovchi turli tuman belgilari mavjud. Xulosa qilib qilib aytadigan bo'lsak, maqol, aforizm, matalni frazeologik birliklar bilan bir o'rinda bir xil xususiyatga ega birlik sifatida qarash haligacha o'z yechimini topgani yo'q. Frazeologik birliklarni boshqa til birliklaridan ajratib turuvchi farqlari haqida bahs, munozaralar davom etyapti va bu borada olimlar tomonidan turli izlanishlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ashurova D.U, Galiyeva M.R.-"Cultural linguistics"-Toshkent-2019.-70-74p
2. Berdiyev H, Rasulov R, O'zbek tilining paremiologik lug'ati-Toshkent: O'qituvchi, 1982- 10b.
3. Ginzburg R.S. "A course in modern lexicology". - Moscow: Moscow, 1979. - 80-83b.
4. Jumanazarova G., Boltayeva B., Qulboyeva D. Frazemalarning nutqda qo'llanishi-Toshkent: Turon zamin ziyo. 2017.-6 b
5. Jafarova L. Challenges in translating phraseological units//Academy publication. Theory and practice in language studies-German, 2016.-Vol 6.N7.-1345b.
6. Каюмова Д.Ф., Хрипкова Д.И. Лингвокультурная специфика фразеологических единиц с компонентом модальности // Вестник КазГУКИ. - Казань, 2016. - № 3. - С. 84.
7. Mamatov A.E. Hozirgi o'zbek adabiy tilida leksik va frazeologik norma muammolari- Tosh, 1991.-212 bet
8. Rahmatullayev Sh. "Nutqimiz ko'rki"- Fan nashriyoti: Toshkent-1970.- 30-33b
9. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati- Toshkent: O'qituvchi, 1978

10. Тухтаева Д., Иззатиллоева, С. (2024). Ingliz va o'zbek tillarida "yaخشilik" konseptini ifodalovchi maqollarning milliy-madaniy xususiyatlari. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 4(S/1).
11. Ураксин З.Г. Фразеология башкирского языка. -М., 1975. -С. 22.
12. Виноградов В.В. "Лексикология и лексикография".-М.:1977.-8-9с
13. Телия В.Н."Русская Фразеология: семантический, прагматический или лингвокультурологический аспекты" -М.:1996.-107с.
14. Yo'ldoshev B., Pardayev Z. "O'zbek frazeologiyasidan materiallar", 4 – qism, Samarqand.:Sug'diyon nashriyoti, 1997
15. Юсупов У.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики.- Т.: Фан, 2007. - 67с.)
16. Zokirovna T. D., Norboboyevna T. G. (2021). The comparative analysis of english and uzbek phraseologies representing human intellectual+ abilities in semantic field. Евразийский журнал академических исследований, 1(9), 438-442.



Normuhammad UBAYDULLAYEV,
O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti dotsenti, PhD
E-mail: normuhammadubaydullayev@gmail.com

DSc, dotsent T.Qo'chqarov taqrizi asosida

“MAKORIM UL-AXLOQ” – BIOGRAFIK XARAKTERDAGI ASAR

Annotatsiya

Ushbu maqolamizda, Hazrat Navoiyning umr yo'lini o'rganishga bag'ishlangan “Makorim ul-axloq” asaridagi biografik xarakterga ega o'rinlarni tahlil qildik. “Makorim ul-axloq” (“Oliyjanob xulqlar”) buyuk bobomiz Alisher Navoiyga minnatdorchilik ramzi sifatida yozilgan asar bo'lib, Xondamir Navoiy vafot etib qolganligi sababli kitobni taqdim etishga ulgurmay qolgan. “Makorim ul-axloq”da Xondamir Navoiyning yuksak insoniy fazilati, olijanob axloqi, asarlari, uning tashabbusi bilan qurilgan binolar, unga zamondosh shoir, olim va fozil kishilar, shuningdek, Xurosonning o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Navoiy bilan Husayn Boyqaro orasidagi munosabatlar xususida hikoya qiladi.

Kalit so'zlar: Alisher Navoiyning hayot yo'li, kitobxon, “Makorim ul-axloq” asari, xotira, zamondoshlar fikri, didaktik dostonlar, biografik ma'lumotlar.

“MAKORIM UL-MORALS” – A WORK OF A BIOGRAPHICAL NATURE

Annotation

In this article, we analyzed the places with a biographical character in the work “Makorim ul-ethics”, dedicated to the study of the life path of Hazrat Nawai. “Makorim ul-Mora” (“noble conduct”) was a work written as a symbol of gratitude to our great-grandfather Alisher Nawai, and Khondamir had no time to present the book as Nawai had died. In “Makorim ul-ethics”, Khondamir narrates the story of Nawai's high human virtue, Noble morality, works, buildings built on his initiative, to him contemporary poet, scholar and fozil, as well as the socio-political situation of Khurosan at the time, the relationship between Nawab and Husayn Boyqaro.

Key words: Alisher Nawai's life path, the reader, the work “Makorim ul-morals”, memory, contemporary thought, didactic epics, biographical information.

“MAKORIM UL-AXLAK” – ПРОИЗВЕДЕНИЕ БИОГРАФИЧЕСКОГО ХАРАКТЕРА

Аннотация

В этой статье мы проанализировали места биографического характера в работе “Makorim ul-Ahlak”, посвященной изучению жизненного пути хазрата Навои. “Makorim ul-Ahlak” (“благородные поступки”) - это произведение, написанное в знак благодарности нашему прадеду Алишеру Навои, который не успел представить книгу из-за смерти Хандамира Навои. В “Makorim ul-Ahlak” Хандамир рассказывает о высоких человеческих качествах Навои, благородной морали, трудах, зданиях, построенных по его инициативе, о поэте, ученом и добродетельных людях, которые были его современниками, а также о социально-политическом положении Хорасана в то время, об отношениях между Навои и Хусейном Бойкара.

Ключевые слова: Жизненный путь Алишера Навои, читатель, работа “Makorim ul-Ahlak”, память, мнение современников, дидактические былины, биографические данные.

Kirish. Alisher Navoiyning “Ikki vafoli yor” hikoyati yoki “Farhod va Shirin” dostonidagi yuksak insoniy tuyg'ular tasviri tahliliga kirishsa, o'qirman mohiyatini yaxshi anglaydi. Navoiy tabiatiga xos olijanoblik aks etgan hikoyat bilan tanishilgach, o'quvchilar “Ikki vafoli yor” hikoyatidagi bosqinchi hukmdordan dor tagida oldin o'zini o'ldirishlarini so'ragan ikki do'stning fidoyiligi shunchaki bir badiiy to'qima emas, balki muallif Alisher Navoiyning baland shaxsiyatidagi sifatlarining badiiy asarda namoyon bo'lish yo'sini ekani o'quvchilarga yetib boradi va asarning ta'sir kuchi necha baravarga ortadi.

Shuningdek, “Farhod va Shirin” dostonida Farhodning ota taxtini egallashdan bosh tortishi, o'ziga mutlaqo begona bo'lgan odamlarga yordam berib, toqqa suv chiqarishi, Eron shohi Xusravning barcha qo'riqchilarini o'ldirib qutulib ketishi mumkin bo'lgani holda ularning jazoga tortilishini o'ylab zindonga qaytib kelishi singari tasvirlarda Navoiyning shaxsiga xos xususiyatlar borligini bilgan o'quvchilar endi doston matniga o'zgacha nazar bilan qaraydilar. Farhodning komil shaxsligi borasidagi suhbat faqat badiiy tasavvur mahsuli emas, balki muallif shaxsiyatidagi fazilatning estetik qayta ishlangan ko'rinishi o'laroq o'quvchilar qalbiga muhrlanib qoladi. Bu yo'nalishdagi suhbat samimiy, doston matnidagi kelib chiqadigan va uning asl mohiyatini anglashga yo'naltirilganligi bilan o'zgacha didaktik qiymat kasb etadi.

Asosiy qism. Alisher Navoiyning hayot yo'lini ancha keng miqyosda to'la o'rganish ko'zda tutiladi. Ana shu didaktik samarador bo'lishiga erishishda Davlatshoh Samarqandiyning

“Shoirilar bo'stoni” kitobining “Nizomiddin Alisher Navoiy” nomli bo'limidan olingan quyidagi parchani o'qib berish hazrat Navoiyning shaxsiyatidagi ezgu fazilatlarining manbasi qayerda ekanligini chuqurroq anglab yetishga xizmat qiladi: “Bu nomdor va oliy darajali amirning otasi zamonasining mashhur kishilaridan va Chig'atoy ulusi ulug'laridandir. Sulton Abulqosim Bobir bahodir hukmronligi davrida mamlakat idorasi va davlatga kafillik uning qo'lida bo'lib, sultonning yaqin kishisi edi. Fozilligi tufayli o'g'liga fazilat o'rgatishni tark etmadi, tamom himmatini saodatli farzandini fazl bezaklari bilan ziynatlash va hidoyat nurlari bilan ravshan etishga sarfladi... Ul buzrukvorning tirishqoq harakati behuda ketmadi va otadan nodiri davron izzatu tamkinlik kursida qaror topdi. ...U hamma vaqt fazilat orttirishga intildi, fazl egalari bilan suhbatda bo'ldi. Uning karamli ta'bi va o'tkir zehni she'r aytish, osor va xabarlarini o'rganishga qaratildi. Yoshlik chog'laridayoq ikki til egasi, turkiy shevarda sohibi fan, forsiyda sohibi fazl bo'ldi”[1]. Ushbu ma'lumot Alisherning hazrat Navoiy darajasiga yuksalishida otasining donishmandligi naqadar katta o'rin tutganini ko'rsatish bilan birga G'iyosiddin kichkinaning juda martabali aslzoda zot bo'lganidan darak beradi. Shuningdek, Alisherning Husayn Mirzo bilan munosabati ko'ngil va qarashlar yaqinligidan tashqari, nasablar, martabalar yaqinligiga ham asoslanganini anglatishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda, Alisherning yuksak darajaga ko'tarilishida unib-o'sgan oilaviy muhit bilan birga uning tengsiz iqtidori, tirishqoqligi, mehnatsevarligi ham hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgani yuqoridagi parchada aks etadiki, bu ma'lumot Navoiy hayot va

ijod yo'lini o'rganishga bag'ishlangan saboqning qiziqarli va esdan chiqmaydigan bo'lishiga olib keladi.

Bu borada hazrat Navoiyning yosh zamondoshi, shogirdi, uning marhamatidan ko'p bahramand bo'lgan tarixchi G'iyosiddin Xondamirning "Makorim ul-axloq" (Olijanob xulqlar) biografik kitobi juda qiziqarli ma'lumotlar beradi. Negaki, ushbu asar to'lig'icha hazrat Alisher Navoiyning hayot yo'li va shaxslik xususiyatlarini yoritishga bag'ishlangan. Asarda mutafakkir shaxsiga xos yuksak insoniy sifatlar uning hayotdagi tutumlari, odam va olam hodisalariga munosabatlari, yurish-turishlari, aytgan gaplari, qabul qilgan qarorlari bevosita shu holga guvoh bo'lgan kishi tomonidan yozilgan. Ayni shu hol bu ma'lumotlarga joziba bag'ishlaydi. Negaki, ularda hazratni ko'rgan, uning odamiyligidan bevosita bahramand bo'lgan kishi muhabbatining harorati sezilib turadi.

Kitobning bir o'rnida Husayn Mirzodan haj qilishga qayta-qayta ruxsat so'ragan, ammo har safar ham vaziyat taqozosi sabab ijobiy javob ololmagan shoirning sultonga qarata aytgan "..."qutlug' shaxsingiz vakolati bilan qolgan umrimni Ansoriyning tabarruk maqbarasi ostonasini supuruvchilik bilan o'tkazishimga va [saroy] mulozimligi ishidan butunlay bo'shashimga ruxsat bersangiz"[2], – tarzidagi iltimosi qayd etilgan. Bu so'rovda buyuk shoir shaxsiyatiga xos olijanoblik, xokisorlik, bag'rikenglik sifatleri naqadar bo'rtib ko'ringani kitobxonlarga to'la yetib boradi.

"Makorim ul-axloq"ning boshqa bir o'rnida nihoyat hukmdordan hajga ruxsat tekkan vaqtda yurtning oqsoqollari vaziyatning qaltisligi, shunday paytda hazratning uzoq vaqtga ketib qolishi, mamlakatda notinchlik, taloto'p boshlanishi mumkinligi sabab, hajni keyinga qoldirishni so'raganlarida Alisher Navoiyning: "...hozir o'zimizning istagimizni sizning iltimosingizdan ustun ko'rishning o'zni emas. Qolaversa, «Mo'minlar qalbiga xursandchilik kiritish butun odamlar va jinlarning qilgan ibodatidan yaxshiroqdir», – degan hadisga asoslanib, sizning iltimosingizni ijobat etishga loyiq deb topdik va bandalarning manfaatini ko'zlab, bu safar ham ushbu istagimizdan qaytdik"[3], – yo'sinida javob bergani tasvirlanadi.

O'quvchilar hazratning oqsoqollarga bergan javobidan uning shaxsiyatiga xos eng go'zal sifatleri yaqqol ko'radilar. Shar'iy ahkamlarni g'oyat puxta biladigan, islom farzlarini mukammal ado etadigan va hajga borish imkoni bo'lgani holda o'ziga savobi tegishi mumkin bo'lgan ishdan voz kechib, ko'pchilikning tinchligini o'ylay oladigan Alisher Navoiyning qanday buyuk ekani o'quvchilarga hech bir qo'shimcha tushuntirishlarsiz anglashiladi. Ayni shu jihatlar shoir yaratgan

asarlari qahramonlaridagi fidoyilik, o'zdan kechish, olijanoblik fazilatleri qayerdan paydo bo'lgani va nima sababdan ishonarli tasvirlanganini chuqurroq tuyish va tushunish imkonini beradi.

Xondamir Alisher Navoiy odamlarga qilgan barcha yaxshiliklarning qanchalik beg'araz va chin yurakdan bo'lgani to'g'risida: "Amirning muborak xulq-atvorleri xuddi shunday bo'lib, [ul zotning] cheksiz yaxshilikleri bu borliq olamda shuhrat topish yoki abadiy olamda katta savobga erishish uchun qilingan emasdi. Chunki bu dunyo va undagi narsalar ul zotning himmat nazarida bir somon xasichalik qimmatga ega emasdi. Ammo cheksiz ochiqqo'llik va saxiylik xislatiga ega bo'lishiga qaramasdan, hyech qachon hyech kimga bir arpa donichalik ham minnat qilmasdi"[4], – deb yozadi. Hazratning tabiatidagi atrofidagi ko'plab odamlarga rahmat eshitish yoki savob olish uchun emas, shunchaki ezigulik qilishi, yaxshilik qilishi mumkin bo'lgan holatda uni qilmasdan turolmasligi sifatleri ulug' mutafakkir shaxsiyatidagi bunday go'zal fazilatleri asarlari qahramonleri ham o'tgani o'quvchilarga kuchli ta'sir qiladi.

"Makorim ul-axloq"da Navoiyning cheksiz darajadagi qo'li ochiq va saxiyliqi faqat muhtoj odamlargagina emas, balki podshoh saroyi ehtiyojleri ham davlatini ayamaganini: "Shunday holatlar ham ko'plab yuz berganki, Sohbiqiron Sulton saroyi amaldorleri ayrim zaruriy xarajatlar uchun katta miqdordagi pulni (soliqlar sifatida to'lash uchun) xalq zimmasiga yuklashmoqchi bo'lishganida, qalbi dengizday keng bo'lgan bu Amir xalq qiyinalib qolmasligi va bu narsa saltanat qasri poydevorining larzaga kelishiga sabab bo'lmasligi uchun o'sha pulni o'z xazinalaridan to'lab yuboradilar"[5], – deya tasvirlaydi. Hazrat Navoiyga xos bunday olijanob xususiyatlardan xabardor qilish har bir o'quvchiga ikki jihatdan ijobiy ta'sir qiladi: birinchidan, bola Alisher Navoiyday go'zal fazilatlar o'zida ham bo'lishiga intiladi, ikkinchidan, shoir bitgan asarlardagi qahramonlardagi ezigu sifatleri tushunish va qabul qilishi osonlashadi.

Xulosa. Fiyosiddin Xondamirning «Makorim ul-axloq» («Olijanob xulqlar») asari buyuk o'zbek shoiri va mutafakkiri, davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning hayoti, adabiy, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy faoliyati to'g'risidagi ma'lumot beradigan qimmatli manba hisoblanadi. Xondamir Hazrat Navoiyga sadoqat bilan xizmat qilgan. Umrining so'nggi kunlarigacha uning yonida bo'lgan. Shuning uchun so'z mulkining sultoni haqidagi voqealarni, biron bir olim-u fuzalo u kabi aniq yozib qoldirmagan. Bu hol Alisher Navoiy shaxsiyati va ijod yo'lini o'rganishga qaratilgan adabiyot saboqlarida "Makorim ul-axloq" asaridan keng foydalanishni taqozo qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –Б.188-189.
2. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. –Б.90.
3. Зайниддин Восифий. Бадоеъ ул-вақоеъ. –Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. –125 б.
4. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. –Б.97-98.
5. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар.11 жилд.–Тошкент:Маънавият, 2000. –256 б.
6. Ғиёсиддин Хондамир. Макорим ул-ахлоқ. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги НМИУ, 2017. –123 б.
7. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. –Т.:Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. –189 б.



Hulkar RAJABOVA,
ToshDO'TAU mustaqil izlanuvchisi

PhD, dotsent N.To'xtayeva taqrizi asosida

**QISSADA EKZISTENSIAL QAHRAMON VA UNING JONZODLAR BILAN YASHASH MOTIVI (SHUHRAT
MATKARIMNING "MAQAR" QISSASI MISOLIDA)**

Annotatsiya

Maqolada ekzistensial qahramonlar odatda jamiyatdan chetga surilgan, o'z xayollari, tuyg'ular va ichki qarama-qarshiliklari bilan kurashadigan shaxslar xususida so'z yuritilib, ularning ko'pincha o'z hayotining mohiyatini izlashi yoki mavjudlikning bekorligini his qilishi tahlilga tortiladi. Shuningdek, ekzistensial qahramon va jonzodlar (hayvonlar, tabiat, afsonaviy mavjudotlar) o'rtasidagi munosabatning turli ma'nolari talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Ekzistensial qahramon, qissa, hayot, obraz, harakter, yolg'izlik, voqea.

**EXISTENTIAL HERO IN THE STORY AND HIS MOTIVE OF LIVING WITH CREATURES (ON THE EXAMPLE OF
SHUHRAT MATKARIM'S STORY "MAKAR")**

Annotation

The article discusses existential heroes, usually individuals who are excluded from society, struggling with their fantasies, emotions, and internal contradictions, and analyzes their often searching for the meaning of their lives or feeling the futility of existence. It also explains the various meanings of the relationship between the existential hero and creatures (animals, nature, mythical creatures).

Key words: Existential hero, story, life, image, character, loneliness, event.

**ЭКЗИСТЕНЦИАЛЬНЫЙ ГЕРОЙ В ИСТОРИИ И ЕГО МОТИВ ЖИЗНИ С СОЗДАНИЯМИ (НА ПРИМЕРЕ
РАССКАЗА ШУХРАТА МАТКАРИМА «МАКАР»)**

Аннотация

В статье рассматриваются экзистенциальные герои, как правило, люди, которые маргинализированы обществом и борются со своими фантазиями, эмоциями и внутренними конфликтами. Анализируется их поиск смысла жизни или чувство тщетности существования. Интерпретируются также различные смыслы взаимоотношений экзистенциального героя с существами (животными, природой, мифическими существами).

Ключевые слова: Экзистенциальный герой, история, жизнь, образ, характер, одиночество, событие.

Kirish. Yozuvchilar bor-ki, hayol ummoni tubidan rangorang badiiy so'z – marvaridlarini terib, shunday hayoliy obraz yaratadi-ki, u haqiqiy hayotday go'zal va takrorlanmasdir. Yana yozuvchi bor-ki, voqealar, syujet, qahramonlarni o'ylab topmaydi, ularni real hayotda qanday bo'lsa shundayligicha tasvirlaydi. Yozuvchi Shuhrat Matkarim hayotda ko'rgan kechirganlarini qog'ozga tushiradi. Hech qanday hayoliy to'qimasiz qahramonlarini yaratmaydi, ular bilan birga nafas oladi, umrguzaronlik qiladi.

Shuhrat Matkarim qissalaridagi obrazlarning hayotda ham prototiplari bor. Yozuvchini qaysidir voqea, voqelik yoki atrofidagi biror kishining xarakteri ta'sirlantirsa shu zahotiyoq ularni asarlarining obrazlariga aylantiradi. Barchaga ma'lum qoida - yozuvchi o'zi ko'zlagan g'oyani olib chiqishi uchun faqat real hayot va faqat real obrazlardan foydalanmaydi. Boriga qo'shib-chatadi, yo'g'ini o'ylab topadi. Shuning uchun asardagi obrazlarning faqat real yoki faqat to'qima bo'lishi juda qiyin. Xuddi pishiq mato ishlab chiqarish uchun sanoatchilar tabiiy tolaga ma'lum miqdorda sun'iy qo'shgani kabi yozuvchi ham asarlarida ham real, ham xayoliy to'qima obrazlarni uyg'un qo'llaydi. Asosiy gap obrazning hayoliy yoki to'qima bo'lishida emas. Eng muhimi yozuvchi o'zi ko'zlagan fikrini ta'sirli bir tarzda o'quvchiga yetkaza olishidadir. Obraz u xoh to'qima (hayoliy) xoh real bo'lsin o'quvchini hayratlantirishi, hayajonlantirishi, yig'latishi, kuldirishi kerak. Buning uchun esa yozuvchidan iqtidor va mahorat talab qilinadi. Huddi shunday Shuhrat Matkarim ta'kidlaganidek, qariya Maqar obrazi ham yozuvchi atrofidagi bir shoira tanishining otasi haqidagi gurgunlaridan tug'ildi.

Maqar-o'zbek otalariga xos fazilatlarini o'zida mujassam etgan qadriyat namunasi. Maqar – ko'ngil odami. Birovga qattiq gapirmaydigan, ming azob bilan qarmoqqa tushirgan baliqlarini uning yo'lini ko'z tikib, ko'chani to'ldirib, "ana Maqar kelayotir, ana itil" deya, qichqirayotgan bola-baqruga ulashgan, qishloqdagi

har bir kishining yetti pushtigacha biladigan, so'rashadigan mehr-oqibat odami. Masalaning yana bir tomoni Maqar cholning o'z ismi emas. Uning asl ismi Husinboy, bir vaqtloari mulla qulog'iga shunday deb azon aytgan. Bir sabab bilan tuman voyenkomi u bilan muloqotda, "Spasibo Makar Mitrofonovich!" deydi. Makar Mitrofonovich deb o'ris o'zining ismini aytdimi yo Ho'sinboyshga shunday murojaat qildimi bu qorong'u. Ammo odamlar endi Ho'sinboyga Makar Mitrofonovich, Makar Mitrofonovich, keyin Makar, Makar deb murojaat qiladilar. Keyinchalik xalqning tilida Makar Maqarga aylanadi va Ho'sinboy Maqarga aylanadi. Xalq ichida Husenboyning Makarga, Makarning Maqarga aylanishi esa qissaga o'zgacha estetik zavq beradi.

Ha, "Maqar" u yoki bu, o'zga insonlar haqida emas. Bu qissa bugun bilan erta o'rtasidagi mavjud bo'lgan oraliq haqida. Bu asar bir avlod bilan ikkinchi avlod o'rtasida uzilib qolgan ko'priq haqida. Bu qissa go'dagini jajji qo'lchalaridan tutib, tetapoya qildirgan, endi esa qo'llari havoda qolgan qaltiroq barmoqlar haqida. Bu kitob bir zamonlar halovatini o'ylamay dardlarini ichga yutib, alla aytib, farzandining har qanday orzularini ro'yobga chiqargan, hech nimaga zoriqtirmagan, o'zi farzandlar diydoriga zoriqqan, ayni dam jim qolgan lablar haqida. Eng yomoni men uchun nima qildinglar, deya iddao qiladigan farzandlar haqida. Bu qissa o'kinch bilan yozilgan mehr-oqibat haqida.

Xuddi shunday, "Maqar" chol ham baliqchilik ketidan ro'zg'orini tebratgan, farzandlarini boqqan ayni paytda esa o'ziga qarilikdan butun a'zoyi badani og'riqdan ingrayotgan, ko'rimsiz qarib-churib ado bo'lgan itni hamroh qilgan yolg'izlikdagi inson obrazi. Ichidagi bor dardini, oilasi, bolalari haqidagi gaplarini, bir emas, ikki emas o'n nafar farzandi o'rniga "Xorazm yo'lbarisi" (chol hamrohini shunday ta'rifiydi) itga to'kib sochadi.

Ikki qari do'st. Eng qizig'i, bir tomon faqat gapiradi, ikkinchi tomon esa jimgina tinglaydi.

Maqar - ekzistensial qahramon. U hayotning ma'nosi, erkinlik va tanlov, yolg'izlik, begonalik kabi mavzular bilan kurashadi. Maqar jamiyatga moslasha olmaydi. O'z hayotining ma'nosini anglashga kirishadi. Insonlarning mavjudligidagi ziddiyatlarni boshidan kechiradi. U jamiyat bilan kelishib yashashda qiynaladi. O'zini atrofdagilarga nisbatan begona hisoblaydi. Lekin "u atrofdagilarni yetti urug'igacha taniydi. U suhbatdoshingning faqat o'zini, oilasini emas, ularning qishloqda ne chotig'i(eng uzoq qarindosh) bo'lsa hammasini bir-bir so'rab chiqadi. Ba'zilar gohida dovdirlab ham qoladi. "Kimni aytayotirsiz, Xusen ota? Falonkas deganingiz kiim?" Maqar miyig'ida kuladi. So'ng jiddiy tortib so'rayotgan odamining u bilan qanday qarindoshligini tushintiradi[1]."

Ba'zilarga bu so'rashish yoqmaydi. Uning bu odatini "Vos-vos bo'lib qolgan bu qarri" deydi. Aslida hozir ham qishloq va ovullarda yoshi kattalar kichiklardan yetti pushitini so'rash odatini kanda qilishmaydi. To'g'ri shaharda bunday qadriyatlar kulguli bo'lib ko'rinar, biroq yozuvchining qiynagan asl mohiyat ham bugungi yoshlarning o'tmish ajdodlari yaqin qarindoshlaridan uzoqlashib, qarindosh-urug'ini tanimay borayotgani o'rtada jigarchilik, urug'chilik kabi qadriyatlarning unutilayotgani Maqar obrazi orqali o'ylantiradi.

Maqar hayotning ma'nosi va ahloqiy tanlovlar orasida azoblanadi.

U dunyoni tushunarsiz va ma'nosiz deb biladi. Hattoki o'zining harakatlarini ham shubha ostiga qo'yadi.

Ekzistensial qahramonlar Albert Kamyu – "Begona" (Merso), Frans Kafka – "Jarayon" (Yozef K.), Fyodor Dostoyevskiy – "Yerto'ladagi odam" asarlarida ham ko'rish mumkin. Shuhrat Matkarimning Maqar qissasi qahramoni ham o'zining mavjudligini chuqur tahlil qiladi, hayot va o'lim orasidagi noaniqlikdan aziyat chekadi va tanlov erkinligi unga og'irlik qiladi.

Shuhrat Matkarimning Maqar obrazi o'z hayoti uchun javobgarlikni o'zi his qiladi, birovga og'ir yuk bo'lishni istamaydi. Nafaqaga chiqib ham bekor o'tirmadi.

"Lekin qarri ham odam, non yegisi, o'ynagisi, kulgusi keladi. Uyida o'tirsa ichi qisadi. Shuning uchun ina, oyog'imni zo'rg'a sudrab bo'lsa ham, to'rva xaltamni sudrab yuribman. Kampir borma, deydi ko'lga. Lekin bolalarga tarqatganimdan qolganini sotsam besh-olti tanga bo'ladi-da. "Meloch, no priyatno", degan o'ris. Kimning qo'lga qarab o'tirasani. Ming bolang bo'lsa-da, bir tiyin ham so'rab bo'lmas ekan. Qiziq, a? Ota berish, bola olish uchun yaralgan ekan. Aksincha emas. Keyin uyda o'tirib ne ish etaman? It qirqamanmi? Shundi desam ham, kampir, o'tiring- o'tiring, pensiyangiz yetib ortadi, deydi. Ayy, pensiya degani ne? Uning ham egalari bor. Oqtiqlar, bolalar. Hammaning haqqi bor-da, shu xukumat beradigan pensiyada. Hammasi bering, bering, sizniki tavarik, deydi. Ay, o'lmagay bular. Bermay ne ish eta? Orqalab ketadimi? Kampir bechora meni qayg'uradi, bilaman. Tuvri, avvallari ko'lga kayf uchun chiqar edim. Yosh edim. Hech narsa bilinmas edi. Lekin endi kuni bilan ko'ldalavlab[2] yurish og'irlik qilayotir."

Ma'lumki qissalarda obrazlarning jon zodlar bilan hayot kechirishi yozuvchining qahramonning ruhiy talqini xususan, uning ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va ijtimoiy muhitga munosabatini ifodalashning ramziy shaklidir. Bu esa turli ruhiy jarayonlar va insonning shaxsiy rivojlanish jarayoni bilan bog'liq bo'ladi.

Maqar qissasida ham it obrazi orqali insonning ichki qo'rquvlarini yoki hayotiy qiyinchiliklarini ifodalagan. Yozuvchi qissada bosh qahramonning it obrazi bilan butun kunni o'tkazishi uning yolg'izlik motivi bilan bog'laydi.

Bu holat qahramonning ichki dunyosi, jamiyatdan ajralishi yoki o'zini tushunish jarayonini ifodalagan.

Adabiyotda bunday syujetlar turli ruhiy va falsafiy talqinlarga ega.

1. Jamiyatdan ajralish va yolg'izlik

Ba'zi qahramonlar jamiyatda o'z o'rnini topa olmagan uchun jon zodlar bilan yashaydi. Bu shuni anglatadiki, qahramonning ichki yolg'izligi tashqi dunyo bilan bog'liq muammolarga asoslangan.

"Maqar bolalari haqida o'ylaganda hamisha yuragining bir muyushida yaxshigina bir yoriq borday sezadi"[3] Bir kun

kelib shu o'zim deb o'ylagan bolasi yot odamga aylansa yomon ekan.

2. Ichki yolg'izlik va o'zini anglash

Maqar jismonan yolg'iz emas. Uning xotini va o'n nafar farzandi bor. Biroq Maqar ruhiy jihatdan o'zini tanho his qiladi. U insonlardan uzoqlashib, jon zodlar bilan yashashni tanlaydi. Maqar Xorazm Yo'lbarisi orqali o'zini anglay boshlaydi.

Maqarda alternativ do'stlik va hissiy ehtiyojlar ham bor. Maqar Xorazm Yulbarisi bilan do'stlashib, o'zining yolg'izligini bartaraf etadi. U shu iti orqali hissiy ehtiyojlarini qondiradi.

"Maqar baliqdan har kuni shunday qaytadi. Ko'ldan chiqishi bilan uni Xorazm yo'lbarisi kutib oladi. Xorazm yo'lbarisi bu bir cho'poniti. Qarib – churib, hech narsaga yaramay qolgan bir jonivor. U bu yerda bundan besh-o'n yillar oldin paydo bo'ldi. Shu vaqtda ham u juda qari edi. Hozir ham o'shandagiday, go'yo vaqt unga ta'sir etmayotdigandek. Shu-shu salvirab, qaltirab - qaqshab, zo'rg'a odim otishi. Shu-shu mayus ko'zlar. Faqat semirgan. Junlari yaltirab o'ziga kelib qolgan. Uning ne yerdan kelganligini, kimniki bo'lganligini hech kim bilmaydi[4]."

Maqar chol it obrazi orqali ezgulik va yovuzlik chegarasida bo'ladi. Bu bilan uning ichki dunyosidagi zulmat va yolg'izlik o'zining yaxshi va yomon tomonini anglashga yordam beradi. Maqar yana iti bilan do'stlashib mukammal dunyodan qochish istagida yashaydi.

Qissada it bilan o'rtoqlashish faqatgina yolg'izlik ramzi emas balki bu yolg'izlik ijtimoiy, hissiy yoki falsafiy bo'lib, bu qahramonning muammolaridan qochish yo'li ham bo'lgan. Maqar it do'sti bilan ichki o'sish va o'zini anglash jarayonini ham boshidan o'tkazadi.

Shuhrat Matkarim Maqar qissasi orqali ekologik muammolarni ham talqin qilgan. Xususan "Maqar"da inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, ekologik muammolar ham o'ziga xos ramzlar orqali aks ettirilgan. Qissada qahramonning boshidan kechirganlari nafaqat insoniy hayot falsafasi, balki tabiat bilan uyg'unlik masalasini ham ko'rsatib beradi.

Makarning ota-bobolari ham shu qum etagida yashagan. Qum ichidagi ko'llarning son-sanog'i yo'q edi. Uydan chiqib bir odim otilsa ko'lga kirilardi. "Hayyy, ne degan ko'llar bor ediii?" xo'rsindi Maqar. "Bir xalta baliq tutish hech gap emas edi. Tirsakdan kamini olmas edik, kichkina, deb. Hammasidan mazali baliq suvan edi. Haa, loyli suvlarda bakra ham bo'lar edi. Tumshug'i sunchik, og'zi tomog'ining ostida, qorni quyruq'ining yonida bo'lar edi. Sal yursang bir-birlarining ortiga yashiringan qumtepalar. Sariq, qo'ng'ir kenglikning cheki ko'rinmaydi. Ko'z olding jimirlab ketadi. Ularning bag'ridagi sanoqsiz ko'llarni tasavvur etaman. Qumliklar ichida paydo bo'lgan ko'llar Xorazm tabiatining chinakam mo'jizasi. Cheksiz qumlik va o'rtada ko'm-ko'k ko'llar tizimi. Bular meni rom etadi[5]."

Xorazm yo'lbarisi – tabiiy muhit va inson munosabatining ramzi.

"O'sha kuni Maqar odatdagiday ko'ldan orqalanib chiqdi. Qarasa so'qmoqda bir narsa yotibdi. Bir g'altak tuproq uyumiday. Go'yo kimdir ko'lining qora uyug'ini olgan-u, shu yerga to'kkan - ketgan. "Bu ne ekan?" o'yladi Maqar. "Itga o'xshiyimi?" Notanish jonivor boshini qorni ustiga qo'yib yotar, junlari hurpaygan, dag'al va ko'rimsiz edi."

Shuhrat Matkarim Maqar qissasida tabiatga bo'lgan beparvolik va yovuz munosabatning oqibatlaridan so'zlaydi.

"Otamning aytishiga qaraganda biz bu yerga yangi ko'chib kelgan paytlarimizda qumliq bundan ancha keng bo'lgan ekan. Hozir esa mana, qumlar ham kundan-kun qisqarib borayotir. Sababi qumning to'rt tarafiga qudratli traktorlar solingan. Qum ayovsiz tekislanib, yerlar ochilmoqda. Sal epaqaga kelgan yerlarida uylar, ba'zan baland-baland ko'p qavatli domlar solinmoqda. Bir vaqtlar top-toza bo'lgan, turli hasharotlar-u, jon zodlarga makon bo'lgan qum yuziga hozir qarab bo'lmaydi. Hamma yerda inson qadami yetganligining isboti. Uyum-uyum qurilish ashyolari, ziyofatlardan keyin unutilib qoldirilgan konserva qutilari, shisha, qog'oz, plastik idishlar. Ular cho'ling gulday chehrasiga toshgan yiringli toshmalarga o'xshaydi. Juda xunuk ko'rinish. O'ylab qolaman. Nega hech kim od solmaydi, hamma jim[6]?"

"Maqar" qissasida yana ekologik muammolar va insoniy loqaydlikni tarannum etadi. Qissada yozuvchi hayvonlar va tabiat

insonlarning noto'g'ri munosabati tufayli zarar ko'rayotganidan odamlarni ogohlantiradi.

“Yovuz kuchlar, u qanday ko'rinishga ega bo'lmasin, hech kimga halaqiti bo'lmagan tabiatimizning mana shunday mo'jizalarini - hayvonot-u nabobotini mahv qilishga chog'langani qanchalik ayanchli. Shularni o'ylaganda beixtiyor xitob qilgisi keladi kishining: Ey, birodarlar! Bu ne degan gap? Do'ppini boshdan olib, bir o'ylab ko'ring. Cho'lda o'z kunini o'zi ko'rib yurgan qumpishikmi, yumronqoziq yo bo'lmasa beozorgina tovushqon sizdan bir tishlam non yo uyingizning bir xonasini so'rab keldimi? YO tinchingizni buzdimi? Bunday bo'lishi tugul, ular sizlarning uzoqdan eshitaladigan tovushlaringizdan ham cho'chishadi. Chunki biz ongli, aqlli yovuzmiz-da. Payt poylaymiz, beozorgina jonivorlarga qarshi tish tirnog'imizgacha qurollanamiz. Miltiq, pichoq, sanchqi va hakoza. Insonmiz, rahmdilmiz, deysiz-u, tabiatga nisbatan yovuzlik ishlatishga qo'limizda bo'lgan-u, bo'lmagan barcha imkoniyatlardan beayov foydalanamiz. O'ldirsak bo'ldi tabiatni. Bizga hayvonmi, qushmi farqi yo'q. Ularning qoni bilan nafsimizni qondiramiz, bolalarimizga yediramiz ularning go'shtini. Ammo bu jonivorlarning ham joni, bolalari, jufti-haloli borligini xayolimizga ham keltirmaymiz. Shuning uchun ular bizni uzoqdan ko'rishi bilan qochishadi. Lekin biz ularni yovvoyi, yirtqichlar deymiz. Lekin haqiqiy yirtqich biz bo'lamiz. Agar tirikchilik qilish zarurati bo'lmaganda edi, uylaridan jimitdek masofaga ham chiqmagan bo'lar edi. Ammo ular ham qorinlarini to'ydirishlari, bolalarini boqishlari kerak. Shuning uchun uyasidan, inidan, uylaridan chiqishga majbur. Lekin shunda ham bizni bezovta qilishmaydi, bizni o'ldirish, yeyish maqsadida uyimizga qurol ko'tarib kelishmaydi. Och qolishsa ham bunday qilishmaydi, qilisholmaydi. Ochlikdan o'lib ketaverishadi. Biz esa ularni o'ldirib ham kifoyalanmaymiz, vatanlarini - cho'llarni tekislab, o'rmonlarni kesamiz. Biz o'zimizning besh kunlik dunyoimiz, o'zimizning huzur - halovatimiz uchun ularning yurtlarida baland-baland uylar quramiz, o'n barmog'imizni og'zimizga tiqamiz. Hamma yoqqa chang solib yotibmiz, xattoki qumlariga ham. Bir kun kelib shu qumlariga tiqilib o'lib ketishimizni xayolimizga ham keltirmaymiz”.

Qissada yozuvchi real hayotdagi ekologik muammolarni aks ettiradi. Qissa o'quvchiga oyna tutadi: yovvoyi hayvonlarning yo'q bo'lib ketishi – bugungi dunyoda ko'plab hayvonlar inson faoliyati natijasida qirilib ketmoqda. Tabiatni muhofaza qilishning ahamiyati – inson tabiat bilan uyg'un yashamasa, ekologik muvozanat buziladi.

Qissada inson va hayvon o'rtasidagi aloqa juda ta'sirli keltirilgan. Bu real hayotda insonlarning tabiat oldidagi mas'uliyatini eslatadi. Agar inson tabiatni asramasa, oxir-oqibat o'zi ham zarar ko'radi.

“Mana Orol nichik bo'lgan bir vaqtlar. Qanday to'liqlanib yotgan, bag'rida qanday ajoyib baliqlar yashagan! Kemalar bir ketishda tonna-tonna ov bilan qaytganlar. Men Orolni, uning shovullab turishi-yu, qirg'oqlarga shoppillab urib turgan to'liqlarini ko'rmaganman. Lekin eshitgan gaplarimdan bilaman-ki, uning qirg'og'ida xayol surib tursang dengizdan mayin, salqin havolar keladi. Orolning chetlarida takalliklarning, u yoqdan bu yoqqa, bu yoqdan u yoqqa uchib o'tayotgan turli qushlarning yaqin-uzoq ovozlari tinmay eshitilib turadi. Lekin haqiqatan ham shundaymi yo bu bir xayolmi, bilmayman.

U Orolni bolaligida shunday tasavvur etirdi. Hozir esa Orol desa ko'z oldiga million-million gektar sho'r-garava bosib yotgan, “chilt” etgan xayot nishoni yo'q, shovullagan shamollar yuz, ming, o'n minglagan kilometrarga ofatlar yog'dirib yotgan cheksiz maydon ko'z oldiga keladi. Maqar Orolning bugungi holatini ham ko'rmagan, bormagan. O'z-o'z, qanchalik dahshat bo'lishi mumkin u manzara. Uni tasavvur etishga uringanida yuraklari ezilib ketadi. U o'zini odam emas, kichkina, juda kichkina, bir jonotday his qiladi. Kaltakesakmi yo boshqami. U o'zini hatto echkimarday ham his qilolmaydi. Echkemar katta, u esa kichkina, ojiz va ko'rimsiz bir jonivor. Kaltakesak. Undan maydaroq va yoqimsiz nima bor? Agar bo'lsa Maqar shuning xud o'zi. Hatto kaltakesak ham emas[7].”

“Maqar” qissasi ekologik muammolar haqida chuqur ma'no beruvchi asar bo'lib, tabiat va hayvonlarni himoya qilish zarurligini ko'rsatadi. Bir so'z bilan aytganda “Maqar” qissasi inson faqat o'z manfaatini o'ylamasdan, tabiatga hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerakligini o'quvchiga singdiradi.

ADABIYOTLAR

1. Шухрат Маткарим. Мақар. – Тошкент: “Тубо нашр”, 2024. 216 бет.
2. Алавлaб – сандироклаб
3. Шухрат Маткарим. Мақар. – Тошкент: “Тубо нашр”, 2024. 216 бет.
4. Шухрат Маткарим. Мақар. – Тошкент: “Тубо нашр”, 2024. 216 бет.
5. Шухрат Маткарим. Мақар. – Тошкент: “Тубо нашр”, 2024. 216 бет.
6. Шу китоб
7. Шухрат Маткарим. Мақар. – Тошкент: “Тубо нашр”, 2024. 216 бет.



УДК: 81'373.45

Халима ХАКИМОВА,
НОУ «Университет Маъмуна» самостоятельный соискатель
E-mail: halimushka1@gmail.com

Рецензент: д.ф.н., профессор УрГУ О.О. Чупонов

ГЛОССЫ В ИСТОРИЧЕСКИХ РОМАНАХ М.И.ШЕВЕРДИНА, ПРОНИКШИЕ В РУССКИЙ ЯЗЫК В XVIII ВЕКЕ (НА МАТЕРИАЛАХ НКРЯ)

Аннотация

В данной статье рассматривается вопрос о глоссах, функционирующих в исторических романах М.И.Шевердина, которые стали употребляться в русском языке с XVIII века. Отмечается, что 9 единиц соответствуют указанной хронологической рамке и они проникли в русский язык в силу различных причин. Для получения сведений о первом употреблении той или иной единицы в русском языке использованы материалы Национального корпуса русского языка.

Ключевые слова: Глосса, роман, М.И.Шевердин, экзотизм, НКРЯ, исторический памятник, стиль, Восток, реалия.

18-ASRDA RUS TILIGA TAKOMILLASHTIRILGAN M.I.SHEVERDIN TARIXIY ROMANLARIDAGI GLOSLAR (RTMK MATERIALLARI ASOSIDA)

Annotatsiya

Ushbu maqolada M.I.Sheverdin tarixiy romanlarida qo'llanilgan va rus tilida XVIII asrdan boshlab muomalaga kirgan glossalar tadqiq qilingan. Aniqlangan birliklardan 9 tasi ushbu davrga to'g'ri kelishi va ularning kirib kelishi turli sabablar bilan bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Rus tilida u yoki bu birlikning ilk bor ishlatilishi to'g'risida ma'lumot olish uchun Rus tilining milliy korpusiga murojaat qilingan.

Kalit so'zlar: Glossa, roman, M.I.Sheverdin, ekzotizm, RTMK, tarixiy manba, stil, Sharq, realiya.

GLOSES IN THE HISTORICAL NOVELS OF M.I. SHEVERDIN, IMPROVED INTO THE RUSSIAN LANGUAGE IN THE 18TH CENTURY (BASED ON MATERIALS OF NCRL)

Annotation

This article examines the issue of glosses functioning in the historical novels of M.I. Sheverdin, which penetrated into the Russian language in the 18th century. It is noted that 9 units correspond to the specified chronological framework and they penetrated into the Russian language due to various reasons and began to be used in the appropriate context. To obtain information about the first use of a particular unit in the Russian language, the materials of the National Corpus of the Russian Language were used.

Key words: Gloss, novel, M.I. Sheverdin, exoticism, NKRYA, historical monument, style, East, reality.

Введение. М.И.Шевердин занимает важное место в русской литературе XX века: его творчество глубоко связано с историческим контекстом и культурными событиями, происходившими в Узбекистане в указанный период. В его творениях нашли свое отражение как личные переживания, искания писателя, так и задокументированы важные изменения, происходившие в нашей стране в столь важный период развития.

М.И.Шевердин снискал уважение в творческой среде и по той причине, что активно исследовал темы национальной идентичности и культурного наследия узбекского народа, сумел запечатлеть уникальные черты узбекской культуры, которые формировались под влиянием различных социально-исторических факторов. Автор обращается к фольклору, традициям и быту узбекского народа в процессе создания своих исторических романов. Не менее важной особенностью творений писателя является то, что он проводит глубокий анализ культурного взаимодействия между различными этническими группами, населявшими Узбекистан. Его романы показывают, как многонациональный состав страны обогащает культурный ландшафт и формирует уникальную синкретическую культуру.

Обзор литературы по теме. Глосса как языковое явление изучается в лингвистической науке с недавних времен. Зарубежными учеными-языковедами рассмотрены некоторые их особенности. В частности, М.А.Малышев исследует в сопоставительном аспекте проблемы глоссирования и внутритекстового толкования [6], в монографии Н.Ж.Шаймерденовой подобные единицы охарактеризованы как феномен текста [9], М.М.Чумандрина же изучает их роль в историческом тексте XVIII века [8].

К.И.Коваленко рассматривает глоссирование в качестве лексикографического приёма [3], а Г.С.Баранкова – как прием редактирования исторического текста [1].

Методология исследования. Для изучения семантических особенностей глосс, функционирующих в исторических романах М.И.Шевердина, которые проникли в русский язык в XVIII веке, в данной работе использованы методы сплошной выборки (при сборе примеров), контекстуального анализа (при выявлении особенностей употребления в тексте), сопоставительный метод (для сопоставления семантики единицы в текстах произведений М.И.Шевердина и историческом памятнике XVIII века).

Анализ и результаты. В плане языковых особенностей творения М.И.Шевердина отличаются интеграцией узбекского языка в русскоязычную разговорно-бытовую среду или наоборот, русского языка в узбекоязычную действительность, где единицы обоих языков претерпевают определенные изменения. Здесь особая роль принадлежит национальным реалиям и экзотическим элементам, обильное употребление которых можно отметить в качестве стиля М.И.Шевердина. В данной статье рассмотрим не менее интересное языковое явление, как глосса. В качестве предмета исследования нами были выбраны глоссы, которые проникли в русский язык до создания произведений М.И.Шевердина, точнее на протяжении XVIII столетия, когда стали активизироваться славянско-тюркские языковые контакты. Следует добавить, что большинство выявленных глосс характерно исключительно текстам исторических романов писателя. Для выявления особенностей функционирования глосс (экзотизмов) в произведениях писателя нами в тексте его исторических романов было выявлено 822 единицы.

Глосса представляет собой интерпретацию или перевод непонятного, устаревшего, диалектного слова или выражения. Этимологически понятие восходит к греческому γλῶσσα, которое употреблялось в значениях «язык», «речь». В основном в исторических источниках встречаем два вида глоссы – интерлинейную (написанные над или под строкой текста) и маргинальную (на полях рукописи или книги). Сперва учеными в качестве глоссы обозначались любые чуждые для языка единицы или целые выражения. Впервые глоссы стали применяться у греков при изучении поэзии Гомера, в дальнейшем – при толковании отдельных отрывков Библии, а также юридических текстов [4]. В дальнейшем глоссой стало называться толкование, перевод, помещенный непосредственно в текст. В частности, у М.И.Шевердина можно обнаружить как перевод употребляемого иноязычного слова или выражения, так и перевод непонятных единиц.

Воспользовавшись возможностями Национального корпуса русского языка, выявили, что 9 единиц (гяур, таш, муфтий, батман, дервиш, курган, калым, шайтан, юзбаша) из 822 были употреблены в текстах на русском языке еще в XVIII веке. Возможно, эти слова проникли в русский язык в результате контактов с тюркскими, персидскими и арабскими народами, а также в результате колонизации, торговли и культурного обмена. Рассмотрим каждую единицу по отдельности. Пояснения к данным единицам соответствует шевердинским текстам.

Гяур

Значение: неверный (человек)

Пример первого употребления: новый Немче Гяурь, (такъ называютъ Турки всѣхъ Христіанъ безъ изыятія)

Год употребления: 1738

Источник: К.Таубертъ. Краткое описание всѣхъ случаевъ касающихся до Азова отъ создания сего города до возвращенія оного подъ Россійскую державу

Пример функционирования в тексте произведений М.И.Шевердина: Дней пять назадъ объявилъ, что большевики – это гяуры – неверные (Набат. Агатовый перстень, с. 118).

Как видим, К.Тауберт воспринимает значение единицы гяур более узко, т.е. он под этим обозначением понимает только христиан. У М.И.Шевердина более корректное пояснение – всякий неверный человек или иноверец.

Таш

Значение: камень; мера длины около 8 километров

Пример первого употребления: а древней городъ Фанагорія называется на Турецкихъ Ландкартахъ [слова на арабскомъ] Кізілъ Ташъ, то есть красной камень

Год употребления: 1738

Источник: К.Таубертъ. Краткое описание всѣхъ случаевъ касающихся до Азова отъ создания сего города до возвращенія оного подъ Россійскую державу [перевод книги Готлиба Байера с немецкого]

Пример функционирования в тексте произведений М.И.Шевердина: Он машет в белесую муть рукой и бормочет что-то насчет «бир-еки таш». Но его таш тоже самая растяжимая величина – от пяти до пятнадцати верст (Набат. Агатовый перстень, с. 248).

К.Тауберт употребляет единицу таш в первом, более частотном значении, а М.И.Шеврдин – во втором. В произведениях писателя можно встретить данную единицу и в первом значении.

Муфтий

Значение: высший духовный чин, хранитель местных мазаров

Пример первого употребления: Муфтіѣ, главнѣйшій у Турокъ законоучитель, опасаяся, чтобы сей сыск болѣе не продолжился

Год употребления: 1755

Источник: Извѣстіе о житіи Турецкаго султана Махомета пятаго

Пример функционирования в тексте произведений М.И.Шевердина: но и такихъ представителей человека разумного – «гомо сапиенс», как волостной управитель, муфтий (Джейхун, с. 46).

Можно заключить, что значения единицы муфтий почти совпадают.

Батман

Значение: мера веса (несколько пудов)

Пример первого употребления: Въ учѣте былъ каждый батманъ [въсѣ въ 15 фунтовъ]

Год употребления: 1763

Источник: Ф.И.Соймонов. Описание Каспійскаго моря

Пример функционирования в тексте произведений М.И.Шевердина: ... десять батмановъ надо отдать мирабу (Тени пустыни, с. 456).

Дервиш

Значение: мусульманский монах

Пример первого употребления: идетъ въ дервиши (магометанскія монахи)

Год употребления: 1763

Источник: Ф.А.Эмин. Непостоянная фортуна или похождение Мирамонда

Пример функционирования в тексте произведений М.И.Шевердина: Зикры устраиваютъ, какъ правило, дервиши – мусульманскіе монахи (Санджаръ Непобѣдимый, с. 260).

Если считать, что слова магометанин и мусульманин абсолютными синонимами, то значения слова дервиш у М.И.Шевердина и Ф.А.Эмина также идентичны.

Курган

Значение: крепость, огороженный двор

Пример первого употребления: ...то меньше нежели в десять минутъ узрели надъ могилою бугоръ, или курганъ, огромной величины...

Год употребления: 1766

Источник: М.Д.Чулков. Пересмешникъ, или Славенскіе сказки

Пример функционирования в тексте произведений М.И.Шевердина: Ходили по всемъ курганамъ, спрашивали хлебъ, ячмень, муку... (Тени пустыни, с. 41). Как видим, значение в первоисточнике и в тексте произведения М.И.Шевердина не совпадают. Следует отметить, что перед нами многозначное слово. Данное слово в значении «могильный холмъ въ степяхъ южной Россіи и Сибири» мы встречаемъ впервые в словаре И.О.Жиркова «Словарь иностранныхъ словъ, настольная книга для народныхъ читален и библиотекъ» [2, с. 95]. Другие его значения в словарях русского языка не зафиксированы. Следовательно, М.И.Шеврдин употреблял его в значении, которое характерно узбекскому языку. В частности, в Толковом словаре узбекского языка приводятся 3 значения указанной единицы. Последнее (усадыба, все постройки которой обнесены стеной) [7] совпадает со значением в шевердинском тексте.

Калым

Значение: выкуп, уплачиваемый женихом за невесту

Пример первого употребления: Когда согласной на то получить отвѣтъ, то сошедшися съ обоихъ сторонъ отцы и матери договариваются сперва о калымѣ, то есть, выкупѣ

Год употребления: 1769

Источник: И.И.Лепехин. Дневныя записки путешествія доктора и Академіи Наукъ адъюнкта Ивана Лепехина по разнымъ провинціямъ Россійскаго государства, 1768 и 1769 году

Пример функционирования в тексте произведений М.И.Шевердина: Паршивыхъ два барашка – калымъ? (Джейхун, с. 201).

Шайтан

Значение: дьявол, сатана

Пример первого употребления: оно болѣе до чреватыхъ Башкирокъ принадлежить, и называется Шайтанъ Уинь (Бѣсовая игра)

Год употребления: 1770

Источник: И.И.Лепехин. Продолженіе Дневныхъ записокъ путешествія академика и медицины доктора Ивана Лепехина по разнымъ провинціямъ Россійскаго государства въ 1770 году

Пример функционирования в тексте произведений М.И.Шевердина: Сатана – шайтан на Востоке не столь страшен, сколько хитер (Семь смертных грехов. Книга первая, с. 122).

Юзбаши

Значение:

Пример первого употребления: дни пришел от шемахинского хана Юзбаши с четырьмя человеками взяли ево

Год употребления: 1716

